


M.O.Norbosheva

F.M.Yo'ldosheva

UMUMIY PSIXOLOGIYA

(o'quv-uslubiy qo'lanma)



Termiz-2016

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

M.O.Norbosheva

F.M.Yo`ldosheva

UMUMIY PSIXOLOGIYA

fanidan kurs ishlari tayyorlash yuzasidan o`quv-uslubiy qo`llanma

Termiz-2016

Ushbu o`quv-uslubiy qo`llanmada psixologiya ta'lim yo`nalishi bakalavriat (5310200) talabalarining Umumiy psixologiya kursi yuzasidan tayyorlaydigan kurs ishlari mavzulari, mavzuga oid uslubiy ko`rsatmalar va tegishli adabiyotlar ro`yxati keltirilgan. Talaba kurs ishi tayyorlashda ushbu qo`llanmadan keng foydalanib, tegishli metodik yo`riqnoma oladi.

Qo`llanma nafaqat talabalar uchun balki, amaliyotchi psixologlar, pedagoglarga ham foydalanishga tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

TerDU psixologiya kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari
nomzodi B.Sodiqov.

O`zJTU psixologiya kafedrası dotsenti
Psixologiya fanlari nomzodi B.M.Umarov

Muharrir: dots. B.Umurqulov

Termiz davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2015 yil «__»_____ №__ qaroriga
muvofig nashrga tavsiya etilgan.

Termiz davlat universiteti

Kirish

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» jamiyatimiz ravnaqi uchun har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga yanada jiddiyoq yondoshishni taqozo etmoqda. Zero, har tomonlama zukko qilib tarbiyalangan shaxslar jonajon mamlakatimizning kelajagi buyuk bo'lishini yanada yaqinlashtirishi tabiiy, bu esa, eng avvalo barcha turdagi ta'lim muassasalarida o'qilayotgan fanlarning ijtimoiy qimmatiga va sifatiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatini hal qilishi ko'p jihatdan o'qituvchilarning o'z fani bo'yicha chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishiga hamda pedagogik mahoratiga bog'liq. Shuning uchun ham bugungi kunda o'qituvchi va tarbiyachilarning, xalq ta'limi xodimlarining psixologiyaga oid bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish masalasiga alohida e'tibor berish zarurati tug'ilmoqda.

Hozirgi vaqtda oliy ta'limni qayta qurish, uni ishlab chiqarish bilan yanada ko'proq yaqinlashtirish ishlari olib borilayotgan bir sharoitda fan va nazariyaga asoslangan bilimga, amaliy malakalarga ega bo'lgan va yangi zamonaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qila borishga layoqatli mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston respublikasi o'zining ta'lim sohasidagi siyosatida oliy va o'rta maxsus muassasalarda mutaxassislar tayyorlash mazmunini xalqimizning uzoq muddatli ehtiyojlari bilan, respublikamizni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish vazifalari bilan muvofiq holga keltirishni ta'limning xilma-xil shakllari va usullari yordamida yoshlarning sifatli ta'lim olishi uchun sharoit yaratishni dolzarb vazifalardan biri deb hisoblanmoqda.

Shunday ekan, mutaxassislik fanlardan tayyorlanadigan kurs ishlari ham bo'lg'usi mutaxassislar tayyorlashda asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Talabalarning psixologiyaga oid bilimlarini o'zlashtirib borishlari yuzasidan olib boriladigan ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etish va mustaqil ishlash ko'nikmasi tufayli talabalar psixologiyadan mukammal bilim oladilar. Talabalar kurs ishlarini tayyorlashda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Kurs ishi talaba faoliyatining muhim va murakkab shakllaridan biri bo'lib, u yoki bu kursga oid bilimlar tizimini mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi ish turi hisoblanadi. Kurs ishi yordamida talabaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalari ilmiy-metodik fikrlash, belgilangan mavzu yuzasidan bilganlarini izchil bayon eta olish ko'nikmalari nazorat qilinadi.

Kurs ishi yozayotgan talaba mavzuni mukammal yoritishi, mavzuga oid adabiyotlarni o'rganganligini ko'rsata olishi, mustaqillikga amal qilishi, tegishli asosiy amaliy tavsialarni ifodalay olishi zarur.

Kurs ishi bevosita kafedra tomonidan biriktirilgan ilmiy rahbar nazorati va yo'llanmasi asosida amalga oshiriladi.

Ilmiy rahbar kurs ishi bajarilishi jarayonida tegishli ilmiy-metodik maslahatlar beradi. Kurs ishi yozib tugatilgach dekanatga topshiriladi. Dekanat ro'yxatdan o'tkazib rahbarga topshiradi. Rahbar 10 kun mobaynida tekshirib, kafedrada himoya qilishga topshiradi. Kurs ishi quyidagi qismlardan tashkil topadi.

- muqova
- mundarija
- kirish
- asosiy qism
- xulosa
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.
- ilovalar

Kurs ishi hajmi 30-40 betdan iborat bo`ladi.

Mazkur qo`llanma esa shu xildagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordamlashadi, hamda kurs ishlarini tayyorlash borasidagi ishlarni metodik jihatdan to`g`ri tashkil etishga yordam berish maqsadida tayyorlangandir.

Kurs ishlarini tayyorlash jarayonida talabalar tavsiya qilinayotgan adabiyotlarini qunt bilan o`rganib chiqishi hamda nazariy qismni tayyorlashi ko`zda tutilgan. Amaliy qismda esa tavsiya etilayotgan metodikalar yordamida mustaqil holda psixologik tajribalar o`tkazib, olingan natijalarni miqdor va sifat tahlil qilishi lozim. Talaba bajargan kichik tadqiqoti yuzasidan tegishli xulosa tayyorlaydi va o`z mulohazalarini asoslaydi.

Kurs ishlari asosan quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko`zda tutadi.

-talabalarda psixologiyaga doir adabiyotlar ustida mustaqil ishlay olish malakasini shakllantirish;

-talabalarni psixologiyaga doir amaliy tadqiqotchilik malakalari bilan qurollantirish

-talabalarni psixologiyadan egallagan nazariy bilim va amaliy malakalarini pedagogik jarayonga tadbiq qila olishga o`rgatish:

-psixologik tadqiqot natijalariga tayangan holda mustaqil xulosa chiqarish ko`nikmasini shakllantirish;

-talabalarda psixologiyadan egallagan bilimlarini asosli, ishonchli va erkin bayon qilib bera olish malakasini tarbiyalash;

Taqdim etilayotgan ko`rsatmalarning barchasi har bir talabaning psixologiya fani haqidagi bilim va malakalarini yanada chuqurroq o`zlashtirilishi uchun biroz bo`lsada imkoniyatlar yaratishiga aminmiz.

Mavzu: Diqqatning ko`chish xususiyatini o`rganish

Talaba diqqat psixologiyasi haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganadi. Ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi. Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

**Topshiriq. Qora-qizil rangli raqamlarlardan tuzilgan jadval yordamida
diqqatning ko`chish xususiyatini tekshirish**

Tadqiqotning maqsadi: qora-qizil rangli raqamlardan tuzilgan jadval yordamida diqqatning ko'chish xususiyatini tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur asbob va jihozlar: sekundomer va rang jihatidan bir-biriga uyg'un bo'lmagan, betartib holda, mantiqiy esda saqlab qolishning oldini olish maqsadiga muvofiqlashtirilgan tartib (kombinatsiya)da tuzilgan 1 dan 25 gacha va 1 dan 24 gacha qizil rangli raqamlar (tekshiriluvchi oldindan tayyorlagan) jadvali.

Tadqiqotning borishi: tadqiqot uch seriyada o'tkaziladi.

B i r i n c h i s e r i y a. Bunda tadqiqotchi tekshiriluvchiga jadvaldagi qora rang bilan yozilgan 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamlarni o'sib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. Qaror yozib boruvchi esa tekshiriluvchi bu topshiriqni qancha vaqt ichida ijro etishni sekundomer vositasida aniqlab, yozib boradi.

I k k i n c h i s e r i y a. Tadqiqotchi tekshiriluvchidan jadvaldagi qizil raqamlarni 24 dan 1 gacha kamayuvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. Qaror yozib boruvchi esa xuddi oldingi seriyadagi kabi tekshiriluvchining topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqtini aniqlab, yozib boradi.

U c h i n c h i s e r i y a. Bunda tekshiruvchi tekshiriluvchigabir vaqtning o'zida galma-gal: qora raqamlarni ko'payib boruvchi, qizil raqamlarni kamayib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. Qaror yozib boruvchi topshiriqning xarakteri, uning bajarilishi uchun ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, qarorda qayd etadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: qaror yurituvchining yozuvlari asosida uchala seriyadagi topshiriqni bajarish uchun tekshiriluvchi qilgan vaqt va yo'l qo'ygan xatolarini quyidagi qaror jadvalida qayd etilib qo'yiladi.

T a j r i b a m a v z u s i: Diqqatning ko'chishini tekshirish.

Tekshiruvchi_____

Tekshiriluvchi_____

Sana_____

Ko'rsatkichlar	1-seriya	2-seriya	1-2-seriya	3-seriya
Vaqt xatolari				

Uchinchi seriyada bajarilgan topshiriq uchun sarflangan vaqt, garchi qolgan ikkala seriyalarda ham xuddi shu xil topshiriq bajarilgandek ko'rinsa-da, oldingi ikki seriyadagi topshiriqlarni bajarish uchun sarflangan vaqt teng emas. Ana shu ikkala vaqt ko'rsatkichlari orasidagi farq mazkur tekshiriluvchi diqqatning ko'chirilish vaqti, ya'ni bir faoliyatdan ikkinchi boshqa bir faoliyatga o'tish vaqti bo'lib hisoblanadi.

Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 208-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 257-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 251-268 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 40-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar» «O'qituvchi» Toshkent-1978 yil, 33-bet;
6. Q.Daminov, O'. Otavaliyeva, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg'ulotlari»-Toshkent, «O'qituvchi»-1994, 23 bet

Mavzu: Diqqatning taqsimlanish xususiyatini o`rganish

Talaba diqqat psixologiyasi, diqqat xususiyatlari, turlari haqida tegishli adabiyotlardan o`rganib, ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlaydi. Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi..

Topshiriq: Burdon korrektur sinovi metodikasi yordamida

Tajriba o`tkazish

Tadqiqotning maqsadi: tahrir (korrektura) sinovi metodi orqali diqqatning taqsimlanish xususiyatini tekshirib ko`rish.

Tadqiqot uchun zarur jihoz: tahrir (korrektura) sinovi uchun harflar qatoridan tashkil topgan (tadqiqotchi tomonidan oldindan tayyorlab qo`yilgan) blankalar.

B i r i n c h i s e r i y a d a tekshiriluvchi harflar qatoridan iborat bo`lgan tahrir (korrektura) blankasiga diqqat bilan ko`z yugurtira borib, iloji boricha tez va aniq «s», va «b» harflarini chiziq bilan o`chirib chiqishi, «k» harfining tagiga esa gorizontal chiziq chizishi lozim.

Tadqiqotchining ishorasi bilan tekshiriluvchi har bir daqiqa vaqt o`tgandan keyin qatorlarda vertikal chiziq chizadi, bu esa tekshiriluvchining ish mahsuldorligi dinamikasini hisobga olishga imkon beradi.

I k k i n c h i s e r i y a d a tekshiriluvchi oldin bajargan topshiriqni yangi tahrir blankasida bajariladi. Shu bilan birga tekshiriluvchi juft yoki toq sonlarni ovoz chiqarib aytib boradi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: Har ikkala seriyadagi bajarilgan topshiriqlarning xarakterini, ikkala seriyadagi yo'l qo'yilgan xatolar sonini alohida-alohida hisoblab chiqib, har ikkala seriyadagi bajarilgan topshiriqlarning umumiy sonini aniqlab, bir-biriga taqqoslaydi. Shu yo'l bilan kishi diqqatining taqsimlanish xususiyatiga oid dastlabki muhimma'lumotlar olish va xulosa qilish mumkin.

Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 208-232 betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 257-273 betlar,
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-192, 251-258 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 42-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar» «O'qituvchi» Toshkent-1978 yil, 31-33-bet;
6. Q.Daminov, O'. Otavaliyeva, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg'ulotlari»-Toshkent, «O'qituvchi»-1994, 24 bet

3-Mavzu: Qobiliyatlarni aniqlash

Talaba qobiliyatlar psixologiyasi ya'ni, qobiliyatlarning tarkib topishi, tuzilishi, rivojlanishi, qobiliyatlarning shaxs taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida tegishli adabiyotlardan o'rganib, nazariy qism tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba rejaga muvofiq topshiriqni bajarib, olingan natijalarini tahlil qiladi.

Topshiriq:Quyida prof.B.R.Qodirov tomonidan ishlab chiqarilgan va amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan shaxs qobiliyatini o'rganish bo'yicha iqtidorli talabalarni aniqlash metodikasini tavsiya etamiz.

Umumiy aqliy rivojlanganlikni, intellektual salohiyati bilan ajralib turgan yoshlarni aniqlashga qaratilgan ushbu sotsiometrik metodika oliy yoki o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari guruhida o'tkazishga mo'ljallangandir. Metodikaning yutuqli tomonlaridan biri shundaki, uni talabalarda o'tkazishdan oldin maxsus javob varaqalarini ko'paytirish talab etilmaydi va oddiy varaq qog'ozda anonim tarzda o'tkaziladi. Tadqiqotchi guruhdagi eng zukko, iqtidorli talabani aniqlash istagi borligini tushuntirib, ularni bu ishga xolis va jiddiy yondoshgan holda yordam berishlarini so'raydi. So'ngra talabalarga murojaat qilib, ulardan guruh a'zolari o'rtasida har tomonlama etuk, aqli, o'tkir, zehqli, faol va ko'pchilikning hurmatini qozongan 10 nafar talabani ism-familiyalarini bir ustun shaklida, 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar bilan belgilagan holda yozib chiqishlarini so'raydi (1-jadvalga k). Talabalarga tushunarliroq bo'lishi uchun doskadan foydalanib tushuntirish mumkin.

Qog'ozning chap tomonida guruhdagi eng ilg'or talabalarning ism-familiyalarini barcha ishtirokchilar o'z bilganlaricha yozib bo'lishgach ro'yxatning o'ng tomonida 3 ta ustun-A, B, V ustunlarini chizishlari va ularni mos ravishda «Mehnatsevarlik», «Zukkolik», «Tashkilotchilik» deb nomlashlari kerak bo'ladi.

So'ngra taqiqotchining ko'rsatmasiga binoan ro'yxatdagi talabalar orasidan eng mehnatsevar, tirishqoq, intiluvchan, o'z ustida tinmay ishlaydigan, faol 3 nafar talabani

tanlaydilar va A ustunida tegishli ism-familiyalarning qarshisiga «Q» belgisini qo'yadilar. Ya'ni, A ustuniga jami bo'lib 3 ta «Q» belgisi qo'yilishi kerak.

3-jadval

Guruhning eng ilg'or talabalari	A mehnatsevarlik	B Zukkolik	V tashkilotchilik
1. I.Y	+		+
2. R.F		+	+
3.P.O`			
4. V.A	+	+	+
5. U.P			
6. N.E	+		
7.Sh.N			
8. H.O			
9.D.Y			
10. E.Z		+	

So'ng B ustunida ham ro'yxatdagi 10 nafar talaba orasidan uch nafarini ajratish kerak bo'ladi. Bunda talabalardan ijodkor, har qanday sohadagi muammoni qiynalmasdan, engil hal eta oladigan, hozirjavob, o'tkir zehnlil bo'lgan 3 talabani belgilashlari so'raladi. Shu o'rinda talabalarning diqqatiga havola etilishi zarur bo'lgan holat shundan iboratki, ular A ustunida belgilangan talabalarni keyingi ustunlarda ham takroran belgilashlari yoki istagan boshqa talabalarni tanlashlari mumkin. Biroq har bir ustunda tanlab belgilanayotgan 3 nafar talabaning fazilatlarlari shu ustunda so'ralayotgan mazmunga javob berishi kerak, xolos.

Uchinchi, V ustunida yana o'sha ro'yxatdagi talabalar orasidan tashkilotchi, o'z aql-farosati bilan boshqalarni o'ziga ergashtira oladigan, ularga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan, tashkiliy faolligi bilan ajralib turadigan 3 kishining ism, familiyalari qarshisiga «Q» belgisi qo'yish so'raladi.

Shunday qilib, A, B, V ustunlarining har biriga 3 martadan jami 9 ta «Q» belgisi qo'yiladi va shu bilan guruh o'z vazifasini bajarib bo'lgan hisoblanadi. Shundan so'ng javob varaqalari tezda terib olinadi, guruh esa navbatdagi ishlari bilan mashg'ul bo'lishi mumkin.

Olingan ma'lumotlarning talqini va ularni qayta ishlash

Ma'lumotlarni olish jarayonini mazmunan tahlil etgan holda ta'kidlash mumkinki, «A» ustunidagi ma'lumotlar talabaning irodaviy xislatlarini, qiyinchiliklardan qo'rqqmasligini, sabr-bardoshliligini aniqlashga qaratilgan. Har qanday iste'dodning zamirida yotuvchi bu muhim ko'rsatgichni mehnatsevarlik omili deb atashimiz mumkin.

«B» ustuni talabalarning aqliy imkoniyat saviyalarini aniqlashga qaratilgan. Shubhasiz, fikrlashda, fahm-farosatda, hozirjavoblikda sezilarli darajadagi afzalliklarga ega bo'lmagan kishida aqliy iste'dod to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. Shu sababli, shartli ravishda B ustunini zukkolik omili deb nomlash mumkin.

«V» ustuni esa talabalarning ijtimoiy etukligi, har qanday guruhga, jamiyatga bosh bo'lish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Albatta bunday sardorlar aql-zakovat va sabr matonatlari bilan jamiyatda o'zlarini ko'rsata olsalar, ulardan kelajakda tom ma'noda orzu qilingan barkamol insonlarni, liderlarni kutish mumkindir. Shu sababli, «ilg'orlik tushunchasini to'liq aks ettirish maqsadida tashkilotchilik omili kiritilgan bo'lib, V ustunida o'z ifodasini topgan.

Ko`rinib turganidek, har uchala ko`rsatkich ham aqliy qobiliyatlarning muhim hayotiy qirralarini o`zida mujassam etadi va ularning bir insonda jamlanishi juda katta salohiyat, aqliy va ijtimoiy etuklikdan darak berishini qayd etish mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda olingan ma'lumotlarni qayta ishlashning quyidagi usulini tavsiya etamiz.

Dastlab, har bir talabaning javob varaqasidagi ma'lumotlarni alohida ishlanib, keyin olingan natijalarni umumlashtiruvchi jadvalga ko`chirib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Javob varaqasida «+» belgilari soni satrlar bo`ylab gorizontal yo`nalishda sanab chiqiladi. Ravshanki, javob varaqasida keltirilgan 10 nafar talabaning qarshisidagi «+» belgilari soni 0 dan 3 gacha bo`lishi mumkin. Agar biror talaba uchala ustunda ham tanlangan bo`lsa, mumkin. Agar biror talaba uchala ustunda ham tanlangan bo`lsa, unga 3 ball qiymat beriladi. Agar talaba ism-familiyasining qarshisiga 2 ta «+» belgisi qo`yilgan bo`lsa, bu talabaga 2 ball beriladi va agar uchta ustundan faqat bittasida «+» belgisi mavjud bo`lsa bu talaba 1 ballga ega bo`ladi. A, B, V ustunlarining birortasida hambelgilanmagan talabalarga ball qo`yilmaydi va umumlashtiruvchi jadvalga ularning ism-familiyalari ko`chirilmaydi.

Demak, har bir talaba topshirgan javob varaqalarida faqat 1,2 yoki 3 ballga ega bo`lgan familiyalargina maxsus zukkolarini tanlash metodikasidagidek matritsa (jadval) tuziladi, unga javob varaqalaridagi ball olgan bolalarning familiyalari tegishli ballari bilan navbatma-navbat ko`chirilaveradi. Agar biron bir talabaning familiyasi jadvalda avvvval qayd qilingan bo`lsa, familiyasi yana qaytadan yozilmay, avval yozilgan familiyasi qarshisida uning javob varaqasidagi bali qo`yiladi. Shunday qilib, barcha javoblar matritsaga ko`chirilgan matritsada eng ko`p ovoz olgan eng kam ovoz olgan talabalarni bevosita ballarining ko`p-kamligidan bilsa bo`ladi. Bu erda ham N ko`rsatkichi-ovozlar soni, M esa ularning yig`indisi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, tadqiqot natijalarini qayta ishlashning quyidagi usulini bajarish mumkin.

4- жадвал.

F.I	BALLAR	H	M	$K = \frac{M}{3 \cdot n} \cdot 100\%$
1. K. U	3.2.3.2.1.3.3.1.3.3.2	11	26	57.78%
2.I.X	1,1,2,3,3,2,1,3,2	9	18	40.00%
3.S.M	1,2,2,1,1,1,2,3,1	9	14	31.11%
4.K.Yu	2,3,3,1,1,1	6	11	24.44%
5.F.A	1,1,3,2,1,1,1	7	10	22.22%

Jami ishtirokchilar; 15 kishi ($m=15$)

Tadqiqotda, masalan, 15 kishi ($n=15$) ishtirok etayotgan bo`lsa, bir talabaga ko`pi bilan 15 kishi ovoz bergan bo`lishi mumkin. Ravshanki, agar 3 balldan bayolanganda u `yoki bu talabaning ballar yig`indisi ( $M$ ) ko`pi bilan 45 ga teng bo`lishi mumkin ( $3 \cdot 15 = 45$ ). Biroq real holda  $M$  45dan ( $3 \cdot n$ dan) kichikdir. Yig`indi Mning foizi kamaygan sari tilga olingan talabaning «reytingi» tushib boradi Xullas, M miqdorining foizlardagi qiymati — K ko`rsatgichi juda muhim o`lchov birligi bo`lib, uni quyidagi matematik formula orqali tasavvur qilish va hisoblab topish mumkin:

$$K = \frac{M}{3 \cdot n} \cdot 100\%$$

Bu erda M -talabaga barcha ballar («+»lar soni) ning jamlanmasi, n -tadqiqot o`tkazilayotgan paytda unda ishtirok etayotgan guruh a'zolarining jami soni. Olinadigan natijalarning ishonchliligini ta'minlash ma'nosida  $n$  ning 3 ga ko`paytmasi esa har bir talaba olishi mumkin bo`lgan maksimal ovozlar sonini aks ettiradi.

K ko'rsatgichi kamida 50 foizga teng bo'lgan talabalar alohida diqqatga sazovordirlar. Bunday talabalarning o'qish faoliyatlari rag'batlantirilsa, qo'shimcha imkoniyatlar, qulayliklar keltiraigan insonlar etishishini kutish mumkin.

Izoh: 2 ta sinf yoki guruhda o'tkazilishi maqsadga muvofiq tajribada 50 nafar sinalluvchi qatnashishi zarur.

Adabiyotlar

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 25-39-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 386-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 479-500 betlar;
4. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari majmui. Toshkent-2003, 40 bet;
5. V.Karimova «Psixologiya» Toshkent, 2002 yil, 121-124 betlar;
6. E.G'oziev. Psixologiya. Toshkent. «O'qituvchi» 1994 yil

Mavzu: Sinf zukkolarini tanlash metodikasini qo'llash va uning ahamiyati

Sinf zukkolarini tanlash metodikasi haqida, uning ahamiyati, sinf zukkolarini tanlashda foydalaniladigan turli xil metodikalar haqida ma'lumot tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba ushbu metodikani amaliy bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

SINF ZUKKOLARINI TANLASH METODIKASI

O'z sinfingni bilasanmi?

A. Kimlar sinfda matematika, informatika, texnik uskunalar bilan shug'ullanishni yoqtiradilar yoki fizikadan eng yaxshi biladilar?

- 1.
- 2.
- 3.

B. Kimlar sinfda biologiya, ximiya yoki geografiyadan eng yaxshi biladilar, tabiat va odam organizmiga qiziqadilar?

- 1.
- 2.
- 3.

V. Kimlar sinfda eng ko'p badiiy, yoki tarixiy adabiyot o'qiydilar, yozma ishlar va insholarni yaxshi, xatosiz yoza oladilar?

- 1.
- 2.
- 3.

G. Kimlar sinfda san'at sohasida katta yutuqlarga erishgan, masalan yaxshi rasm chiza oladi, musiqa asboblari katta mahorat bilan o'ynay oladi, kuchli badiiy did va havasga ega, she'rlar mashq qiladi?

- 1.
- 2.
- 3.

D. Kimlar sinfda jamoa ishlari bilan ko'proq shug'ullanadi, jamiyatshunoslik, tarix, iqtisod, huquq masalalarini yoqtiradi?

- 1.
- 2.
- 3.

E. Sinfda eng dono, o'qimishli va tillarni o'rganishga katta havas bilan o'z ustida ko'p ishlaydigan o'quvchilardan uch kishining nomini keltiring?

- 1.
- 2.
- 3.

J. Darslardan qiyinchilik tug'ilganda sinfdoshlaringizdan kimlarga murojaat qilgan bo'ladingiz? (kimlardan maslahat so'ragan bo'ladingiz), ya'ni kimlar barcha predmetlardan juda yaxshi biladilar va yaxshi tushuntira oladilar?

- 1.
- 2.
- 3.

O'qituvchi sinfga kiringach, bolalarni yaqindan bilish istagi borligini tushuntirib, quyidagi o'yin-mashqni taklif etadi. Avvalo, har bir o'quvchi bir varaqdan toza qog'oz oladi, ammo unga diktant yoki insho yozgandagidek ism-familiya va boshqa narsalar yozilmaydi, ya'ni javob varaqasini to'ldirgan o'quvchining ism-familiyasi noma'lum qolishi kerak. Toza varaq olinganda bolalarga tushuntirish kerakki, har bir savolni bosh harf bilan belgilaydilar. Savollar tagida yoziladigan javoblar esa raqamlarda belgilanadi, birinchi javob-1, ikkinchi javob-2, uchinchi javob-3. O'quvchilarga shoshilmay, o'ylab, har bir savolga xolislik bilan yondoshish lozimligi ta'kidlanadi.

So'ng o'qituvchi dona-dona qilib, birinchi savolni o'qiydi. Savollarni bolalar yozmaydilar, lekin diqqat bilan tinglaydilar va o'qituvchi ularning ma'nosiga qisqacha tushuntirish bergandan so'ng o'quvchi savolga javoban tartib bilan o'z sinfdoshlaridan uchtagacha ism-familiya yozadi. Ya'ni har bir savolga javoban uning mazmuniga ahamiyat bergan holda bittadan uchtagacha eng zukko, shu sohada layoqatli bolaning ism familiyasini yozishlari mumkinligi tushuntiriladi.

Ism-shariflar yozilayotganda javob berayotgan o'quvchi nazaridagi shu savolga javoban eng ilg'or, bilimdon, yaxshi o'qiydigan va eng muhimi, shu savol doirasida kelajakda kasb tanlashi mumkin bo'lgan, shu yo'nalishni yoqtirgan, havas va moyilligi bor bo'lgan o'quvchini birinchi navbatda, undan keyin yana kimni shu kasbiy sohada ilg'or, bilimdon hisoblasa-ikkinchi o'quvchining ism-sharifi yozilishi lozimligi yaxshilab uqtiriladi.

Tajriba uzog'i bilan 15-20 minut davom etadi. Agar tajriba maqsadga muvofiq o'tkazilsa, olingan natija katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar beradi. Javob varaqlari tezda yig'ib olingach, sinf o'zining navbatdagi vazifalariga kiraverishi mumkin.

Tajriba natijalarini ishlash. Olingan ma'lumotlar tajriba maqsadiga qarab ikki usulda qayta ishlanadi.

Birinchi usul. Agar tajriba maktab doirasida sinf zukkolarini saralash maqsadida o'tkazilgan bo'lsa, unda javob varaqalarining ishlovi tajriba o'tkazilgan maktabning o'zida psixologlar, o'qituvchilar yoki ilmiy bo'lim mudiri, metodistlar tomonidan bajarilishi mumkin. Shubhasiz, tajriba bir nechta sinfda o'tkazilgan bo'lsa, har bir sinfning natijalari alohida umulashtiriladi.

Dastlab, birinchi savolga berilgan javoblar alohida ishlanadi, ya'ni birinchi savolga sinf bo'yicha qayd qilingan barcha familiyalar alohida jadvalga (matritsaga) ko'chiriladi. Agar bir familiya har xil o'quvchilar tomonidan qayta-qayta ro'yxatga olingan bo'lsa, ikkinchi martadan boshlab, o'sha familiya qarshisida navbatdagi javob varaqasidagi uning tartib raqami qo'yiladi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mukmin.

Jadval-1

Ismi va familiyasi	A. Matematika va fizika fani K o`r s a t k i c h l a r	«N»	«M»	«K»
1. I.X.	1,1,2,2,1,2,1,1,2,1,1,1,1,3,1,1,1,1,1,1,2,1,1,1,1,3,1,1:	29	38	1,31
2.G`.A	2,2,3,1,3,1,3,3,3,3,3,1,3,3,2,2,2,2,1,2,2,2,2,3,3,3	24	53	2,21
3.K.U	3,2,2,2,3,2,2,2,2,3,3,2,3,3,3,2,3,3,3,3	17	42	2,48
4.S.M	2,3,2,3,2,2,2,3,2,3,3,3,3,1,2	15	36	2,40
5.K.Yu	1,1,2,3	4	7	1,75

Sinfda o'ttiz bola o'tirgan bo'lsa, shulardan, masalan, birinchi savolga javoban jami bo'lib 10-12 kishi tilga olingan bo'lsin deylik. Yuqoridagi jadvalda har bir bolani necha kishi va nechanchi o'rinda tilga olgani ko'rinib turibdi: ba'zi bolalarni 20-25 kishi, boshqalarini 1-2 kishi qayd etgan bo'lsa, bir qancha o'quvchilar mutlaqo tilga olinmagan bo'lishlari ham mumkin.

Xuddi shu tartibda boshqa savollarga berilgan javoblar ham maxsus varaqlarga, matritsalariga ko'chiriladi. Shunday qilib, etti savolga berilgan javoblardan ettita birlamchi matritsalar tuziladi. Shu bilan javob varaqalarini ishlashning birinchi bosqichi tugaydi. O'quvchilar to'lg'azgan javob varaqalari ettita jadvalga ko'chirilgach, ikkinchi bosqich ishlovlari boshlanadi.

Ma'lumki, matritsalarda har bir sinfdan ko'pchilikning nazari tushgan, faol o'quvchilar ro'yxati va ular olgan ovozlarning miqdori ko'rinib turibdi. Endi bu ovozlarga tartib bilan ishlov bersak, biz istagan ma'lumotlarni olamiz. Yuqorida, 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida, uning davomida quyidagi amallar bajariladi: jadvalda keltirilgan har bir o'quvchining olgan ovozlarni sanab chiqamiz va bu son «N»ni, ya'ni mazkur o'quvchining sinf o'quvchilari tomonidan tilga olinish sonini tashkil etadi. Bizning misolda birinchi o'quvchi 29 marta tilga olingan ekan.

So'ng o'quvchi olgan ovozlarning tartib o'rinlari (ya'ni 1,2,3 raqamlari) jamg'ariladi. Yig'indi «M» ko'rsatkichini beradi. Bu ko'rsatkich yaxlit holda biron bir mazmunga ega emas, bola to'plangan ballarni ko'rsatadi, xolos. Endi «M» ko'rsatkichning «N» ko'rsatkichiga nisbatan «K» ko'rsatkichni topamiz. Ya'ni «M»ni «N» ga bo'lamiz. Shunda bo'linma «K» muhim psixologik mazmunga ega bo'ladi. Jadvaldagi «K» ko'rsatkichida ifodalangan natija ayni bir familiyani sinfda tutgan mavqeining sonlarda ifodalangan o'rtacha qiymatini aks ettiradi. Ravshanki, bu ko'rsatkich qanchalik 1 ga yaqin bo'lsa, ya'ni kichik bo'lsa, demak bu o'quvchi ko'pchilik o'quvchilar tomonidan yuqori darajada tan olingan, yakdillik bilan uning ovoz berganlar, degan xulosani beradi. Aksincha, olingan «K» natija 3 ga yaqin bo'lsa, unda shu familiyalı bola mavqeiga nisbatan sinf barqaror fikrda emas va demak, ishonarli fikrning yo'qligidan darak beradi.

Demak, o'quvchining quyidagi mezonlar asosida sinf yulduzi sifatida tan olish mumkin: 1) uch va undan ortiq matritsada sinf zukkosi sifatida qayd etilgan bo'lishi

kerak; 2) sakkizinchi matritsaning oxirgi ustunida umumlashtirilgan N ko'rsatgichi yuqoriligi bilan oddiy zukkolarnikidan albatta ajralib turishi kerak.

2-jadval

$\Phi.И$	A			B			B			Γ			Δ			E			$\mathcal{K}$			$\mathcal{K}amu$		
	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	M	K	N	M	K
1.X	29	38	1,31																			29	38	1,31
2 G.A	24	53	2,																			24	53	2, 21
3 K.U				21	40	1,9																21	40	1,9 0
4 S.M							18	34	1,89				17	26	1,53	23	32	1,39	18	34	1,89	76	126	1,67
5 K.Yu										19	29	1,53										19	29	1,53

Ravshanki, bir o'quvchiga sinf bir marta ham ovoz bermagan (bironta matritsaga nomi tushmagan bola mavjud bo'lgan) bir paytda boshqa o'quvchi 15-20 ta, uchinchi bola 40-70- ta ovoz to'play olgan bo'lsa, bularning fanlarga bo'lgan e'tiqodlarida, intilishlarida o'z kelajaklariga bo'lgan munosabatlarida, shubhasiz, o'zaro farq bo'lsa kerak degan xulosaga kelish asoslidir.

Aynan shu ma'noda metodika bergan ma'lumotlar o'qituvchilarning sinf ilg'orlari haqidagi fikrlari bilan taqqoslab ko'rilishi kerak. Bunday taqqoslashlar ko'p martalab amalga oshirilganda metodika ma'lumotlarining hayotiy ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Izoh: tajriba 2 ta parallel sinfda yoki guruhda o'tkazilishi lozim. Chunki, natijalar qiyosiy tahlil qilinadi.

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 82-98-bet;
2. V.Karimova, Psixologiya. T., 2002, 121-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, betlar;
4. Qodirov B.R., Qodirov K.B.Kasbiy tashxis metodikalar majmui. Toshkent-2003, 8-18 bet;

Mavzu: Shaxsning motivatsiyasini o'rganish. Motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari.

Talaba motiv muammosi va uning echimiga doir mulohazalar, shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli, shaxs faolligi va ijtimoiy hulqning motivatsiyasi, motivlarning turlari, motivlarning anglanganlik darajasi, o'quv faoliyati motivlari to'g'risida mulohazalar, motiv klassifikatsiyasi haqida adabiyotlardan o'rganib ilmiy manbalar asosida nazariy qismni tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyida kelirilgan metodikadan foydalanib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib tegishli xulosalar tayyorlaydi.

: Kasb tanlash motivini aniqlash

Ko'rsatma: «Quyida har qanday kasbni xarakterlovchi mulohazalar keltirilgan. Ularni diqqat bilan o'qib chiqing va ular sizni shu hozirgi o'zingizni tanlagan kasbni

tanlashingizga qay darajada ta'sir etilganligini baholang. O`z javoblaringizni tegishli katakchaga «Q» belgisini qo'yish bilan belgilang.

T.p	Tasdiqlar	Juda kuchli	Kuchli	O`rtacha	Kuchsiz	Mutlaqo
1	Turli xil odamlar bilan muloqotda bo`lishni talab qiladi.					
2	Ota-onamga yordam					
3	Katta ma'suliyat hissini talab qiladi					
4	Yangi yashash joyiga ko`chib o`tish imkoniyatini beradi					
5	Mening qobiliyatlarimga mos keladi					
6	O`zimizda bor bo`lgan asbob-anjomlar, jihozlar bilangina kifoyalanish imkonini beradi.					
7	Odamlarga foyda keltirish imkoniyatini beradi					
8	Aqliy va jismoniy rivojlanish imkoniyatini beradi					
9	Katta haq to`lanadigan ish					
10	Uyimga yaqin joyda ishlash imkoniyatini beradi.					
11	Obro`li hisoblanadi					
12	Kasb mahoratini o`stirish uchun imkon beradi					
13	Hozirgi mavjud sharoitda yagona mumkin bo`lgani shu					
14	Rahbarlik ishiga qobiliyatlikni namoyon qilish imkoniyatini beradi					
15	Qiziqarli, o`ziga jalb qiladigan					
16	Maktabda yoqtirgan fanim					
17	Mening o`rtoqlarim tanlashgan					
18	Ijodkorlikni namoyon qilishga katta imkoniyatlar beradi					
19	Mehnatning yaxshi natijalariga tezda erishish imkoniyatini beradi					
20	Ishdan tashqari vaqtda ham kasbiy malakalardan foydalanish imkoniyatini beradi.					

Natijalarni baholash

Javoblar quyidagicha baholanadi:

«juda kuchli»-5, «kuchli»-4, «o`rtacha»-3, «kuchsiz»-2, «mutlaqo ta'sir qilmagan»-1

1,5,8,15,,20-tasdiqlar «I»-ichki individual ahamiyatga ega bo`lgan motivlar.

3,7,12,14,17-tasdiqlar «S»-ichki ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan motivlar.

2,6,11,13,18-tasdiqlar «+» tashqi ijobiy motivlar.

4,9,10,16,19- tasdiqlar «-» tashqi salbiy motivlar

qaysi motiv bo`yicha umumiy ballar yig`indisi eng ko`p, bu sinaluvchida shu motivatsiyaning kuchliligini bildiradi.

Izoh: Tajribada 2-guruhda o'tkaziladi va olingan natija qiyosiy tahlil qilinadi.
Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 156-170 betlar;
2. D.N.Gonobolin. Psixologiya. Toshkent. «O'qituvchi». 1976 yil
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992,
4. V.Karimova, Psixologiya. T., 2002,
5. R.Yu.Toshimov, E.G'oziev, Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent-2004, 95 bet

6-Mavzu: Markaziy Osiyoda shaxsni o'rganish tarixi haqida

Talaba Markaziy Osiyo mutafakkirlarining shaxs shakllanishiga oid qarashlarini ilmiy manbalar asosida o'rganishi lozim. Bunda talaba turli davrlarga murojaat etib o'sha davr uchun ilg'or g'oyalar mualliflarining shaxs to'g'risidagi, shaxs shakllanishi omillari, shaxs sifatleri hamda shaxslararo munosabatlar xususidagi falsafiy-psixologik talqinlarini o'rganadi. Kurs ishini tayyorlashda quyidagi taxminiy reja asosida mavzuni yoritish tavsiya etiladi.

-Islom dini va Sharq mutafakkirlari shaxs haqida (Moturidiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, G'azzoliy)

-Tasavvuf ta'limotida shaxs kamoloti muammosi (Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya, Hakimiya).

-Islom ta'limotida shaxs shakllanishi masalalari.

(Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Al Marg'iloniy va boshqalar).

Ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qismda talaba psixologlar, pedagoglardan shaxs shakllanishi haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fikrlarini qay darajada bilishligi va o'z pedagogik faoliyatlarida maqsadli foydalana olishligi to'g'risida so'rovnoma o'tkazishi mumkin.

Adabiyotlar

1.Xayrullaev I va boshqalar. Ma'naviyat yulduzlari.T. 2003
adabiyotlar yozamiz

7-Mavzu: Asab tizimining tuzilishi va psixika

Talaba miya va psixika haqidagi ma'lumotlarni tegishli adabiyotlardan o'qib o'rganib, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda nazariy qismi tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

TOPSHIRIQ: 1. «BOSH MIYA» RASMINI CHIZISH, QISMLARINI ALOHIDA BELGILASH.

G.Ayzenkning ekstraversieva intraversiea testini qo'llash.

Psixomotor ko'rsatkichlari bo'yicha asab tizimi xususiyatlarini aniqlash (Tepping-test metodikasi)

Asab tizimining asosiy xususiyatlarini aniqlash amaliy va nazariy tadqiqotlarda katta ahamiyat kasb etadi. Asab tizimi xususiyatlarini tashxis (diagnostika) qiluvchi ko'pchilik laboratoriya metodlari tajriba uchun maxsus sharoit va jixozlar talab etiladi.

Ular ancha murakkab hisoblanadi. Tepping test ekspress-metodikasi bu qiyinchiliklardan mustasno.

Tajriba maqsadi: Tepping-test bilan tanishish. Psixomotor ko'rsatkichlar asosida sinaluvchining nerv sistemasi xususiyatlarini o'rganish.

Tajriba materiali: uch qatordan 6 ta to'rtburchakka ajratilgan (203x283) hajmdagi standart blanka, sekundomer, qalam.

Tajribaning borishi: Eksperimentator "boshladik" deb buyruq beradi, so'ngra har 5 sekunddan so'ng "boshqa kvadratga o'ting" deb buyruq berib boradi.

6-chi kvadratda ishning 5 sekundi tugagach, eksperimentator "To'xtating" buyrug'ini beradi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: "Eksperimentator buyrug'idan so'ng, siz blankadagi kvadratlardan biriga keyingi buyruqdan so'ng boshqalariga nuqta qo'yishni boshlashingiz kerak. 5 sekund davomida imkon boricha ko'proq nuqta qo'yishga harakat qiling. Bitta kvadratdan ikkinchisiga o'tish eksperimentator buyrug'i bilan, ishni bo'lmasdan va albatta soat strelkasi yo'nalishi bilan amalga oshiriladi. Har doim o'zingiz uchun eng maksimal tezlikda (tezlik) ishlang. O'ng (yoki chap) qo'lingizga qalamni olib, standart blankadagi birinchi kvadrat yoniga qo'ying.

Natijalarni qayta ishlash:

- 1) Har bir kvadratdagi nuqtalar sonini hisoblash.
- 2) Kordinata o'qining gorizontal chizig'ida esa har bir kvadratdagi nuqtalar soni joylashtiriladi. (1rasm).
- 3) Vertikal chiziqda esa har 5 sekunlik vaqt oralig'i.

Natijalar taxlili: Nerv jarayonlarining kuchi nerv tolalari va umuman asab tizimining ishchanlik darajasini ko'rsatadi.

Kuchli asab tizimi, kuchsiz asab tizimiga nisbatan katta xajmdagi (nagruzka) quvvatni ko'tara oladi.

Metodika qo'l harakati dinamikasining maksimal tempini aniqlash imkoniga ega. Tajriba asta sekin avval o'ng, so'ngra chap qo'lda bajariladi.

Maksimal temp dinamikasi shartli ravishda 5 (besh) tipga ajratiladi

Qavarik tip- ishning birinchi 10-15 sekundi davomida temp maksimal darajaga ko'tariladi; keyingi 25-30 sekunda esa imkoniyatdan pastga tushishi kuzatiladi. Bu tip sinaluvchining kuchli asab tizimi xususiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tekis tip-ishdagi maksimal temp butun ish davomida taxminan bir maromda boradi. Bunday tipdagi sinaluvchining asab tizimi o'rta kuchga ega.

Kuchsiz tip-ishda maksimal temp birinchi 65 sekundayoq tushib tajriba davomida pastligicha saqlanadi. Bu tipdagi sinaluvchining asab tizimi kuchsiz hisoblanadi.

Oralaq tip-ishning tempi birinchi 10-15 sekundan so'ng pasayadi. Bunday tip o'rtacha va kuchsiz tiplarining oralig'ini tashkil etib, Qo'rtacha Qkuchsiz tip sifatida qaraladi.

Botiq tip-boshdan pasaygan maksimal tempning, keyinchalik tempning qisqa muddatli ko'tarilishi bilan almashish darajasi. Bu tipdagi kishilar qobiliyatlarining qisqa muddatli yo'nalishi, (mobilizasiya) to'planishi evaziga harakat qiladi va ular ham o'rtacha-kuchsiz tipga kiritiladi.


Maksimal temp harakatlari dinamikasi tiplari

Grafik: a-qavariq (.....), b-tekis tip (....), v-oraliq va botiq (Y) g) kuchsiz (....). Gorizontal chiziq-boshlang'ich 5 sekund ichidagi temp darajasi hisoblanadi.


Test asosan shaxsning ko'p faktorli metodikalari qatorida qo'llaniladi. Asosan kasb tanlash, kasbga yo'naltirish (psixologik maslahat berildi) individual faoliyat uslubini

rivojlantirish uchun foydali hisoblanadi. Test individual tarzda o'tkaziladi va 2 minut vaqt talab etadi.


A)




B)



B)



Г)



Adabiyotlar:

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 19-28-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 26-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-192, 22-275-69-90 betlar;
4. G`oziev E. «Inson psixikasining rivojlanishi» Toshkent Universitet-1996 y;
5. Davletshin M.T, Sh.Do`stmuhamedova. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent-2004, 18-26 betlar
6. (shu mavzuga 5 adab. Tegishlimi.)

8-Mavzu: Sezgirlikning rivojlanishida mashqlarning roli

Talaba sezgilarning ta'rifi, ularning faoliyatda tutgan o'rni, sezgilarning in'ikos nuqtai nazardan izohlanishi, sezgilarning umumiy qonuniyatlari, sezgi turlarining psixologik tavsifi, sezgilarning tavsiflanishi, sezuvchanlik va uni o'lchash sezgilarning sifati haqida tegishli adabiyotlardan foydalanib nazariy qism tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: Ko`z bilan o'lchash qobiliyatini o`stiradigan mashqlardan foydalanish.

Kishilar istalgan modallikdagi sezgirlikni rivojlantirish uchun sezgirlikning u yoki bu turiga tayanadilar. Bunday sezgirlikni rivojlantirish uchun esa, uzluksiz ravishda mashq qilish talab etiladi.

Shu maqsadda studentlarga quyidagilarni ko`zda tutgan topshiriqlarni berish zarurdir:

A) sensor vazifani mashqlar asosida takror va takror bajarishning vaqtga nisbatan taqsimlanishi (bir hafta davomida) zarur;

B) bunday mashqlarni dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda o'tkazilsa, sensor sezgi qo'ygan vazifaning qanchalik rivojlanib borayotganligi darajasi aniq bilinadi;

V) bunda tajribalarni haddan tashqari cho'zib yubormaslik yohud studentning ixtiyoridagi vaqtini hisobga olgan holda ish ko'rish kerak bo'ladi.

Shuning uchun ham ko'z bilan o'lchash qobiliyatini o'stirdadigan mashqlardan foydalanish zarur. Buning uchun esa;

1. Talabalarga oq qog'oz betiga uzunligi 18 sm lik uchta gorizonta chiziqli taklif qilinadi. Chiziqlar chizilib bo'lgach, talabalar har uchala chiziqni ko'z bilan chamalab teng ikkiga bo'ladilar. Hosil bo'lgan bo'laklarni lineyka yordamida o'lchab, ularning birlariga teng yoki teng emasliklarini aniqlaydilar. Ulardagi og'ishni millimetrlar bilan hisoblab chiqadilar. Har uchala chiziqda o'rtacha qanchalik xatoga yo'l qo'yilganini bilish uchun o'lchov farqlari jamlanadi va uchta taqsimlanadi.

2. Demak, qanchalik og'ishga yo'l qo'yilganligi aniqlanib shu asosda:

a) og'ishdagi variantivlikni ko'z bilan o'lchashning rivojlanishidagi individual farq ekanligi ko'rsatiladi;

b) ko'z bilan o'lchash qobiliyati past bo'lgan talabalar ajratib olinadi.

3. Shunday talabalardan uch kishini ajratib olib, ularga besh kun davomida chiziqni ko'z bilan chamalab bo'lish mashqini o'n martadan takrorlash topshiriladi. Bunday tajribalar o'tkazib bo'lingach, talabalar yana bir marta sinab ko'riladi va o'rtacha og'ish darajasi aniqlanadi.

4. Mazkur talabalarga navbatdagi mashg'ulotdan avval o'zlari ilgari o'tkazgan tajribalarining yakunlari to'g'risida so'zlab berish taklif qilinadi.

Tajribada 30 nafar sinaluvchi qanashishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 44-69-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 69-94-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 269-290 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 45-48-betlar
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar» «O'qituvchi» Toshkent-1978 yil, 44-bet;

9-Mavzu: ShAXSLARARO O`ZARO MUNOSABATLARNI TADQIQ ETISH

Talaba shaxs, shaxslararo munosabatlar, guruh va jamoa psixologiyasini tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganadi. Ilmiy manbalar asosida *n a z a r i y q i s m* tayyorlanadi.

A *m a l i y q i s m* uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

SOTSIOMETRIYA METODI YORDAMIDA JAMOADA PSIXOLOGIK MUHITNI TADQIQ ETISH, GURUH LIDERLARINI ANIQLASH

Sotsiometriya usuli guruhdagi shaxslararo munosabatlarni aniqlovchi eng samarali usullardan biridir.

Sotsiometriya bir qator savollarga berilgan javoblarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Bu usulni amalga oshirish davomida tekshiruvchiga nisbatan bir qator talablar borki, bu talablarga tekshiruvchi qat'iy rioya qilishi lozim.

1. Avvalo berilgan javoblar qattiq, sir saqlanishini tekshiruvchilar bilishlari joiz.
2. Javob berish chog`ida har bir tekshiruvchining mustaqil hamda erkin bo`lishiga sharoit yaratish lozim.
3. Tekshirish davomida tekshiruvchi o`zini ochiq yuz bilan quvnoq holda tutishi kerak.

Demak, sotsiometriya metodi turli guruhlarda, jamoalarda, shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini o`rganishning keng qo`llaniladigan, eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Sotsiometriya ma'lumotlari tahlili shaxsning guruhda tutgan o`rni, unda shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari, guruh lideri (guruhning tan olingan sardori) guruh yulduzlari, guruh a'zolarining egallagan mavqei, guruhda yakkalanib qolgan (izolyatsiyaga tushib qolgan) a'zo, guruhdagi kichik guruhchalar ularning tarkibi, o`zaro munosabatlari, undagi psixologik muhit va shu kabi bir qator ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi.

Sotsiometriya tadqiqotni o`tkazishda, avvalo shaxslararo munosabatlarning u yoki bu jihatini baholovchi muhim mezonni tanlab olish lozim. Buning uchun ma'lum bir real vaziyatga taa'luqli bo`lgan savollar tizimi tuzib chiqiladi. Busavollar sotsometrik mezon

sifatida xizmat qiladi. Sinaluvchilar shu berilgan savollarga binoan o'zi a'zo bo'lgan guruhdan o'ziga sherik tanlash bilan javob berishi kerak. Sotsiometrik mezon tadqiqot maqsadiga mos tushgandagina shaxslararo munosabatlarning ma'lum bir jihatiga qaratiladi, xolos.

Sotsiometrik mezonlar shartli ravishda quyidagi tarkiblardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Rolli: «Siz agar sardori bo'lsangiz, biron bir jiddiy topshiriqni bajarish uchun ajratilgan guruh tarkibiga o'z kursdoshlaringizdan kimni kiritgan bo'lar edingiz?».

2. Funktsiyali (funktsional): «Sizning fikringizcha, kursdoshlaringizdan kim guruh boshlig'i, etakchi bo'la olishga loyiq deb hisoblaysiz?».

3. Amaliy: «Agar guruh tarqatib yuborilgudek bo'lsa, unda Siz yangi guruhga shu kursdoshlaringizdan (shu erda ishtirok etayotganlaridan) kim bilan birga tushishni hohlar edingiz?» «Siz navbatchilikni kim bilan birga o'tkazishni hohlaysiz?»

4. Emotsional: «O'zingiz uchun og'ir damlarda shu sinfdan kimga yordam uchun murojaat qilgan bo'lar edingiz?» «Tug'ilgan kuningga kursdoshlaringizdan kimni taklif qilgan bo'lar edingiz?» «Tug'ilgan kuningga kursdoshlaringizdan kimni taklif qilgan bo'lar edingiz?».

«O'z siringizni kursdoshlaringizdan qaysi biriga aytishni lozim topasiz?»

5. Kommunikativ: «O'z ta'ilingizni kursdoshlaringizdan kim bilan birga o'tkazishni hohlaysiz?», «O'qishni tugatganingizdan keyin o'z kursdoshlaringizni qaysi biri bilan birga, bir joyda ishlashni hohlaysiz?» va h.

Sotsiometrik mezonlarni tanlashda, savollarni tuzishda konkret vaziyatlar va guruh sinaluvchilarining xususiyatlari, ularning faoliyati xislatlari va shu kabilar nazarda tutilishi joiz.

Sotsiometrik tadqiqotlarni olib borish tartibi.

Sinaluvchining sotsiometrik kartochkani to'ldirish qarori uning (1-shakl) ixtiyoriy, shaxsiy ishidir. Ba'zibir talabalar tadqiqotda ishtirok etishdan bosh tortishlari mumkin. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun oldindan «sotsiometrik razminka» qilish, tadqiqot vazifalarini qisqa va tushunarli tarzda bayon etish, uning muhim ekanligini ularga tushuntirib berish va eng muhimi, ular ishonchini qozonish, javoblari boshqalardan sir saqlanishining ta'minlanishiga kafolat berish, bunga ishtirokchilarni ishontira bilish kerak.

Lekin tadqiqot natijalari sinaluvchilarga aytilmaydi. Shuni esda tutish lozimki, guruhdagi norasmiy aloqlara tizimini hammaga aytish guruh tarkibida kutilmagan, noxush hodisalarga olib kelishi, munosabatlarda, o'zaro muloqotda nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Har bir ishtirokchi sotsiometrik kartochkalarni alohida to'ldirish uchun alohida berilishi kerak. Hech qanday aytib berishga va kartochkalarni o'zi bilan olib ketishga yo'l qo'ymaslik lozim. Eng muhim ko'rsatkich guruhning barcha a'zolarini tadqiqotga jalb eta olishdir.

To'ldirilgan kartochkalar keyinchalik miqdor jihatidan, jadvalli, amaliy grafikli qayta ishlanadi.

Tadqiqotchi butun guruh a'zolari uchun sotsiometrik kartochkani oldindan tayyorlab qo'yishi maqsadga muvofiq. Bunda kartochkaning yuqori qismining o'ng tomoniga tarkibida ishtirok etayotgan sinaluvchining (shu kartochka egasining) ismi-sharifi yozib qo'yiladi va ularning yonidan familiyalar yozish uchun joy qoldiriladi. Bu joyga sinaluvchi, ya'ni shu kartochkaning egasi o'zi tanlagan odamning (shu guruhda ishtirok etayotgan guruh a'zosining) familiyasini yozadi.

Sotsiometrik tadqiqot o'tkazishning biron bir mezonni tanlab olinganidan so'ng, masalan emotsional mezon bo'yicha: "O'z siringizni kursdoshlaringdan kimga aytgan bo'lar edingiz?" yoki amaliy mezon bo'yicha: "agar guruhda har kim o'zi hohlagan odam bilan birga (bir partada) o'tirishning ixtiyori berilsa, unda siz kim bilan birga o'tirishni hohlar edingiz?" kabi savol bilan ularga murojaat qilinadi. Bu savolni oldindan ko'rinadigan biron-bir joyga (doskaga, palataga va h.k) yozib qo'yish mumkin.

Sotsiometrik tadqiqot samaradorligini oshirish uchun uni guruhning barcha a'zolari ishtirok etayotgan vaqtda va ular o'zaro bir-birlarini etarlicha bilib ulgurmasdan so'ng o'tkazish lozim, shuningdek tadqiqotchi ham sinaluvchilarga tanish, ishonchli odam ("o'z odami") bo'lishi maqsadga muvofiq.

1-shakl

Abdullaeva E.

1. _____
2. _____
3. _____

Sinaluvchilar e'tiboriniberilgan savolga (topshiriqqa) qaratib, tajriba qoidasiga binoan ulardan, o'zlariga sherik tanlashi talab qilinadi. Masalan, "Tug'ilgan kuningga kursdoshlaringdan kimni taklif qilgan bo'lar edingiz?"-degan kabi savollar berilsa, talabalar 1-shaklda (ya'ni, ularning har biriga taraqatilgan sotsiometrik kartochkadagi) 1 raqamning to'g'risiga o'z kursidagi sheriklaridan, birinchi navbatda, kimni tanlasa, shu o'quvchining familiyasini yozadi. Hamma birinchi familiyani yozib bo'lganidan so'ng, ularga yana "Mabodo shu tanlangan sheriging bilan birga o'tirish imkoni bo'lmasa unda ikkinchi navbatda kimni tanlagan bo'larding?"-deb murojaat qilinadi va ular o'zlariga boshqa sherikni tanlaydilar va hokazo.

Sotsiometrik kartochkalar to'ldirilib bo'lingcha, ular yig'ib olinadi. Bunda kartochkalarning to'g'ri to'ldirilganligi (albatta uch kishining familiyasi yozilgan bo'lishi, kartochkaga mazkur guruh a'zolaridan tashqari yoki ayni vaqtda guruhda bo'lmagan, tadqiqotda ishtirok etmagan guruh a'zosining ismi familiyasi yozilgan bo'lmasligi)ni tekshirib olinishi lozim.

Ma'lumotlarni qayta ishlash.

Javoblarni tahlil qilishda sotsiometrik matritsa (1-jadval) tuziladi. Bunda guruhdagi shaxslararo munosabatlar va o'zaro sheriklik munosabatlari aks ettiriladi. Shuningdek,

o`zaro bir-birini tanlashlar belgilanadi (bir-birlarini tanlash) va matritsa doira ichiga olib qo`yiladi.

Keltirilgan sotsiometrik matritsani quyidagi jadvalda to`ldirish uchun dastavval guruhning tadqiqotda ishtirok etgan a'zolarining ro`yxati alifbo bo`yicha yozib olinadi va unda nechta kishi ishtirok etgan bo`lsa familiyalardan so`ng jadvalda shuncha ustun qoldiriladi va tartib bo`yicha ularga ham raqamlar qo`yib chiqiladi.

Sotsiometrik matritsa

№	F.I.Sh	1																
1	Abdullaeva E																	
2	Azizov B																	
3	Alimov A																	
4	Bahliev U																	
5	Boymirov X																	
6	Kabirov S																	
7	Mahmudov I																	
8	Mahmudov E																	
9	Musaev O																	
10	Sobirov I																	
11	Tolipov Sh																	
12	Hamidov Sh																	
13	Yuldashev R																	
14	Yaminov O																	
15	O`ktamov A																	
Tanlashlar soni		4																
O`zaro tanlashlar soni		3																

Shundan so`ng sotsiometrik kartochka bo`yicha sinaluvchi kimlarni tanlagan bo`lsa, kartochkalar bo`yicha uni shu kartochka egasining familiyasi yozilgan qatorga u tanlangan guruh a'zosining ro`yxat tartib raqami aks ettirilgan ustun ostiga “Q” belgisi qo`yib chiqiladi. Hamma sotsiometrik kartochkalar bo`yicha tanlashlar matritsaga belgilab bo`linganidan keyin pastki bir ustunda “Q” lar yig`indisi hisoblab chiqilib, jadval pastki qismining “Tanlashlar soni”-deb ko`rsatilgan qatoriga yozib qo`yiladi.

O`zaro tanlashlar esa sinaluvchilar bir-birlarini tanlash bilan belgilanadi. Matritsalar o`zaro tanlashlarni ko`rsatuvchi “Q” belgilari doira ichiga olib qo`yiladi.

Ustunlar bo'yicha doira ichiga olingan "Q" lar miqdori matritsadagi (eng pastki qatordagi) "O'zaro tanlashlar soni"-deb yozilgan qatorga yoziladi.

Bu o'rinda 12-raqamli a'zo (Hamidov Sh) guruhda izolyatsiyaga tushib qolgan. Eng ko'p tanlangan 11-raqamli a'zo (Tolipov Sh) guruhning tan olingan lideri bo'lib hisoblanadi, undan keyingi 5 va 6 marta tanlangan 7-raqamli (Mahmudov I) va 15-raqamli (O'ktamov A) a'zolar esa guruh yulduzlari sifatida tan olingan. Sotsiogramma ko'rsatkichlariga asoslangan holda Tolipov guruhda biron bir jamoatchilik funksiyasini bajarishga tayinlash o'rganilayotgan guruhda shaxslararo munosabatlar barqarorlashuvini ta'minlovchi, hal qiluvchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Guruhdagi o'zaro hamokrlik koeffitsenti quyidagi formula bilan topiladi:

$$K_x = \frac{\sum x}{3n}$$

bu erda $\sum x$ o'zaro tanlanganlarning umumiy soni; guruhdagi kommunikativlik koeffitsenti esa

$$K_k = \frac{Nk}{n}$$

formula bilan topiladi;

bu erda Nk-mikroguruhga kirgan kishilar soni.

Guruhdagi umumiy psixologik muhit esa

$$K_{n.M.M} \approx \frac{Kx + Kk}{2} \text{ formula orqali topiladi.}$$

Bundan tashqari guruhdagi yashirin lider ikkinchi savolga yozilgan javoblarni oddiy matematik hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Kim eng ko'p ovoz olgan bo'lsa, o'sha shaxs guruhning yashirin lideri hisoblanadi. Guruhdagi har bir kishining mavqei (statusi) 3 ta savolga asoslangan holda quyidagi formula orqali topiladi;

$$St = \frac{\sum m}{2(n-1)}$$

bu erda $\sum m$ guruhdagi har bir kishining umumiy olgan baholar yig'indisi, shunday qilib olingan natijalar quyidagicha xulosa chiqarishga imkon beradi;

1) Bir-birini tanlash guruhda qanchalik ko'p bo'lsa, guruh shunchalik uyushgan va o'zaro hamkor;

2) Guruhdagi mavqe shaxsning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatishini hisobga olinishi, bu ko'rsatkich 0,55 dan yuqori bo'lsa, bunday shaxslarga individual yondoshishga, ularning bunday mavqe egallashlariga sabab bo'luvchi omillarni aniqlab ko'rsatish zarur. Eng muhimi, bunda eng muhimi psixologik takt doirasidan chetga chiqmaslik lozim.

3) Guruhdagi kommunikativlik, ya'ni o'zaro muloqot koeffitsenti 1 ga qanchalik yaqinlashsa, bu shunchalik barqarorlikdan darak beradi. Agar bu ko'rsatkich 0,2 dan past bo'lsa, albatta bunga sababchi bo'lgan omillarni qidirib topish zarur.

Psixologik muhitni ifodalovchi ko'rsatkich 0,66 dan yuqori bo'lsa, demak guruhda ijobiy psixologik muhit mavjud. Buning natijasida guruhda o'zaro hurmat hukm suradi, ular guruh oldidagi javobgar ekanliklarini his qiladilar

Izoh: Tajriba muayyan guruhda barcha guruh a'zolari to'liq bo'lganda o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 82-165-bet;
2. E.G'oziev. Psixologiya. Toshkent, «O'qituvchi», 1994.
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 251-268 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 42-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar» «O'qituvchi» Toshkent-1978 yil, 19-22-bet;
6. Q.Daminov, O'. Otavaliyeva, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg'ulotlari» - Toshkent, «O'qituvchi»-1994, 24 bet

10-mavzu: SEZGI CHEGARALARINI ANIQLASH

Sezgi, sezgi turlari, sezgirlik va uning chegaralari haqida tegishli adabi haqida tegishli adabiyotlardan o'qib o'rganadi. Ilmiy manbalar asosida **n a z a r i y q i s m** tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P S h I R I Q №1

MUSKUL SEZGISINING FARQLASH CHEGARASINI

TEKSHIRISH.

Tadqiqotning maqsadi: har xil og'irlikdagi qadoq toshlar yordamida muskul sezgisining farqlash chegarasini aniqlash.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: 1 grammdan 500 grammacha bo'lgan har xil qadoq tosh va metall plastinkalar.

Tadqiqotning borishi: tekshiriluvchi ko'zi yumuq yoki bog'lab (bekitib) qo'yilgan holda o'ng va chap qo'lga bittadan qadoq toshni olib, ularning vaznini chamalaydi. Har ikkala qo'lidagi toshni u qo'ldan bu qo'lga almashtirib, chamalab, salmoqlab ko'rish ham mumkin. Dastlab har ikkala qo'lidagi toshning vazni baravar

(masalan, 600 grammdan) bo'lishi kerak. Tekshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh taqqoslash uchun o'zgartirmas me'yor bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi qo'lidagi qadoq tosh sekin-asta (1,2,3 va hakoza grammga) orttirib boriladi va toshlarning qay biri og'irlashganini tekshiriluvchidan damba-dam so'rab turiladi. Muayyan vaqtlargacha tekshiriluvchi ikkala qo'lidagi qadoq toshlarning vazndagi o'zgarishini sezmaydi. Nihoyat, u bir qo'lidagi tosh ikkinchi qo'lidagiga nisbatan og'irlashganini aytadi. Tekshiriluvchi tomonidan payqab olingan qo'shimcha og'irlik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash, chegara ko'rsatgichi bo'lib hisoblanadi. Har bir tekshiriluvchi bergan ko'rsatkichlar qarorda qayd etib borilishi kerak.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: o'tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagicha qarorlashtirilib, tahlil qilinishi mumkin

T a j r i b a m a v z u s i: muskul sezgisining farqlash chegarasini tekshirish

Tekshiruvchi:_____

Tekshiriluvchi_____

Sana_____

Tartib №	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi (gramm hisobida)		Tekshiriluvchidan olingan ko'rsatgich
	Doimiy	O'zgaruvchi	
1	600	601	Teng
2	->>-	602	->>-
3	->>-	603	->>-
4	->>-	604	->>-
5	->>-	606	->>-
6	->>-	610	->>-
7	->>-	612	->>-
8	->>-	615	->>-
9	->>-	617	->>-
10	->>-	618	->>-
11	->>-	619	->>-
12	->>-	620	O'ng qo'limdagi og'ir
13	->>-	620	->>-
14	->>-	620	->>-

Mazkur tajribaning ko`rsatishicha, tekshiriluvchining muskul sezgisidan farq qilish chegarasi 20 grammga teng. Bu miqdor dastlabki tavsiya qilingan 600 grammlik vaznining 1,30 qismini tashkil qiladi. Bu ko`rsatkich har xil odamda boshqa-boshqa chiqishi tabiiydir. Chunki odamning yoshi, tajribasi, hatto shug`ullanadigan ish faoliyati bilan bog`liq holda sezgirlik chegarasi ham o`zgarib boradi.

T O P Sh I R I Q №2

Eshitish sezgilarining quyi (absolyut) chegarasini tajriba asosida aniqlash.

Tajriba sekundiga 12, 16, 24, 36, 48, 64 tebranish hosil qiladigan ovoz vilkalari yordamida o`tkaziladi. Tajriba oldidan studentlarga sog`lom kishilar sekundiga 16 dan to 20 tebranishgacha bo`lgan oraliqdagi ovozlarni eshita olishlari mumkinligini aytib qo`yish zarur.

Talabalarga tajriba qo`llaniladigan ovoz vilkalarining ishlash printsipini oldindan ko`rsatib qo`yish maqsadga muvofiqdir.

**Tajribaning o`tkazish usuli.** Harakatga keltirilgan ovoz vilkalarini sinaluvchining qulog`iga 5 sm uzoqlikdan tutiladi. Ovoz vilkasi har tutilganda, unda qanday sezgi hosil bo`lganligi so`rab boriladi. Shuni unutmaslik kerakki, hatto sekundiga 12 tebranish beradigan (sezgi ostonalaridan ham qo`zg`alish beradigan qo`zg`ovchi) ovoz vilkalarining ovozini ham ba'zi sinaluvchilar eshitayapman deb aytadilar.

Aslida bu erda havoning to`lqinidan tarqatayotgan vibratsiya sezgisigina mavjud xolos. Shunday bo`lishiga qaramay sinaluvchiga ovoz eshitilayotganday bo`lib tuyuladi.

Tajriba boshlanishidan avval sinaluvchilarga, ular sezgi hosil bo`lganligini emas, qanday ovoz sezayotganliklarini aytib berishlari uqtiriladi. Sinaluvchilarning bergan javoblari ovoz vilkasi nomerlari bo`yicha, ammo tebranishi aytilmagani holda, protokolga qayd etib boriladi. Sinaluvchilarda aynan hosil bo`layotgan sezgilari hisobga olinishi kerak bo`ladi.

Agar sinaluvchida, instruktsiyadan qat'iy nazar ovoz vilkasiga nisbatan sezgi hosil bo`lganligi aniqlansa, unda eksperimentlar oraliq`ida bu ishni sinab ko`rish mumkin, ya'ni №1 ovoz vilkasi yana bir marta eshittiriladi.

Bunday tajribani ko`pchilik talabalar ishtirokida namoyishkorona o`tkazishdan tashqari, agar vaqt ortib qolgudek bo`lsa, talabalarning o`zlariga ishni mustaqil bajarib ko`rishni topshirish ham mumkin. Buning uchun talabalar uchtadan qilib gruppalariga ajratiladi (sinovchi, sinaluvchi va protokol qayd etuvchi).

Olingan ma'lumotlarga tayangan holda ishni analiz qilinadi, bunda: a) talabalar orasida eshitishning kuchliligi bo'yicha turli guruppalarning borligi;

b) sezishning quyi chegarasiga nisbatan xilma-xilliklarning borligi aytiladi.

Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 44-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 63-94-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 263-290 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 47-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar» «O'qituvchi» Toshkent-1978 yil, 39-bet;
6. Q.Daminov, O'. Otavaliyeva, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg'ulotlari»-Toshkent, «O'qituvchi»-1994, 27 bet

11-Mavzu: Idrok xususiyatlarini o'rganish

Idrokning psixologik va fiziologik xususiyatlari, idrok turlari va o'ziga xos xususiyatlari (predmetlilik, strukturaliligi, yaxlitligi, konstantligi, anglanganligi), I.M.Sechenov tajribalari, idrok va harakat sezgilari, I.Pavlov tajribalari, idrokda yosh xususiyatlari haqida tegishli adabiyotlardan o'qib o'rganib nazariy qism tayyorlanadi.

Amaliy qismda esa quyidagi topshiriq bajariladi.

Topshiriq: 1) Sezgi va idrok hosil bo'lishini tajribada o'rganish.

Narsa konturining taktil va ko'rish idroklari uchun ahamiyati.

Tajribani o'tkazish uchun quyidagi jihozlar kerak bo'ladi:

a) temir yoki qattiq kartondan o'tkir va o'tmas qirrali qilib yasalgan bir necha trafaret (...rasmga qarang);

b) mazkur tarfaretlarning qalin qog'ozga tushirilgan rasmlari

tajriba 4-5 talaba ishtirokida o'tkaziladi. Har bir talaba bilan o'tkaziladigan tajriba ikki bosqichdan iborat bo'ladi.

Tajribaning 1-bosqichi: sinaluvchi qog'oz va qalam qo'yib qo'yilgan stol yoniga o'tiradi. Qo'llarini stol tagiga uzatadi. Uning qo'lga tayyorlangan trafaret beriladi (u trafaretga qaramasligi kerak). U trafaretni asta paypaslab (silab) ko'radi xolos. Sinovchi sinaluvchilarning qo'lidan trafaretni qaytib oladi va oldida turgan qog'ozga uning shaklini chizishini aytadi. Rasm chizib bo'lingach, uni olib qo'yiladi.

Tajribaning 2-bosqichi. Sinaluvchiga tajribaning birinchi bosqichida chizdirilgan rasm-trafaret ko'rsatiladi. Bir minutdan so'ng rasmni olib qo'yib, toza qog'oza ko'rsatilgan figuraning rasmini chizib berish taklif qilinadi.

Tajribaning borishi quyidagi protokolga qayd etib boriladi.

Aks etgan xususiyat	Taktil-motor sezgilarida aks etishi		Ko'rish sezgilarida aks etishi	
	Rasmning xususiyati	Sinaluvchi xatti-harakatining xususiyati	Rasmning xususiyati	Sinaluvchi xatti-harakatining xususiyati

Tajriba natijasi analiz qilinib, xulosalar chiqariladi.

1. Narsalarning taktil-motor va ko'rib idrok qilishdagi asosiy rolni konturlarining to'g'ri aks etishi o'ynaydi.

2. Shu narsalarni taktil-motor idrok qilishda sinaluvchining hatti-harakat va qiliqlari hali muhim rol o'ynaydi.

3. Ko'rish va teri orqali bilish idroklari davomida sinaluvchilarning individual xususiyatlari ko'rinib qoladi.

Izoh: Tajriba 30 nafar sinaluvchida o'tkazilishi tegishli xulosalar qilish va qiyosiy tahlil uchun imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 77-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 95 bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 290-317 betlar;
4. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar» «O'qituvchi» Toshkent-1978 yil, 45-48 betlar;
5. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 88-93 betlar.

12-Mavzu: ShAXS FAOLLIGINING PSIXOLOGIK MOHIYATI

Talaba shaxs psixologiyasi, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillar, shaxs faolligi, shaxs yo'nalishini belgilovchi barqaror motivlar haqida tegishli adabiyotlarni o'qib o'rganadi va shu materiallar asosida nazariy qismi tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajaradi va olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

ShAXS YO'NALGANLIGINI ANIQLASH METODIKASINING SAVOLNOMASI

(V.Smekal va M.Kuchera)

Ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib, ularning har biriga uch variantda javob berishingiz mumkin (A, B, S tarzida)

Savolni diqqat bilan o'qing. Javoblar orasidan sizning ichki dunyongizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang. (faraz qilamiz-«B»). endi javob varaqasining tegishli satridan «B» harfini topib, uning chap yoniga («to'g'ri keladi» degan so'zlar ostiga) belgi («+») qo'ying.

O'sha savolni yana bir marta o'qing. Endi qolgan ikki javob varianti («A» va «S») orasidan sizning nazaringizga eng kam to'g'ri keladiganini yoki siz uchun qimmatig past bo'lganini tanlang (faraz qilamiz-«A»). So'ngra javob varaqasining yana o'sha satridan «A», harfini topib, uning o'ng yoniga («to'g'ri kelmaydi» so'zlari ostiga) belgi («+»)qo'ying. Uchinchi javob varianti esa (bizning misolda-«S») hech qaerda belgilanmaydi.

Demak, har bir satrga ikkitadan «+»belgisini qo'yishingiz kerak bo'ladi; birinchisi-A, B yoki S variantlaridan birining «to'g'ri keladi» ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi—shu variantlarning «to'g'ri kelmaydi» katakchasiga. Birorta savolni javobsiz

qoldirmang. Savollar ustida uzoq o`ylanib o`tirmang. Ba'zan bir vaqtning o`zida ikkita yoki uchala variant javoblar tengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va esda saqlang, eng to`g`ri javob hayola birinchi kelgan javobdir.

1. Men, qachonki:

- A. Qilayotgan ishimni atrofdagilar qo`llab-quvvatlashsa;
- B. Biror ishni o`zimga ma'qul, ko`nglimdagidek qilib bajarsam;
- S. Atrofimda yaxshi do`stlarim borligini his etsam, o`zimda katta qanoatlanish hosil qilaman.

2. Bordi-yu kelajakda sportchi (futbolchi, volleybolchi) bo`lganimda edi:

- A. O`yin taktikasiga ishlov beruvchi kishi-trener bo`lishni istardim.
- B. Mashhur o`yinchi bo`lishni istardim
- S. Komanda kapitani etib tayinlanishimni istardim.

3. Haqiqiy pedagog quyidagi xususiyatga ega bo`lishi kerak:

- A. O`quvchilarga alohida-alohida yondoshib, har biri bilan qiziqsin.
- B. O`quvchilarda predmetga nisbatan shunday qiziqish uyg`otsinki, ular shu predmet doirasida ko`proq bilim olishga intilsinlar.
- S. Sinf jamoasida shunday muhit yaratsinki, unda har kim qo`rqmay o`z fikrini ochiq-oydin bayon eta olsun.

4. Men:

- A. O`zlari bajargan ishdan zavq oladigan kishilarni juda yoqtiraman.
- B. Jamoada ko`pchilik bilan mehnat qilishni yoqtiradigan kishilarni yaxshi ko`raman.
- S. Topshirilgan ishni boshqalarga nisbatan yaxshiroq bajarishga intilgan kishilarni yoqtiraman

5. Agar mening do`stim:

- A. Odamlarni tushunadigan, kerak bo`lganda qo`lidan kelgunicha yordam bera oladigan bo`lsa;
- B. Har doim so`zining ustidan chiqa oladigan, sadoqatli bo`lsa,
- S. Aqlli va har narsaga qiziqadigan inson bo`lsa qanoatlanish hosil qilardim

6. Eng yaqin do`st shunday kishiki, u:

- A. Men bilan yaxshi munosabatlarda bo`lsa.
- B. Eng qiyin paytda ham ishonchini oqlaydigan bo`lsa
- S. Katta hayotiy tajribaga va ko`p yutuqlarga erishgan bo`lsa.

7. Men:

- A. Ishimning o`ngidan kelmasligini;
- B. O`rtoqlarim bilan munosabatimning buzilishini:
- S. Atrofdagilarning meni tanqid qilishlarini juda istamagan bo`lardim.

8. Eng ayanchli ahvol shundaki, agar o`qituvchi:

- A. Ba'zi o`quvchilarni yoqtirmasligini, ularning ustidan kulishini va kinoyasini yashira olmasa.
- B. Kollektivda raqobatchilik kayfiyatini yaratsa
- S. O`zi dars bergan fanni yaxshi bilmasa.

9. Bolaligimda eng yaxshi ko`rganim:

- A. Ko`proq o`rtoqlarim bilan o`ynash edi
- B. Qum to`dasidan uychalar yasab, zavqlanish edi
- S. Biron narsa uchun meni maqtashlari edi

10. Quyidagi ta'rifi berilgan kishilarga o`xshashni juda-juda hohlardim:

- A. Hayotda katta lavozimlarda ishlagan kishi
- B. O`z ishiga chinakam berilgan kishi
- S. Do`stonligi va oqko`ngilligi bilan ajralib turgan kishi

11. Menimcha, maktabning birinchi galdagi vazifasi:

- A. Hayotdagi to`siqlar, muammolarni hal qilishni o`rganish.
- B. O`quvchining shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
- S. Odamlar bilan o`zaro hamkorlik qilishga yordam beradigan sifatlarni tarbiyalash

12. Bo`sh vaqtim ko`proq bo`lganda, nazarimda, unda quyidagicha foydalangan bo`lar edim:

- A. Do`stlarim bilan suhbatlashardim
- B. Ko`proq dam olib, xordiq chiqargan bo`lardim.
- S. O`zim sevgan ishlar bilan, mustaqil o`qish, o`rganish bilan mashg`ul bo`lgan bo`lardim.

13. Katta yutuqlarni qo`lga kiritishim mumkin, agar:

- A. Chehrasi iliq bo`lgan kishilar bilan ishlasam
- B. Bajarayotgan ishim menga qiziqarli bo`lsa,
- S. Qilgan ishim yaxshi rag`batlantirilishi mumkin bo`lsa.

14. Menga juda yoqadi agar:

- A. Odamlar meni qadrlashsa
- B. Biror ishni yaxshilab oxiriga etkazib bajarsam
- S. VAqtimni do`stlar orasida qiziqarli o`tkazsam.

15. Agar men haqimda gazetada yozishga qaror qilishsa, men istardimki:

- A. Biror sohada erishgan yutuqlarimni maqtab yozishsin;
- B. Men bajargan ishlar haqida gapirilsin;
- S. Albatta men o`qiyotgan yoki ishlayotgan jamoa haqida bayon etilgan

16. Men juda yaxshi o`qigan bo`lardim, agar o`qituvchi

- A. Meni tushunsa va o`zligimni nazarga olib, to`g`ri munosabat qila olsa
- B. Predmetlarga nisbatan qiziq uyg`ota olsa
- S. Dars mavzularini bahs-munozarali qilib yorita olsa

17. Men uchun eng yomoni:

- A. G`ururimning poymol qilinishi
- B. Zarur ishimning o`ngidan kelmasligi
- S. Do`stlarimdan ajralib qolishim

18. Menimcha, hayotda eng qadrli narsa:

- A. Muvaffaqiyat
 - B. O`zaro kelishuvda, hamkorlikda ishlash imkoniyati
 - S. Kundalik hayotda ijodkorlik, hur fikrli
19. Men yoqtirmaydigan kishilar:
- A. O`zini boshqalardan past ko`ruvchilar
 - B. Badjahl, tez-tez janjal chiqaruvchi kishilar
 - S. Har qanday yangilikka qarshi chiqqigan odamlar

20. Men uchun quvonch bag'ishlaydi:

A. Hamma uchun muhim bo'lgan ish bilan shug'ullanish

B. Yor-do'stlarimning ko'p bo'lishi

S. Odamlarni hayratda qoldirish

21. Menimcha, rahbar kishi quyidagi xususiyatga ega bo'lishi shart:

A. Qo'l ostidagilarga juda yaqin bo'lishi, ularni tinglay bilishi

B. Obro'-e'tiborli, viqor-salobatli bo'lishi

S. O'ziga va boshqalarga talabchan bo'lishi

22. Bo'sh vaqtimda havas bilan shunday kitoblarni o'qigan bo'lardimki, ular:

A. Do'st orttirish, odamlar bilan yaxshi munosabatda bo'lish sirlari haqida yozilgan bo'lsin

B. Mashhur va ko'pqirrali insonlarning hayoti to'g'risida yozilgan bo'lsin

S. Fan-texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari to'g'risida yozilgan bo'lsin

23. Musiqa sohasida qobiliyatim bo'lganida edi:

A. Dirijyor bo'lgan bo'lardim

B. Bastakor bo'lardim

S. Qo'shiqchi bo'lardim

24. Istardimki:

A. Qiziqarli bir konkurs o'ylab topib, uning rejasini tuzsam

B. Biror bir konkursda g'olib chiqsam

S. O'zim konkurs tashkil etib, uni olib borsam

25. Birinchi navbatda bilishim zarur:

A. Nima ish bajarishim kerakligini

B. Maqsadga erishish yo'llarini

S. Maqsadga erishish uchun atrofdagi odamlardan qanday foydalanish kerakligini

26. Inson shunga intilishi kerakki:

A. Boshqalar undan xursand bo'lsinlar

B. Unga buyurilgan ish, avvalo vijdonan, chin ko'ngildan bajarilsin

S. Qilgan ishi uchun u hech kimdan gap eshitmasin

27. Bo'sh vaqtimda yaxshi dam olaman:

A. Do'stlarim bilan suhbatlashganda

B. Qiziqarli filmlarni tomosha qilib, xordiq chiqarganda

S. O'zim sevgan ish bilan mashg'ul bo'lganda

Tadqiqotni o'tkazish jarayoni

Ushbu metodika yakka tartibda ham, guruhiiy usulda ham o'tkazilishi mumkin. Sinfdagi o'quvchilar guruhida o'tkazilayotganda har bir o'quvchiga bittadan savolnoma kitobchasi va bittadan javob varaqasi (1-ilovaga q.) tarqatib chiqiladi. So'ngra, tarqatilgan savolnomaning boshida keltirilgan tushuntirish xatini diqqat bilan o'qib chiqishlariga da'vat etiladi. O'quvchilar birin-ketin o'qib bo'lgach, 2-3 kishidan o'z tushunganlarini gapirib berishlari so'raladi. Hamma bajarilishi kerak bo'lgan vazifani tushunganiga ishonch hosil bo'lganidan so'ng, vazifa yana bir marta dona-dona qilib tushuntiriladi:

«Demak, ushbu test 27 savoldan iborat bo'lib, ularning har birini uch variantda javob keltirilgan.

Birinchi savolni va unga berilgan javoblarni o'qing

«Men, qachonki:

A. Qilayotgan ishimni atrofdagilar qo'llab-quvvatlashsa,

V. Biror ishni o'zimga ma'qul, ko'nglimdagidek qilib bajarsam,

S. Atrofimda yaxshi do'stlarim borligini his etsam,

Бизимда катта =аноатланиш щосил =иламан»

Javoblar orasidan Sizning ichki dunyongizga eng yaqin bo'lgan javobni tanlang (faraz qilamiz-«V»). Endi javob varaqasining birinchi satridan tegishli harfini («V»ni) topib, uning chap yoniga («to'g'ri keladi») degan so'zlar ostiga) belgi(«✓») qo'ying.

Birinchi savolni yana bir marta o'qing. Endi qolgan ikki javob variantlari («A» va «S») orasidan Sizning nazaringizni eng kam to'g'ri keladiganini yoki Siz uchun qimmatini eng past bo'lganini tanlang (faraz qilamiz «A»). So'ngra javob varaqasining yana o'sha birinchi satridan tegishli harfini («A»ni) topib, uning o'ng yoniga («to'g'ri kelmaydi») so'zlari ostiga) belgi(«✓») qo'ying. Uchinchi javob varianti esa (bizning misolda-«S») hech qacarda belgilanmaydi.

Keyingi savolga o'ting.

Demak, har bir satrga ikkitadan «✓»belgisini qo'yishingiz kerak bo'ladi: birinchisi-A, V, S variantlaridan birining «to'g'ri keladi» ustunidagi katakchasiga, ikkinchisi-shu variantlarning «to'g'ri kelmaydi» katakchasiga. Birorta savolni javobsiz qoldirmang. Savollar ustida uzoq o'ylanib o'tirmang. Ba'zan bir vaqtning o'zida ikkita yoki uchala variant javoblar iengdek tuyulishi mumkin: diqqat qiling va o'zingizga savol berib, ogohona javob berishni mashq qiling. Eng to'g'ri javob hayolga birinchi kelgan javobdir. Marhamat boshladik.»

Tushuntirish xati o'quvchilar bilan to'liq muhokama etilishi va barcha o'quvchilar qanday ish bajarishlarini aniq tasavvur qilishlariga erishish lozim. Eng muhimi o'quvchi o'z-o'zini imtihon qila olishi, o'zining xislatlarini ongli ravishda tahlil qilishga o'rgatib ulgurish kerak. Ya'ni bola har bir savolga javob berishda o'zidan so'ray olishi kerak. Shundagina olingan ma'lumotlar jiddiy va haqqoniy bo'ladi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni

Javob varaqalarini qayta ishlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi (1-rasmga q.).

JAVOB VARAQASI

Familiyasi _____

Ismi _____

Tuman _____ maktab № _____ Sinf _____

Tug'ilgan sana _____ bugungi sana _____

2-rasm. Yo'nalganlik

ko'rsatgichlarining chizmasi

1-rasm. Shaxs yo'nalganligini aniqlash metodikasi javob varaqasini to'ldirish

№№	tўg'ri keladi	tўg'ri kelmaydi	tўg'ri keladi	tўg'ri kelmaydi	tўg'ri keladi	tўg'ri kelmaydi
1		A ✓		C	✓	B
2	✓	B		C ✓		A
3		A ✓	✓	C		B
4	✓	C		B ✓		A
5		B		A ✓	✓	C
6		C ✓		A	✓	B
7		C		B ✓	✓	A
8		A		B ✓	✓	C
9		C	✓	A		B ✓
10		A	✓	C		B ✓
11	✓	B		C ✓		A ✓
12		B ✓		A	✓	C
13		C		A ✓	✓	B
14		A ✓		C	✓	B
15	✓	B		C		A ✓
16		A		C ✓	✓	B
17		A	✓	C		B ✓
18	✓	A		B ✓		C
19		A		B ✓	✓	C
20		C	✓	B		A ✓
21	✓	B		A		C ✓
22		B	✓	A		C ✓
23		C	✓	A		B ✓
24		B ✓		C	✓	A

	ўзига	оаамларга	фаооията
	x-27	y-24	z-30
9	32 +	35 +	38 +
8	30-31	33-34	36-37
7	28-29	31-32	34-35
6	25-27	29-30	32-33
5	23-24	28	30-31
4	21-22	26-27	29
3	19-20	24-25	27-28
2	16-18	22-23	25-26
1	15 -	21 -	24 -

1. Olti ustunning har biridagi(«✓»)lar soni alohida-alohida sanab chiqiladi va pastdagi «jami» deb nomlangan satrning tegishli katakchalariga 1-rasmda ko`rsatilgan tartibda yozib chiqiladi.

2. Mazkur uch juft yig`indi qiymatlarning o`zaro ayrimlari topiladi (bu sonlar manfiy ham musbat ham bo`lishi mumkin) va «ayirma» deb nomlangan satrga yozib chiqiladi.

3. Har uchala ayrimaga 27 soni qo`shilib (agar ayirma manfiy bo`lsa, uning miqdori 27 dan ayirilib), bolaning yo`nalish bo`yicha baholari chiqariladi va ular ham javob varaqasining tegishli katakchalariga yozib qo`yiladi.

Bu ko`rsatgich, ya'ni oxirgi uch qiymat katta mazmunga ega bo`lgan muhim yuklamani o`zida mujassam etadi: 4666054

1-ustun «o`ziga», 2-ustun-«odamlarga» va 3-ustun-«faoliyatga» yo`nalganlik bo`yicha olingan ma'lumotlar endi javob varaqasining orqasidagi grafikka ko`chiriladi (2-rasmga q.) va yakka tartibda o`quvchiga yoki ota-onalarga maslahat berish maqsadida ham ishlatilishi mumkin. Amaliyotchi psixologlarning ehtiyojlaridan kelib, yoshlar guruhidan olingan normalar javob varaqasining orqasida keltirilgan grafikning tegishli bo`linmalariga kiritildi. Ya'ni, maxsus javdallar orqali tizimlariga tenglashtirish kabi talaygina faoliyatni tushirib qoldirib, ushbu usulni qisqa va tushunarli holga keltirilgani tashxis amaliyotini ancha osonlashtiradi, degan umiddamiz.

Shakldan ko`rinib turganidek, U.H. ismli sinaluvchining ma'lumotlari har bir yo`nalishning millat xislatlariniga nisbatan qanchalik yuqori yoki pastligi, ya'ni yagona bir mezon asosida baholanishi ko`zga yaqqol tashlanib turibdi.

Maktab, o`rta maxsus yoki oliy ta'lim muassasalarining psixologlari ushbu metodikadan foydalanishni va o`quvchi yoki talaba shaxsining muhim yo`nalishi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo`lishni rejalashtirgan bo`lsa, birinchi navbatda tegishli miqdorda javob varaqalari tayyorlatishi kerak bo`ladi

Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 152-bet;
2. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 206-245 betlar;
3. Karimova V. Psixologiya. Toshkent-2002, 60-70 betlar;
4. G`oziev E. Psixologiya Toshkent. O`qituvchi, 1994 y,
5. Qodirov B. Kasbiy tashxis metodikalar to`plami. Toshkent-2003, 27 bet

13-Mavzu: SINF JAMOASINING O`QUV QIZIQISHLARINI O`RGANISH.

Talaba jamoa haqida, uyushgan jamoani tarkib toptirish omillari, tarbiya jarayoni va jamoatchilik, o`quvchilar jamoasi, qiziqishlar, qobiliyatlar va qiziqishlar haqida adabiyotlardan o`qib n a z a r i y q i s m tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P S h I R I Q №1

SINF JAMOASINING O`QUV QIZIQISHLARINI O`RGANISH METODIKASI.

Ushbu metodikani o`tkazishdan quyidagi maqsadlar ko`zlanadi

1.O`quvchilar jamoasida o`quv predmetlariga bo`lgan qiziqishlarning taqsimlanishini o`rganish.

Ushbu qiziqishlarning asosan qaysi omillar ta'sirida yuzaga kelishini aniqlash.

Ushbu qiziqishlarning darsdan tashqari faoliyatlarda qanday namoyon bulishini o`rganish.

Tavsiya etilayotgan metodikalarni o`tkazishning qulayligi shundaki, bunda sinf o`quvchilariga savolnoma matni, javob varaqasi kabi tarqatma materiallarni tayyorlash, tarqatish talab etilmaydi. Bolalar o`z javoblarini oddiy qog`ozda ham belgilashlari mumkin. Lekin psixolog yoki pedagog ushbu metodikani o`tkazishdan avval sinf doskasini tayyorlasa, ya'ni o`quvchilarga qulay bo`lishi uchun ba'zi bir javob variantlarini yozib qo`ysa, foydadan xoli bo`lmaydi.

Tadqiqotni o`tkazishda, dastlab o`quvchilarning bir varaqdan qog`oz olishlari va qog`oz yuqorisiga ism—famiyalarini yozishlari, keyin esa navbati bilan quyidagi uchta savol—topshiriqlarga ko`rsatilgan tartibda javob berishlari so`raladi;

I. Joriy yili sinfingizda quyidagi o`quv predmetlari o`tilmoqda (doskadan kursatiladi)

1.Matematika	5.Ximiya	9 Ona tili	13 huquq
1.EHM	6.Biologiya	10 Rus tili	14 Rasm
2.Geomegriya	7.Geografiya	11Tarix	15 Musiqa
3.Fizika	8.Adabiyot	12Iqtisod	16 Jismoniy
		Tarbiya	

Bular orasida o`zingiz eng ko`p qiziqqan predmet sohasini yozing. (O`quvchi varaqaga bitta predmetni tanlab yozib qo`yadi).

II.Shu predmetga qiziqishingizga nima (yoki kim) sabab bo`ldi (Javoblar doskadan o`qib beriladi)

1. qiziqarli darslar
2. to`g`arak mashg`ulotlari bor
3. kinofilmlar va teleko`rsatuvlar bo`lgan,
4. ota — onam yoqtiradi,
5. o`rtoqlarim yoqtiradi,
6. bilmayman,

(O`quvchi javob varaqasiga ko`rsatilgan javoblardan istagan bittasini tanlab yozib qo`yishi kerak)

III . Sizni shu predmet sohasining asosan qaysi jihati o`ziga jalb etdi. (Javoblar yana doskadan ko`rsatiladi)

1.Adabiyot o`qish, ya'ni shu sohaga doir adabiyotlar bilan tanishish, kitoblar, jurnallar mutolaa qilish va hokazo.

2.Amaliy faoliyat, ya'ni shu sohaga doir amaliy ishlar bilan mashg`ul bo`lish (masalan, o`simlik va hayvonlarni parvarish qilish, uskuna va mexanizmlarni ta'mirlash va hokazo.

Ijodiy mashg`ulot, ya'ni shu predmet sohasida ijodiy ishlar qilish (masalan, insho yozish, masalalar echish, biron narsa yasash, ixtirolar qilish va b.)

O`quvchi keltirilgan javoblardan eng yoqqanini tanlaydi va javob varaqasida qisqa tarzda belgilaydi. Shu bilan tajribaning birinchi qismi tugaydi. Tadqiqotchi o`quvchilardan quyidagi javob varaqalarini yig`ib oladi. Olingan ma'lumotlar quyidagi uchta jadvalda aks ettiriladi.

1- jadval.

Sinf jamoasining o`quv predmetlariga bo`lgan qiziqishlarining taqsimlanishi

№	Predmetlar	O`quvchilar soni	Foiz miqdori
1.	Matematika		
2.	Fizika		
3.	Biologiya		
4.	Ona tili		
5.	EHM		
6.	Geometriya		
7.	Ximiya		
8.	Geografiya		
9.	Adabiyot		
10.	Tarix		
11.	Iqtisod		
12.	Huquq		
13.	Musiq		
14.	Rasm		
15.	Jismoniy tarbiya		

2- jadval.

Qiziqishning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar

№	Omillar	O`quvchilar soni	Foiz miqdori
1.	Qiziqarli darslar		
2.	To`g`arak mashg`ulotlari		
3.	Kinofilm, teleko`rsatuvlar		
4.	Ota-onam		
5.	O`rtoqlarim, do`stlarim		
6.	Hech kim va hech narsa		

Tanlangan predmetga qiziqishning namoyon bo'lishi.

№	Qiziqishlarning namoyon bo'lishi	O'quvchilar soni	Foiz miqdori
1	Adabiyot o'qish		
2	Amaliy faoliyat		
3	Ijodiy mashg'ulot		

Bunda tadqiqotchi o'quvchilarning predmet soxasiga bo'lgan qiziqishlariga doir qaydlarini alohida—alohida sanab chiqadi va bu raqamlarni 1—jadvalda keltiradi. Xuddi shunday ikkinchi va 3— savolga berilgan javoblar soni ham sanab chiqiladi va tegishli jadvallarda aks ettiriladi. Sanash orqali topilgan xar-bir ko'rsatgichning sinfdagi o'quvchilar soniga nisbatan foizlardagi qiymati ham ko'rsatilsa, mavjud axvol haqida aniqrog tasavvur hosil qilish mumkin.

So'nggi jadvaldagi ma'lumotlar, bizning nazarimizda, sinf jamoasining nazariy, amaliy va ijodiy tafakkur imkoniyatlari haqida qimmatli ma'lumot beradi. 2—jadvaldagi ma'lumotlar esa o'quvchilar qiziqish va intilishlarining qanchalik asosli, ongli va mustaqil ravishda tanlaganliklaridan xabar beradi.

Umuman olganda, ushbu metodikani sinf soati (tarbiyaviy soat) oldidan o'tkazish va olingan natijalarni sinf jamoasi bilan birgalikda muokama etish o'quvchilarning kasbiy o'zligini anglash obiliyatini oshirishda juda katta ijobiy samara beradi, degan umiddamiz.

T O P S h I R I Q № 2**SINF JAMOSINING MAKTABDAN TASHQARI QIZIQISHLARINI O'RGANISH METODIKASI**

Ushbu metodika quyidagi xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan:

1. O'quvchilarning maktabdan tashqari qiziqish sohalari
2. Maktabdan tashqari qiziqishlarga etaklovchi asosiy omillar.

Maktabdan tashqari qiziqishlarni yuzaga keltiruvchi tashqi sabablar.

1. Ushbu metodikani o'tkazish uchun ham sinf o'quvchilaridan bir varaq qog'oz olishlari qog'oz yuqorisida har bir o'quvchi ism-sharifini yozishi va quyidagi savollarga javob berish kerakligi aytiladi.

Bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanishni afzal ko'rgan bo'ladingiz?

(Javoblar doskadan ko'rsatib, o'qib beriladi):

- | | |
|---------------------------------|--|
| 1. Badiiy kitob o'qish | 8. Kolleksiya to'plash |
| 2. Kinoga borish | 9. Do'stlarim bilan o'ynash, suhbatlashish |
| 3. Televizor tomosha qilish | 10. Musiqa eshitish yoki chalish |
| 4. Sport bilan shug'ullanish | 11. Xo'jalik (uy) yumushlari bilan shug'ullanish |
| 5. Biror narsa yasash | |
| 6. O'simlik o'stirish | |
| 7. Hayvonlarni parvarish qilish | |

Ushbu qiziqish yo'nalishlaridan hohlaganingizni (yoki 2-3 tasini) tanlang va ularga qiziqish darajangizni, ularning hayotingizda tutgan o'rmini 1, 2, 3 ball bilan belgilang.

II. Qiziqish sohalaringiz nima uchun sizga yoqadi? Quyidagi javoblardan bittasini tanlang:

1. Bo'sh vaqtni maroqli o'tkazsa bo'ladi
2. Yangi bilimlarga ega bo'lish mumkin
3. Foydali va bejirim narsa yasasa bo'ladi.
4. Ijodiy izlanish, biror narsa o'ylab topish mumkin.
5. Bilmayman.

III. Shu sohaga qiziqib qolishingizga nima (yoki kim) turtki bo'lgan?

Quyidagi javoblardan birortasini belgilang:

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| 1. Maktabdagi darslar | 4. Kinofilmlar |
| 2. Ota-onam | 5. Hayotiy voqealar |
| 3. O'rtoqlarim | 6. Bilmayman |

Tadqiqotchi o'quvchilar to'ldirib bergan varaqlarni yig'ib olgach ulardagi ma'lumotlarni tahlil etadi va quyida keltirilgan jadvallarda umumlashtiradi.

Jadval 1

O'quvchilarning maktabdan tashqari qiziqishlarining taqsimlanishi

№	O'qishdan tashqari qiziqish turlari	qiziqish darajasi (jami)			Qiziqishlarning umumiy soni	Foiz miq-Dori
		1 ball	2 ball	3 ball		
1	Badiiy kitob o'qish					
2	Kinoga borish					
3	Televizor ko'rish					
4	Sport bilan shug'ullanish					
5	Biror narsa yasash					
6	O'simlik o'stirish					
7	Hayvonlarni parvarishlash					
8	Kolleksiya to'plash					
9	O'rtoqlarim bilan o'ynash,					

	suhbatlashish					
10	Musiqa eshitish, chalish					
11	Xo`jalik (uy) yumushlari bilan shug`ullanish					

Jadval 2

№	Etakchi maqsadlar	Maqsadlar soni	Foiz miqdori
1	Bo`sh vaqtni maroqli o`tkazish		
2	Yangi bilimlarni egallash		
3	Foydali va bejirim narsa yasash		
4	Ijodiy izlanish, o`ylab topish		
5	Noaniq		

Jadval 3

Qiziqishlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko`rsatgan omillar

№	Omillar	Omillar	Foiz miqdori
1	Maktabdagi darslar		
2	Ota-onam		
3	O`rtoqlarning da'vati		
4	Kinofilm		
5	Hayotiy voqealar		
	Hech kim yoki hech narsa		

Tadqiqotchi olingan ma'lumotlarni tahlil qilar ekan, dastlab o`quvchilarning sinfdan tashqari qiziqish yo`nalishlarining saviyasiga (1, 2, 3 ballar) doir qaydlarini alohida-alohida qayd etadi. So`ngra ushbu qiziqish yo`nalishlarining har biriga doir qaydlarini sanab chiqadi (umumiy soni). Olingan barcha ko`rsatgichlar 1-jadvalning tegishli ustunlariga yozib chiqiladi. Ushbu jadval sinfdagi o`quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda qanday turdagi mashg`ulotlar билан маш`ул былишлари ва бу qiziqishlarning qay darajada shakllanganligi haqida umumlashtirilgan tasavvur beradi.

So`ngra 2-jadvalda keltirilgan etakchi maqsadlarning (2-savol) sinf bo`yicha taqsimlanishi sanab chiqiladi va jadvalga kiritiladi. Ushbu ma'lumotlar o`quvchilarning sinfdan tashqari mashg`ulotlardan ko`zlangan maqsadlari, ilmiy tilda aytganda, motivlari haqida umumlashtirilgan tasavvurni beradi.

Nihoyat 3-jadvalda keltirilgan omillarning sinf bo`yicha taqsimlanishi aniqlanadi va jadvalga kiritiladi. Bu raqamlar esa endi o`quvchilarning sinfdan tashqari mashg`ulotlar bilan shug`ullanishlariga ta'sir etuvchi ichki psixologik shart-sharoitlarini emas, balki tashqi omillar, ijtimoiy muhitning qay darajada ta'sir etishi haqida qiziqarli ma'lumot beradi.

Shuni aytish kerakki, ushbu metodika shunchaki o`yin yoki o`quvchilarning vaqtini band qilish uchun o`tkazilmaydi, balki bu amaliyotni tarbiyaviy jarayonga kiritib ta'lim-tarbiya bilan bog`liq ravishda olib borish zarur. Olingan natijalarni kasbga yo`naltirish amaliyoti sifatida tarbiyaviy soatlarda o`quvchilar bilan birgalikda faol muhokama etish maqsadga muvofiqdir.

Izoh: Tajriba muayyan sinf o`quvchilari bilan barcha o`quvchilar ishtirokida o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

A d a b i y o t l a r

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 146-bet;
2. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 175-198 betlar;
3. Karimova V. Psixologiya. Toshkent-2002, 177-betlar;
4. Qodirov B. Kasbiy tashxis metodikalar to`plami. Toshkent-2003, 65-69 bet
5. Baratov. Sh.R. O`quvchi shaxsi va sinf jamoasini tahlil qilish usullari. Buxoro-1993
y

14-Mavzu: TEMPERAMENT PSIXOLOGIYASI

Talaba⁷⁴ temperament, temperament to`g`risidagi tasavvurlar, temperament tiplari, temperamentning psixologik qonuniyatlari tegishli adabiyotlardan o`rganilib, ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q № 1

TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINI O`RGANISH

Tadqiqotning maqsadi: shaxsdagi emotsional qo`zg`aluvchanlik va emotsional barqarorlikni tekshirish va shu asosda temperamentning zarur bo`lgan tipini tekshirib ko`rish

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: sekundomer, so`zlar qatori: gilam, stol, quti, gazeta, isliqi, devor, ko`za, maysazor, plita, isqirt, mavsum, mato, qo`l, befarosat, shapaloq, qizg`anchiq, rahbarlik, befahm, sandiq, miltiq, daraxt, taxta, turmush, olov.

Tadqiqotning borishi. Tekshiruvchi minutiga 5 ta soʻzni asta-sekin talaffuz qiladi. Tekshiriluvchi har bir eshitgan soʻziga javob sifatida yodiga kelgan soʻz bilan javob qaytarib borishi kerak. Qaror yurituvchi esa qoʻzgʻatuvchi soʻz tavsiya qilingan vaqt bilan tekshiriluvchining javob soʻzi aytilgan paytgacha boʻlgan reaksiya vaqtini qayd etib borishi kerak

Tadqiqot natijasini tahlil qilish. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda qayd qilinadi:

Qoʻzgʻatuvchi soʻz	Tekshiriluvchining javobi	Reaksiyaning latent vaqti (sekun hisobida)

Soʻngra grafik chizilib, uning abstsissa oʻqida reaksiya vaqti, ordinata oʻqida esa qoʻzgʻatuvchi soʻzning tartib nomeri toʻgʻri keladigan son qayd qilib qoʻyiladi. Berilgan 25 soʻznig 5 tasi emotsional, qolgan 20 tasi betaraf soʻzlardir, Emotsional ahamiyatga ega boʻlgan soʻz bilan noemotsional (betaraf) soʻzlar oʻrtasida latent davri emotsional qoʻzgʻalish va emotsional barqarorlikka nisbatan boʻlgan munosabat koʻrsatkichi boʻlib hisoblanadi. Agar ana shu ikkala koʻrsatkich teng yoki deyarli baravar boʻlsa, grafik chiziqlari qoʻshilsa yoki bir-biriga yaqin boʻlsa, unda tekshiriluvchi emotsional jihatdan barqaror hisoblanadi. Agarda bu ikkala koʻrsatkich vaqti juda farq qilsa, grafik chizigʻi bir-biridan uzoq boʻlsa, unda tekshiriluvchi emotsional jihatdan qoʻzgʻaluvchan boʻlib hisoblanadi.

Olingan ma'lumotlar asosida yana bitta jadval tuziladi:

Tekshiriluvchining ismi va familiyasi	Tekshiriluvchining emotsional xususiyati	Tekshiriluvchining temperament tipi

T O P Sh I R I Q № 2

TEMPERAMENT TIPINI ANIQLASH.

Tadqiqotning maqsadi: pedagogik-psixologik xarakteristika ma'lumotlari orqali oʻquvchilar temperamentining tipini aniqlash.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: oʻquvchilar yozilgan pedagogik-psixologik xarakteristikalaridan olingan 8-10 ta parchalar

Tadqiqotning borishi. Tadqiqotchi tekshiriluvchiga berilgan xarakteristikalaridan birini olib, diqqat bilan oʻqib chiqishni va xarakteristikada tavsiflangan oʻquvchining qaysi temperament tipiga kirishini aniqlab berishni tavsiya qiladi. Xarakteristikadagi

ashyoviy dalillarga asoslanib, tekshiriluvchi o`quvchining nima uchun aynan shu tipga kirishini dalillar bilan tushuntirib berish zarur. Shunday so`ng tekshiriluvchiga yangi ikkinchi, uchinchi parsalar tavsiya qiladi va hokazo.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Ish natijalari quyidagi jadvalda qayd etiladi:

O`quvchining ismi, familiyasi	Temperamen t tipi	O`quvchining mazkur tipga kirishini bildiruvchi dalillar, belgilar

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 3-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 357 bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 438-457 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 124-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar» «O`qituvchi» Toshkent-1978 yil, -bet;
6. Q.Daminov, O`. Otavalin, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg`ulotlari»-Toshkent, «O`qituvchi»-1994, 47-bet.

15-Mavzu: QOBILI YATLARNI ANIQLASH USLUBLARI

Talaba qobiliyatlarning paydo bo`lishi va tuzilishi, qobiliyatlar va talantlarning tabiiy shartlari, qobiliyatlarni o`lchash muammosi, qobiliyatlar va qiziqishlarni aniqlash uslublari haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganadi. Ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

DIFFERENTIAL DIAGNOSTIK SO`ROVNOMA

Rus olimi E.A.Klimov yoshlar iqtidorining yo`nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb-hunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uni «Professional-dagnostik so`rovnoma» (PDS)deb atadi. Muallif barcha kasblarni ularning yo`naltirilgan sohasiga ko`ra 5 toifaga bo`ldi:

P (T)-tabiat (o`simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T-texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari);

Ch (O)-odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)-belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);

X (I)-badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

So`rovnoma bolaning shu turli kasblarga moyillikni aniqlaydi. Unga 20 juft savollar kiritilgan bo`lib, tekshiriluvchi maxsus javob varaqasida qay darajada u yoki bu mashg`ulot turi bilan shug`ullanishga moyilligini belgilashi kerak. Chunonchi, o`sha ish unga juda yoqsa, 3 ta «plyus», umuman yoqsa-2 ta va sal yoqsa-1 ta plyus qo`yadi. Yoqmasa, mos holda 3 ta, 2 ta va 1 ta «minus» belgisi qo`yishi kerak. Quyida biz sizga shu so`ronomani keltiramiz.

differentzial-dagnostik so`rovnoma

1	Hayvonlarni parvarish qilish	Yoki 1b	Mashina va uskunalarga qarash
2a	Kasal odamlarga yordam berish, ularga qarash	Yoki 2b	Jadval, sxema va EHM uchun dasturlar tuzish
3a	Kitoblar, rasm va plakatlar sifatini nazorat qilish	Yoki 3b	O`simliklar holati va rivojini kuzatish, parvarish qilish
4a	Materiallarni qayta ishlash (yog`och, mato,metall, plastmassa va b.q)	Yoki 4b	Tovarlarni xaridorga etkazish (reklama qilish, sotish)
5a	Ilmiy-ommabop kitoblarni muhokama qilish	Yoki 5b	Badiiy asar (p'esa, kontsertlar)ni muhokama qilish
6a	Hayvon bolalarini parvarish qilish	Yoki 6b	Tengqurlar va kichik yoshlilar malakalarini mashq qildirish
7 a	Rasm va tasvirlardan nusxa ko`chirish (yoki musiqa asbobini tuzatish	Yoki 7b	Yuk ko`taruvchi vositani (kran, traktor, teplovoz) boshqarish
8 a	Odamlarga ma'lumot etkazish (ma'lumotlar byurosi, ekskursiyada)	Yoki 8b	Ko`rgazma, vitrinalarni jihozlash
9a	Narsalar, maxsulotlar, (Kiyim, texnika,) uylarni ta'mirlash	Yoki 9b	Matn, jadval rasmdagi xatolarni tugirlash
10a	Xayvonlarni davolash	10b	Xisob-kitoblar qilish
11 a	Ekinlarning yangi navini yaratish	yoki 11b	Yangi sanoat mahsulotlarini loyihalash, konstruktsiya qilish
12a	Odamlar o`rtasidagi bahs, tortishuvlarda qatnashish, ularni	Yoki 12b	Chizmalar, sxema va jadvallarni tahlil qilish (tekshirish, aniqlash, to`g`rilash)

	ishontirish, tushuntirish		
13a	Badiiy havaskorlik to`garagida qatnashish	Yoki 13b	Mikroblar hayotini kuzatish va o`rganish
14a	Tibbiyot asbob-uskunalariga xizmat ko`rsatish	Yoki 14b	Odamlarga tibbiy yordam ko`rsatish
15a	Kuzatish, hodisa, voqealar tafsilotini yozish	Yoki 15 b	Voqealarni badiiy bo`yoqlarga aks ettirish
16a	Kasalxonda laboratoriya analizini o`tkazish	Yoki 16 b	Kasallarni qabul qilish, ular bilan suhbatlashish, tashxis qo`yish
17a	Buyumlar yoki devorlarni bo`yash, rasmlar solish	Yoki 17 b	Binolarni montaj qilish, mashina hamda uskunalarni yig`ish
18a	Tengqurlar yoki kichik bolalar bilan poxodlar uyushtirgan	Yoki 18 b	Sahnada o`ynash, kontsertlarda ishtirok etish
19a	Loyiha chizmalarga qarab buyum-mashinalar tayyorlash, kiyimlar tikish, uy qurish	Yoki 19b	Chizma shakllar, xaritalardan nusxa ko`chirish
20a	o`simliklar, bog` va o`rmon hashoratlari qarshi kurashish	Yoki 20 b	Klavishli mashinalarda ishlash (yozuv mashinkasi, teletayp, teruv mashnasi)

**Ushbu so`rovnoma javob varaqasi ham ilova qilinadi.
DDS ning javob varaqasi**

P	T	Ch	Z	X	P	T	Ch	Z	X
1a	1b	2a	2b	3a	11a	11b	12a	13a	13a
3b	4a	4b	5 a	5b	13b	14a	14b	15a	15b
6a		6b		7a	16a		16b		17a
	7b	8a		8b		17b	18a		18b
	9a		9b			19a		19b	
10a			10b		20a			20b	

Yuqorida tavsiya etilgan so`rovnoma aslida shaxsning u yoki bu mashg`ulotlar turiga qiziqishini aniqlash orqali unda rivojlantirilishi lozim bo`lgan malaka va ko`nikmalarni aniqlab olishga yordam beradi. Chunki professional mahorat faqat bilim, yuksak malaka va tinimsiz mehnat hisobiga rivojlanishini unutmazlik kerak.

Izoh: Tajriba bir sinf o`quvchilarida o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

A D A B I Y O T L A R

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 25-39-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 386-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 479-500 betlar;
4. Karimova V. Psixologiya. Toshkent-2002, 124-126-betlar;
5. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 61-62-betlar;

6. Qodirov B.R. O'zbekistonning iste'dodli bolalari va ularni tanlash masalalari. Toshkent-1993, 61-62-betlar.

16-Mavzu: OBRAZLI XOTIRANI TADQIQ ETISH

Talaba xotira va uning turlari, jarayonlari haqida tegishli adabiyotlardan o'qib o'rganib, ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q № 1

OBRAZLI XOTIRANI TEKSHIRISH

Tadqiqotning maqsadi: turli predmetlar surati aks ettirilgan varaqchalar yordamida obrazli xotirani tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: 30 ta predmet rasmi solingan ikki komplekt varaqchalar.

Tadqiqotning borishi. Bu tajriba ikki variantda o'tkaziladi.

Birinchi variantda tekshiriluvchi unga ko'rsatiladigan tavirlarni yaxshi yodda saqlab qolish zarurligi haqida ogohlantiriladi. Ko'rsatma berib o'lgach, tadqiqotchi tekshiriluvchiga ko'rib esda olib qolgan rasmlarning nomini yozib chiqishni taklif qiladi. To'g'ri esda olib qolingan predmetlar soni tekshiriluvchi obrazli xotirasining hajmi bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchi variantda tekshiriluvchiga 30 boshqa xil varaqchalarni beriladi. Ular orasida ayrim jihatlari bilan umumiylik belgisiga ega bo'lgan suratlarni alohida gruppaga ajratib chiqish tavsiya qilinadi. Bu ishning bajarilishiga 90 soniya vaqt belgilanadi. Bir gruppaga: tramvay, qayiq, samolyot, veloseped, changi singari tashqi belgisi jihatidan har xil ko'rinishga ega bo'lgan umumiyliq belgisi-ularning harakat vositasi ekanligidir.

30 soniyadan so'ng tadqiqotchi varaqchalarni yig'ishtirib oladi. Tekshiriluvchilar esa varaqchalarda surat aks ettirilgan predmetlarning nomini esga tushirishlari lozim.

Tadqiqot natijasini tahlil qilish. Olingan natijalar quyidagi jadvalda qayd etiladi.

Variant nomeri	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi	Tekshiriluvchidan olingan natija	Xato	To'g'ri tushirilgan predmetlarning soni
Birinchi	30	22	-	20

Ikkinchi	30	30	-	30
----------	----	----	---	----

Olingan natijalarga asoslanib, aktiv fikrlash faoliyati xotiraga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Birinchi variantda tekshiriluvchiga yodda tutish haqida ko'rsatma berilib, ikkinchi variantga esa bunday ko'rsatma berilmaganligiga qaramasdan, birinchi variantdagiga nisbatan ikkinchi variantda predmetni qayta eslash samaradorligi yuqori ko'rsatkichga ega.

T O P Sh I R I Q № 2

XOTIRA TASAVVURINI O'RGANISH

Tadqiqotning maqsadi: har bir so'z qo'zg'otuvchi ta'sirida ongda hosil bo'ladigan obraz va fikrlarning xarakterini belgilash.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: konkret va mavhum tushunchani anglatuvchi bir qator so'zlar: jarlik, o'quvchi, kit, maktab, tabiat, qahramonlik, hayvonlar, bino, g'alaba, shakl, tezlik, o'sish, taklif, sifat, bulut, to'xtam, yo'l boshchi, taraqqiyot so'zlari yozilgan kartochkalar.

Tadqiqotning borishi: tadqiqotchi ikki soniya mobaynida taxistaskop orqali tekshiriluvchiga so'z yozilgan varaqchani ko'rsatadi. 3 soniya to'xtalgandan so'ng so'raydi: «Bu so'z sizning ongingizda qanday obrazni hosil qildi? «Tekshiriluvchining javobi so'zma-so'z yozib boriladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Jami 10 ta so'zni ko'rsatish jarayonida tekshiriluvchidan olingan javob, natijalar quyidagi jadvalda qayd qilib chiqiladi:

So'z qo'zg'otuvchi	Obraz va fikrlarning muhimlashtirilishi					
	Ta'sirlanish (reaktsiya vaqti)	Predmet obrazi	So'zlar obrazi	Shakllar obrazi	Obrazsiz fikrlar	Obraz va fikrlarning mavjud emasligi

Tekshiriluvchining javoblarini taqqoslab chiqish asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: tekshiriluvchining tushunchasi chalg'ib turgan paytda, uning predmet haqidagi tasavvuri siyraklashishi yakka-dukkam bo'ladi. Har qanday ko'rquv

tasavvurlarining ishtirokisiz tushunchalar mazmuniga oid fikrlar obrazining xajmi kichraya boradi.

Izoh: Tajriba 30 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

A D A B I Y O T L A R

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 110-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 318-350 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 55-56-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar» «O`qituvchi» Toshkent-1978 yil, 42-43-bet;

17-Mavzu: MANTIQUIY VA MEXANIK XOTIRANI O`RGANISH

Талаба хотира, хотира турлари ща=ида тегишли адабиётлардан ы=иб ырганиб, илмий манбалар асосида *назарий* =*исми* тайёрланади.

Амалий =*исм* учун талаба =уйидаги топшири=ни бажариб, муста=ил тад=и=от олиб боради, олинган натижаларини тащлил =илиб талаб даражасида расмийлаштиради.

TOPShIRIQ

Ikki qator so`zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mantiqiy va mexanik xotirani tekshirib ko`rish

Tadqiqotning maqsadi: ikki qator so`zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mantiqiy va mexanik xotirani tekshirib ko`rish

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: ikki qator so`zlar. Birinchi qator so`zlar o`zaro ma'no jihatidan bog`lanishga ega. Ikkinchi qatordagi so`zlar esa o`zaro ma'no jihatidan bog`lanishga ega emas.

Birinchi qator

qo`g`irchoq-o`ynamoq

Ikkinchi qator

qo`ng`iz-stul

tovuq-tuxum	taroq-er
qaychi-qirqmoq	kompas-elim
ot-arava	qo`ng`iroq-o`q
kitob-o`qituvchi	chittak-singil
kapalk-chivin	gultuvak-tramvay
shchetka-tish	dori-divan
baraban-o`quvchi	tosh-shamol
qor-qush	botinka-samovar
xo`roz-qichqirmoq	grafin-olmoq
siyoh-daftar	gugurt-yilqi
sigir-sut	qirg`ich-dengiz
paravoz-haydamoq	shlyapa-asalari
nok-kompot	baliq-yong`in
chiroq-oqshom	arra-tuxum

Tadqiqotning borishi: tekshirish ikki seriyada o`tkaziladi.

B i r i n c h i s e r i y a. Tekshiruvchi tekshiriluvchiga birinchi qatordagi 15 juft so`zni (har bir juft so`z orasida 5 sekund tanaffus bilan) o`qib beradi. O`qib bergandan 10 sekund tanaffusdan keyin tekshiriluvchi o`zi eshitgan juft so`zlarni g`og`ozga yozadi.

So`ngra tavsiya qilingan so`zlar bilan tekshiriluvchining esda saqlab qolib yozgan so`zlarini solishtirib, mantiqiy xotiraning koeffitsenti hisoblab chiqariladi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilib qo`yiladi:

Mantiqiy xotiraning hajmi

<i>Birinchi qator so`zlarining soni</i>	<i>Esda qoldirilgan so`zlarning soni</i>	<i>Mantiqiy xotira koeffitsenti</i>

I k k i n c h i s e r i y a. Bunda ham xuddi birinchi seriyadagidek ish ko`riladi. Faqat tekshiruvchi ikkinchi qatordagi 15 juft so`zlarni (har bir juft oralig`ida 10 sekundlik tanaffus bilan) o`qiydi. Oxirida yana 10 sekund tanaffusdan so`ng tekshiriluvchi esda qolgan so`zlarni yozadi va tavsiya qilingan so`zlar bilan esda qoldirilgan so`zlar taqqoslab chiqilib, ular orasidagi koeffitsent hisoblab chiqiladi va jadvalda aks ettiriladi:

Mexanik xotiraning hajmi

<i>Ikkinchi qatordagi soʻzlar soni</i>	<i>Esda qoldirilgan soʻzlarning soni</i>	<i>Mexanik xotira koeffitsenti</i>

Soʻngra har ikkala seriya tekshirish natijalari taqqoslanib, ular oʻrtasidagi farq va uning sabablari haqida umumiy xulosa chiqariladi.

**Izoh: Tajriba 30 nafar sinaluvchida oʻtkazilishi
zarur**

A D A B I Y o T L A R

1. Gʻoziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 100-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-164-betlar
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 326-350 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 54-bet;
5. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashgʻulotlar» «Oʻqituvchi» Toshkent-1978 yil, 58-bet;
6. Q.Daminov, Oʻ. Otavalin, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashgʻulotlari»-Toshkent, «Oʻqituvchi»-1994, 40 bet

18-Mavzu: XARAKTER VA UNING TUZILISHI

Talaba xarakter tuzilishi, uning ayrim xususiyatlari oʻrtasidagi qonuniy bogʻliqlik, xarakterning beqarorligi va barqarorligi, xarakter shaxsning ichki va tashqi faolligi ifodalovchi ekanligi, xarakter xususiyatlari aktsentuatsiyasi, xarakterning tiplari haqida ilmiy manbalar asosida nazariy qism tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P S h I R I Q

K.YuNGNING XARAKTER TIPINI ANIQLASH METODIKASI

Berilgan savollarga javob variantlaridan birini tanlash kerak.

1. Qaysi biri siz uchun muhimroq?

- A)kichikkina doʻstlar davrasi;
B)koʻpgina oʻrtoqlar davrasi.

2. Qanday kitoblar sizga ko`proq yoqadi?

- A) qiziqarli syujeti;
- B) odamlar ruhiy kechinmalari aks ettirilgan.

3. Ishda nimaga ko`proq yo`l qo`yishingiz mumkin?

- A) kechikish;
- B) xatoliklar.

4. Agar yomon ish qilib qo`ysangiz;

- A) juda qayg`urasiz;
- B) unchalik qayg`urmaysiz.

5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?

- A) juda tez va oson;
- B) sekin, ehtiyotkorlik bilan

6. O`zingizni arazkash deb hisoblaysizmi?

- A) ha;
- B) yo`q.

7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?

- A) ha;
- B) yo`q.

8. Siz qandaysiz?

- A) kamgap;
- B) sergap.

9. Siz ochiqmisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?

- A) ochiqman;
- B) yashiraman.

10. O`z his-kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?

- A) ha;
- B) yo`q

11. Ko`pchilik davrasida bo`lganda, Siz:

- A) tinmay gapirasiz
- B) boshqalarni tinglaysiz

12. Tez-tez o`zingizdan norozi bo`lib turasizmi?

- A) ha;
- B) yo`q.

13. Biror nimalarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?

- A) ha;
- B) yo`q.

14. Sirlaringiz yozilgan kundalik tutishni hohlarmidingiz?

- A) ha;
- B) yo`q

15. Biror narsaning qaroridan uni bajarishga tez o'tasizmi?

A) ha;

B) yo'q.

16. Kayfiyatingizni tez o'zgartira olasizmi?

A) ha;

B) yo'q.

17. O'zgalarni ishontirib, ularga o'z fikringizni o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?

A) ha;

B) yo'q.

18. Sizning harakatlaringiz;

A) tez;

B) sekin.

19. Siz bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisalardan tashvishlanasiz?

A) tez-tez;

B) ba'zan.

20. Qiyin holatlarda Siz:

A) yordam so'rashga shoshilasiz;

B) hech kimga murojaat qilmaysiz.

Endi javoblaringizni hisoblab chiqing.

Javoblar kaliti:

Javoblar ichidagi quyidagilar Sizdagi ekstroversiyaning ko'rsatadigan ballari: 16, 2a, 36, 5a, 66, 7a, 86, 9a, 106, 11a, 126, 13a, 146, 15a, 16a, 17a, 18a, 196, 20a. Mos kelgan javoblar sonini 5 ga kypaytirib.

0-35 ballar-introversiya;

36-65 ballar-ambiversiya;

66-100 ballar-ekstroversiya.

Shunga o'xshash tavsiyaning o'rganish uslublari ko'p bo'lib, ular yordamida odam o'zini va yaqinlarini o'rganib turishi kerak.

Izoh: Tajribada 50 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 15-22-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 357-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 457-478 betlar;
4. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 133-bet.
5. E.G'oziev. Psixologiya. Toshkent. O'qituvchi, 1994y

6. K.K.Platonov. T.T.Golubev. Psixologiya. Toshkent, O'qituvchi, 1982 yil.

19-Mavzu FAZOVIIY MUNOSABATLARNI VA VAQTNI IDROK QILISH

Talaba idrok va uning turlari haqida tegishli adabiyotlardan o'qib o'rganadi. Ilmiy manbalar asosida nazariy qism tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q № 1

FAZOVIIY ChEGARANI ANIQLIGINI TEKShIRISH

Tadqiqotning maqsadi: chiqarilayotgan tovush manbaini aniqlash yordamida eshitish qo'zg'ovchisining fazoviy cheklanish aniqligini tekshirish

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: ikkita tanga, sekundomer yoki sekund strelkali soat.

Tadqiqotning borishi. Tekshiriluvchi ko'zi yumilgan yoki bog'langan holda stulda qimirlamay o'tiradi. Tadqiqotchi bosh va ko'rsatkich barmoqlari orasiga ikkita tangani qisib ushlab, uning old tomonida tik turadi va tekshiriluvchining boshidan bir xil uzoqlikda dam o'ngga, dam so'lga, dam orqaga, dam oldinga qo'lini cho'zib, tangalarini bir-biriga ishqab (har bir yo'nalishda 3-5 marta, biroq uzluksiz emas), ulardan tovush chiqaradi, jaranglatadi. Tekshiriluvchi ovoz manbai qaysi tomonda ekanligini ko'rsatib beradi.

Tekshiriluvchi bu vazifani bajargandan so'ng, unga o'sha xil vazifani bir qulog'ini bekitgan holda bajartirish lozim.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Qaror yurituvchi tekshiriluvchining ovoz manbai yo'nalishini aniqlash bo'yicha natija ko'rsatlarini, to'g'ri javob sonini, bu javoblar uchun ketgan vaqtni hisoblab, jadvalda qayd qilib qo'yadi:

<i>Tavsiya nomeri</i>	<i>Tovush manbaining joylashgan tomoni</i>	<i>Tekshiriluvchining javobi</i>	<i>Latent vaqti</i>	<i>To'g'ri javoblar soni</i>

Tekshiriluvchi kelayotgan tovush o`rnini bir necha bor aniqlanganidan so`ng, tovushning qaysi tomondan tarqalish aniqligi quyidagicha formula orqali hisoblab chiqiladi:

$$C = \frac{A \cdot 100}{B}$$

A-bir yo`nalishga oid to`g`ri javoblar soni

V-shu yo`nalishda olib borilgan tajribalar soni

Ish so`ngida tovush manbai tarqalish natijalariga oid umumiy hisoblar ikki quloq va bir quloq bilan eshitib, aniqlangan natijalar asosida taqqoslanadi.

Shunday qilib, o`tkazilgan barcha tajriba natijalari haqida umumiy xulosa chiqariladi.

T O P Sh I R I Q № 2

VAQTNI IDROK QILISHDAGI ANIQLIGINI TAJRIBADA O`RGANISH

Tadqiqotning maqsadi: vaqtni idrok qilishdagi aniqlikni tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: sekundomer yoki sekund strelkali soat.

Tadqiqotning borishi. Tekshiriluvchi 3, 5, 10, 17, sekundga to`g`ri keluvchi vaqt birliklarini aniqlashi lozim. Tadqiqotchi stol ustiga qalamning orqasi bilan urib, vaqtning boshlanishi va tugash nuqtalarini belgilaydi.

Tekshiriluvchi hisoblamay va boshqa vositalarni qo`llamay turib, mazkur vaqt oralig`ini aniqlaydi va sekundlarga chaqib yozib boradi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: o`tkazilgan tajriba natijalarini dastlab jadvalda aks ettiriladi:

<i>Tajriba nomeri</i>	<i>Tavsiya qilingan qo`zg`ovchi</i>	<i>Tekshiriluv chining ko`rsatmasi</i>	<i>Chamalab aytilgan vaqt bilan real hisobdagi vaqt o`rtasidagi farq</i>

So`ngra vaqtni idrok qilishning aniqlik foizi S topiladi:

$$S = \frac{A \cdot 100}{B}$$

Bu erda A-sekund hisobida tavsiya qilingan vaqt bilan tekshiriluvchi ifodalangan vaqt o`rtasidagi farq, V-tadqiqotchi tomonidan tavsiya qilingan vaqt bo`lagi. Ana shunday

hisob bilan tekshiriluvchining vaqtni aniqlikda idrok qila olish xususiyatiga ega ekanligi haqida dalilli xulosa chiqariladi.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

A D A B I Y O T L A R

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 77-bet;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 95-115-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 290-317 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 50-bet;
5. Mamadjonov B. «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar» «O`qituvchi» Toshkent-1978 yil, 35-bet;

20-Mavzu: NUTQ FAOLIYATINI O`RGANISH

Talaba nutq mexanizmlari, nutqning fiziologik negizi, nutq va signallar tizimi, nutqning rivojlanishi, nutq kommunikatsiyasi, nutqning vujudga kelish haqidagi nazariyalari, nutq turlarining psixologik tavsifini turli adabiyotlardan o`qib o`rganadi. Ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P S h I R I Q № 1

ASSOTsIATsIYaLARNING ERKIN KEChISHIGA DOIR TOPShIRIQNI BAJARISH

A. Talabalarga fikrlariga kelgan o`nta so`zni tezlik bilan aytish vazifasi topshiriladi. Eksperimentator aytilgan so`zlarni va ularning aytilish tezligini kuzatib boradi. Bu tajriba nutq bilan tafakkurning uzviy bog`liqligini va fikrning nutqda ifodalanishini isbotlaydi. So`zlarni fikr va fikr manbalariga qarab guruhlash mumkin. Keltirilgan so`zlar manba jihatidan qanchalik tor bo`lsa, fikr manbaga shunchalik uyg`unlashgan, voqelik ongimizda shunchalik chuqur aks etgan bo`ladi.

B. Eksperimentator har bir talabaga navbati bilan 10 tadan so`z aytib (kutubxona, kasb, sog`liq, avtomatlashtirish, tezlik, intensiv, differentsiatsiya kabi) har bir so`zni eshitishi bilan fikriga kelgan birinchi so`zni aytib javob qaytarishini talab qiladi.

Tajriba natijasining tahlili talabalarning soʻz qoʻzgʻotuvchisiga bergan javobining muvofiqligi, bilimdonligini umumlashtirish darajasi haqidagi ma'lumotni beradi.

A) oʻzbek tilidagi unli va undosh tovushlarning ma'no salmoqlari bir xil emasligini aniqlashga doir.

Eksperimentator doskaga undosh tovushlari tushirib qoldirilgan soʻzlarni yozadi.

Masalan: -e-i; o-o-o-; u-i-o; -e-u-n-a kabilar.

Talabalar tushirib qoldirilgan undosh tovushlar ishtirokida soʻzlar tuzishlari kerak. Shubhasiz talabalar berilgan soʻzlarni aniqlashga qiynaladilar.

Eksperimentatorlar, aynan, shu soʻzlarning unli tovushlari oʻrniga chiziqchalar chizib undosh tovushlari asosida beradi.

Masalan: s-m-l-t, -uzb-k-st-n, s-zg kabilar.

Tajriba natijasida talabalar oʻzbek tilida, rus tilida boʻlgani kabi, soʻz yasashida ma'no salmogʻi asosan undosh tovushlar orqali berilishini tushunib oladilar.

B) eksperimentator quyidagi soʻzlar ishtirokida kartochkalar taraqqatadi.

Masalan: yuz, oq, dam, chiroy, ot kabilar.

Talabalar berilgan soʻzlarning sinonimlarini (yuz, aft, jamol, bashara) va omonimlarini (yuz-son, yuz-ot kabi) topishlari lozim;

V) past, qattiq, katta, engiltaklik kabi soʻzlar ishtirokida tuzilgan kartochkalarga javob berilgan soʻzlarning anonimlarini topishlari kerak.

T O P S h I R I Q № 1

NUTQNING GRAMMATIK TUZILISHINI ANGLASHINI TEKSHIRISHGA DOIR

Berilgan gaplardagi soʻzlarning oʻzak morfemalari ma'nosi yashiringan boʻlib, faqat grammatik kategoriyalarigina berilgan. Tajriba talabalarning til bilimida grammatik kategoriyalar soʻz turkumlari differentsiatsiyasida indiatorlik darajasiga koʻtarishganmi degan savolga javob olish imkonini beradi.

Nuqtalar oʻrniga qaratqich yoki tushum kelishigi qoʻshimchalaridan mosini qoʻying.

Mard...ishi mehnat.

Ayrilgan...boʻri er.

Hayot...sevganlar, baxt...sevganlar, oʻdstlik qoʻshigʻini kuylashi
lozim.

Paxta Oʻzbekiston.. . iftixori.

Odam . . . qo`li cho`l . . . bo`ston qiladi.
 Ekin . . . erta ekkan, hosil . . . erta o`radi.
 Tekin . . . minnati ko`p, mehnat . . . ziynati.
 Gap . . . oz so`zla, ish . . . ko`p ko`zla.
 Mehnat, mehnat . . . tagi rohat.
 Oshni ta'mi tuz bilan odam . . . ta'mi so`z bilan.

T O P Sh I R I Q № 2
TALABALAR SO`Z BOYILIGINING FAOLLIK DARAJASINI
ANIQLASH.

Zarur material. Sinaluvchining 300 so`zdan kam bo`lmagan nutq namunasi. Bunda sinaluvchining muayyan tema yuzasidan yozgan inshosi, rasm yoki kinofilmga yozgan taqrizi namuna sifatida foydalanilishi mumkin.

Topshiriqning bajarilishi. Eksperimentator, barcha sinaluvchilarga muayyan bir temada insho yoki muayyan bir rasm, yoki bo`lmasa, kinofilmga taqriz yozishni buyuradi. Vaqtni tejash maqsadida talabalarning avvalgi yozgan inshosi yoki boshqa ish qog`ozlaridan foydalanish mumkin. So`ngra tekstdagi so`zlar quyidagicha tahlil qilinadi:

Nutq namunasidagi so`zlarning umumiy soni

Tekstda faqat bir martagina qo`llanilgan so`zlarning soni

Nutq namunasining birinchi yuzligi, ikkinchi yuzligi va uchinchi yuzligida uchragan so`zlarning soni.

Tajriba natijalarini jadvalda quyidagicha ifodalash
mumkin.

Sinaluvchining ismi, familiyasi	Nutq namunasining turi va soni	So`zlarning umumiy soni	Turli so`zlarning soni			Faqat bir martagina qo`llanilgan so`zlarning soni	Sinaluv chining tutgan o`rni
			1	2	3		

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

A D A B I Y O T L A R

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 181-190-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 229-250 betlar.
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 141-150 betlar;
4. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 165-bet.
5. Mamadjonov B. «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar» «O`qituvchi» Toshkent-1978 yil,

21-Mavzu: Psixologik ta'limotlarning shakllanishi va tarixiy bosqichlari

Psixologiya jon (ruh) haqidagi fan sifatida (Fales, Anansimon, Geraklit, Demokrit, Epikur, Aflotun, Arastu va boshqalar), klassik psixologiya (Aristoteldan keyingi) XIII-XVII empirik psixika (F. Bekon, T.Gobbs, R.Dekard, J.Lok va boshqalar), XIX-XX asrda psixologiya taraqqiyoti, assotsiativ psixologiya, eksperimental psixologiya, genetik va boshqalar. R.Dekart (1596-1650) refleks haqidagi ilk g`oyalari, Refleksologiya, V.Vundt psixologiya maktabi (1880), Bixeviorizm, neobixeviorizm, freydizm, neofreydizm, psixika tirik mavjudotlar tomonidan sub'ektiv reallikni aks ettirish shakli sifatidagi g`oyalar haqida mukammal tadrijiy o`rganiladi. Ilmiy, entsiklopedik ma'lumotlar to`planadi,tizimli va izchil tahliliy bayon etiladi.Psixologiya predmetiga yangicha yondoshuv haqidagi talqinlarni ham imkon darajasida adabiyotlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 4-25-bet;
2. Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 5-49bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 5-90 betlar;
4. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 165-bet.
5. K.K.Platonov. T.T.Golubev. Psixologiya. Toshkent, O`qituvchi, 1982 yil.
6. D.N.Gonobolin. Psixologiya. Toshkent. O`qituvchi. 1976 .

22-Mavzu: ShAXSNING PSIXOLOGIK QIYOFASINI ANIQLASH.

Talaba individ, shaxs, individuallik va ularning o`zaro bog`lanishlari haqida, shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyoj va uning turlari haqida, qiziqish va e'tiqodlar, shaxsning tarkib topishi va xarakatlantiruvchi kuchlari, shaxsning kamolotida biologik va ijtimoiy komponentlarning roli, shaxsiy sifatlar haqida adabiyotlardan o`qib o`rganib, nazariy qism tayyorlaydi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P S h I R I Q

PSIXOGEOMETRIK TEST

(ENI MAXONI)

Tajriba maqsadi: Eni Maxoni psixogeometrik testi bilan tanishish, sinaluvchining individual tipologik xususiyatlarini tajriba asosida o`rganib, xarakteristika berish.

Tajriba materiali: 3 dona 10x10 sm hajmdagi qog`oz varag`i nomerlanadi va sinaluvchiga qalam bilan beriladi.

**Sinaluvchiga ko`rsatma:** «Siz tarkibida uchburchak, aylana, to`rtburchak shakllari qatnashgan jami 10 elementdan tashkil topgan odam rasmini chizing! Siz bu elementlarning hajmini (razmeri) kichraytirish yoki kattalashtirishingiz zarur bo`lganda birini ikkinchisining ustiga joylashtirishingiz mumkin. Har uchala shakl tasvirda ishtirok etishi shart! Foydalanilgan shakllarning umumiy soni 10 tadan oshmasligi lozim. Agar rasm chizish jarayonida shakllar soni ortib ketgan bo`lsa o`chiring, kam bo`lsa to`ldiring. Rasmni ko`rsatma asosida bajaring!»

AQSh ning San-Fransisko shahrida yashab faoliyat ko`rsatgan grafalog olim (yozuvchilarni o`rganuvchi) Eni Maxoni tomonidan shaxsning tipologik xususiyatlarini aniqlashda yangicha metodika, ya'ni "inson qiyofasini geometrik shakllardan yig`ish" testi yaratildi. Ko`p sonli tadqiqotlar asosida metodika ma'lum muvaffaqiyatlarga erishdi. Hozirgi kunda mutaxassislar tomonidan keng qo`llanilmoqda.

Test natijalari asosida sinaluvchining individual tipini aniqlash orqali ular shaxsining o`ziga xosligi qobiliyatlarining qaysi yo`nalishga mos kelishini aniqlash mumkin. Bunda sinaluvchi 3 ta geometrik shakl (kvadrat, uchburchak, aylana) dan foydalanib odam qiyofasini yaratadi, shu tufayli chizilgan rasm asosida sinaluvchining yaratuvchanlik qobiliyati, didi va farosati ham namoyon bo`ladi.

Eni Maxoni bo`yicha geometrik shakllar quytdagicha xarakterlanadi:

Aylana-hissiyotga beriluvchi, aqlli, muloqatga kirishuvchan, ko`ngli ochiq, samimiylilik belgisi, ya'ni bu shakl ko`proq foydalangan kishilar bo`lib, ko`pincha yuqoridagi hislatlarga ega bo`lishadi.

Kvadrat-har qanday ishga mas'uliyat bilan qarovchi, aqlli, ba'zan dono, ayniqsa texnika sohasida ijodkor, har bir faoliyatda doimiy manbaga ega bo`lishini yoktiradigan, o`zini yuqori darajada nazorat qilishga va o`z nuqtai nazariga ega bo`lgan kishilardirlar.

Uchburchak-qat'iyatli, talabchan, o`jar, ko`proq o`z manfaatlarini o`ylaydilar. Rahbarlik qobiliyatiga ega bo`lib, asosan hukmron, gegemon bo`lishga intiladilar, ba'zan bu yo`lda hech narsadan tap tortmaydilar.

Tajriba sinaluvchiga beriladigan ko`rsatma asosida olib boriladi va olingan natijalar (rasm)ni qayta ishlash quyidagicha amalga oshiriladi:

1). Har bir nomerlangan varaqdagi rasmlarda ishlatilgan geometrik shakllar soni alohida-alohida sanab chiqiladi.

Masalan: aylana-3 ta, kvadrat-4 ta, usburchak-3 ta va hokazo. Shu asosda natija sifatida 3 xil mazmundagi sonlar yuzaga keladi. Ya'ni sinaluvchi ishlatgan uchburchaklar soni yuzlik, aylana o'nlik, kvadrat birlik sonni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan misolni quyidagicha ifodalash mumkin: «3-34». Paydo bo'lgan 100 (yuz) lik raqam sinaluvchi chizgan rasmning formulasi hisoblanadi. Rasm formulalari jadvalda keltirilgan

Tadqiqotchi Eni Maxoni 2000 dan ortiq rasmlar ustida olib borgan tajriba natijalari tahliliga asoslanib, 8 (sakkiz) ta individual tipga asos soldi. Eni Maxoni metodikasi Lyusher rangli testi, Ayzenk metodikasi, Rusalov testlariga teng ravishda baholash mumkin bo'lgan qiziqarli va mahsuldor testlardan biri hisoblanadi.

I-toifa (tip)-odamlar "rahbar" tip bo'lib bunday odamlar tashkiliy faoliyatga, rahbarlikka oid ishlarga ko'proq moyil bo'lishadi. Jamiyatda kishilarga yoqadigan hулq atvorga ega bo'lish bilan birga yaxshigina notiq, ajoyib suhbatdosh, boshqalarni o'ziga rom eta oladi, jamiyatda o'z adaptatsiyasiga ega kishilardir.

Bu tipning formulasi: 901, 910, 802, 811, 703, 712, 730, 604, 622, 631, 640.

Boshqalarga nisbatan hukmronlik qilishga intiluvchan qattiq qo'l toifadagi podtiplar: 901, 910, 802, 811, 820. Vaziyatga qaraydigan (situativ) toifadagilar: 703, 712, 721, 730 kishilarga nutq orqali ta'sir eta oluvchilar yoki verbal rahbar, ta'lim beruvchi podtiplar: 604, 613, 622, 631, 640.

II- toifa (tip) kishilar mas'uliyatli, javobgar boshliq toifasidan bo'lib, o'zida "rahbar" toifaning ko'pgina hislatlarini namoyon etadi. Bu toifa odamlar ishni aql bilan bajaruvchi professional, lekin ba'zida ma'suliyatli qarorlar chiqarishda ikkilanib qoladigan kishilar, shunda ularga ozgina dalda berilishiga extiyoj sezadilar. O'z-o'zlariga talabchan rostgo'ylikni yuqori baholaydiganlar, ko'pincha asab kasalliklarga moyil bo'lishadi ya'ni ko'p asabiylashishlari bunga sabab bo'ladi. Bu tip formulasi: 505, 514, 523, 532, 541, 550.

III-toifa (tip) kishilari-hissiyotga beriluvchan, emotsional toifadagilar, turli qobiliyatlarga ega bo'lishadi: kichik qo'l mehnatidan tortib toki badiiy ijodgacha bo'lgan bosqichlarda o'z bilimlarini namoyon etishadi. Bu toifa kishilar ko'pincha birgina soha doirasida qolib ketmasdan kutilmaganda butunlay avvalgisiga teskari faoliyat yoki mutaxassislikka o'tib ketishlari mumkin, hatto 2 ta mutaxassislikda ham ish yurita olishadi. Jismonan iflosgarchilikni va tartibsizlikni yoqtirmaydi va shu sababli ko'pincha boshqalar bilan qarama qarshiliklarga borishadi. Tez-tez hafa bo'lib turadi, o'zlariga uncha ishonmaydilar. Engil daldaga muhtoj bo'lishadi.

Rasmlar formulasi: 406, 415, 424, 433, 442, 451, 460. Bundan tashqari 415-shoir tabiat kishilardir. Bunday kishilarda badiylikka, shoirlikka moyillik bo'ladi. 424-esa quyidagicha ma'noda bo'lishadi ya'ni biron ish faoliyat doirasida "Buni qanday yomon bajarishni tasavvur ham qilolmayman".

Bu toifa odamlar o'z ish faoliyatlarida bir zayildaliklari, muhimligi bilan ajralib turadilar. Yana shuni ham qo'shimcha qilish zarurki, tashxis qo'yilishning ishonchsizligiga qaramay, ushbu metodika muloqot jarayoni psixolog maslahatchi uchun juda ko'p ajoyib yordam berish mumkin.

IV-toifa (tip) «Olim» muammoli vaziyatlarda engil mushohada yurita oladi. Nazariy tafakkurga ega. Aniq shaxsiy va ilmiy yo`nalishga egaligi bilan ajralib turadi. Ruhan barqaror. O`z harakatlarini aql bilan bajaradi. Rasm formulalari: 307, 316, 325, 334, 343, 352, 361, 370, 316-podtip. Olamshumul nazariyalar yaratish yoki katta va og`ir koordinatsion ishlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega.

V-toifa (tip)-«intutiv»-«fahm farosatli». Bu toifadagi kishilar asab tizimi kuchli, sezgir va yuqori darajada charchash xususiyatiga ega. Bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga oson ko`cha oladi. Yangi imkoniyatlar asosida harakat qiladi. Yangilikka nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik hissiyotga beriluvchan, ko`pincha boshqalar haqida qayg`uradi. Xulq normalarini o`zlari ishlab chiqadilar, ichki o`z-o`zini nazorat qilish xususiyatiga ega, o`zini nazorat qilishni afzal ko`radi. Erkinliklari va faoliyatlaridagi to`siqlarga salbiy munosabat bildiradi. Formula: 208, 217, 226, 235, 244, 253, 262, 271, 280.

VI-toifa (tip)-«yaratuvchi, konstruktor xudojnik». Bunday kishilar boy fantaziyaga, fazoviy orientir olishga ega. Ko`pincha turli texnik, badiiy va intellektual ijod bilan shug`ullanadi. Ko`pincha og`ir-bosiq, ammo ichki olami boy. Intutiv tip kabi o`zining ahloq normasiga ega, o`zini nazorat qilishdan boshqa hech qanday ta'sirlarni qabul qilmaydi. Emotsional, shaxsiy original g`oyalar egasi. Formulasi: 109, 118, 127, 136, 145, 019, 028, 037, 046.

VII-toifa (tip)-«emotiv» tip. Boshqa kishilarga nisbatan yuqori darajadagi qayg`urish. Filmlardagi «shafqatsiz kadrlar» va shafqatsiz voqealardan qattiq ta'sirlanadi. Boshqalardagi tashvish va og`riqlar unga bevosita ta'sir qilib, ular dardiga sherik bo`lish, hamdardlik uchun juda ko`p energiya (quvvat) sarflaydi. Shu tufayli shaxsiy qobiliyatlarini ro`yobga chiqarishlari qiyin. Formulasi: 550, 541, 460, 352, 361, 370, 253, 262, 271, 280, 154, 163, 172, 181, 190, 055, 064, 073, 082, 091.

VIII-toifa (tip)-«emotiv aksi». Boshqa kishilar tashvishini ko`pincha his qilmaydi, yoki e'tibor bermaydi, hatto kishilarga o`zining davleniyasini o`tkazishga harakat qiladi. Agar u yaxshi mutaxassis bo`lsa o`zi kerak deb hisoblagan ishni boshqalarni ham bajarishga majburlaydi. Ko`pincha ularga toshbag`irlik, rahmsizlik xos bo`lib, ko`pincha bu holat shaxsning o`z muammolariga ko`milgan vaziyatlara sodir bo`ladi. Formulasi: 901, 802, 703, 604, 505, 406, 307, 208, 109.

Individual-toifaviy xarakterni e'lon etishdan avval tasvir shaklning tuzilish jihatlarini quyidagi asosda savol-javob tariqasida aniqlanish mumkin.

-bo`yin qismini ko`rinarli qilib chizish-"siz g`amxo`r" ta'sirlanuvchanmisiz? Sizni tez-tez xafa qilib turishadimi?

-quloqlar chizilishi-sizni tinglashni biladigan odam deyish mumkinmi?

-odamga tanasining biron qismida cho`ntakcha tasvirlanishi "Bolalaringiz bormi?"

-rasmda odamning boshida kvadrat yoki uchburchak shaklidagi "shlyapa"ning tasvirlanishi, ko`rinishdan kerakli ishni qilib qo`ygan ko`rinasiz?

-yuz qismlarning (og`iz, burun, ko`z, hammasi) to`liq chizilishi, «siz o`zingizni muloqatga kirish» (o`ychan) deb o`ylaysizmi?

-faqat og`izning tasvirlanishi "siz suhbatlashishni yoqtirasizmi?"

-faqat burun tasvirlanishisiz (suxbatlashishni) hidlarni tez sezasizmi? Atir, duxini yoqtirasizmi?

-odam rasmi uning tanasida tasvirlanishi hozirgi paytda o`zingizdan katta yaqinlaringiz to`g`risida g`amxo`rlik qilayapsizmi?

-odamchanning biron erida uchburchakning tasvirlanishi-kimgadir yo'llanma berish g`amxo`rligingiz doirasiga kiradi?

Demak, ushbu shakldagi muloqat jarayonda psixolog sinaluvchi bilan o`zaro ishonchli muloqat o`rnatish mumkin. Shuni ham aytib o`tishim kerakki, chizilayotgan rasmlarda yuqoridagi sifatlarning namoyon bo`lishi yuqori darajada faxm farosat, psixik e'tibor va saviya talab etadii. Ya'ni pats faxm farosatga ega kishilarda hech qanday ularning kasbiy faoliyatlari xususida ma'lumot ololmasligi mumkin

**Izoh: 50 nafar sinaluvchida o`tkazilishi
zarur.**

ADABIYOTLAR

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 82-165-betlar;
2. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 206-245 betlar;
3. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 117-135-bet.
4. E.G`oziev. Psixologiya. Toshkent. O`qituvchi, 1994y

23-Mavzu: OILA VA JAMOADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI

Talaba shaxslararo munosabatning ijtimoiy psixologik muammolari, jamiyatda shaxslararo munosabatlar, uyushgan jamoatchilik, shaxslararo munosabatlar, uyushgan jamoatchilik shaxslararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar, jamoada shaxslararo munosabatlarning istiqbollari, oila, oiladagi shaxslararo munosabatlar haqida adabiyotlardan foydalanib nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

S. ROZENTSVERGNING RASMLI FRUSTRATION TESTI

Tajriba maqsadi: Rozentsverg frustation testi bilan tanishish, shaxsning shaxslararo munosabatlarda tutadigan pozitsiyasini aniqlash.

Tajriba materiali: 24 ta turli frustation vaziyatlar keltirilgan sur'atli kartochkalar javob varaqasi, qalam.

**Sinaluvchiga ko`rsatma:** Sizga 24 ta rasm havola etilad, unda 2 yoki undan ortiq kishi tugallangan suhbat bilan mashg`ul. Rasmning chap tomonida tasvirlangan kishi har doim qandaydir gapni gapirayotgan holatda tasvirlangan. Siz javob varaqasidagi rasmga

mos kelgan raqam yoniga bu gaplarga javoban birinchi bo'lib miyangizga kelgan fikrni yozing. Hazilga yo'yishga harakat qilmang. Imkon darajada tezroq harakat qiling.

Tajriba natijalari tahlili: tajriba qat'iy tartibda ko'rsatma asosida olib boriladi. Natijalar esa quyidagicha tahlil qilinadi. Sinaluvchining har bir javobi 2 kriteriy asosida baholanadi.

Reaksiya yo'nalishi

Reaksiya tipi

Reaksiya yo'nalishiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

1. Ekstropunitiv reaksiya (frustratsion vaziyatni hal qilishni boshqa kishiga yuklash vaziyatni keltirib chiqargan tashqi sabablar atrofidagi jonli va jonsiz predmetlarga yo'nalganligi).

2.Intropunitiv reaksiya. (sub'ekt tomonidan o'ziga qaratilgan sinaluvchi frustratsion vaziyatni o'zi uchun o'ng'ay deb qabul qiladi) ayni o'z bo'yniga oladi yoki bunday vaziyatni tuzatish, ma'suliyatni zimlasiga oladi.

3.Impunitiv reaksiya. (frustratsion vaziyat hech kimning aybi yo'q, hechqisi yo'q, barchasi o'zi hal bo'ladigan faqat kutish va o'ylash zarur) kabi.

Shuningdek, reaksiyalar tipi bo'yicha 3 ga ajraladi.

1. To'siq qayd etilgan reaksiya tipi sinaluvchining javoblarida vaziyatning kelib chiqqan to'siq emas, balki o'ziga xos qulaylik beruvchi jiddiy ahamiyatga ega emas deb ta'kidlaydi.

2. O'z-o'zini himoya qilish qayd etgan reaksiya tipi (sinaluvchining javoblarida o'zining «men» himoyasida asosiy o'rinni egallaydi va sub'ektiv yoki kimnidir qoralaydi. O'z aybini tan oladi yoki bu frustratsion vaziyat uchun javobgarlik hech kimning zimmasiga yuklatilmasligini ta'kidlaydi.

3. «Ehtiyojlarini qondirish» qayd etilgan reaksiya tipi. Sinaluvchi javoblari muammolarni hal qilishga qaratilgan reaksiya vaziyatning echimini topishga boshqalardan yordam so'rash shaklini oladi yoki sub'ekt muammoni echimini topishga o'zi kirishadi yoki vaqt va voqealar kechishi uning tuzilishiga olib keladi deb hisoblanadi.

Yuqoridagi 6 ta kategoriyaning aralashmasi asosida 9 ta ehtimolli faktor va 2 ta to'ldiruvchi variant hosil bo'ladi.

Reaksiya tiplari quyidagi simvollar bilan belgilanadi.

O.D-to'siq qayd etgan reaksiya tipi

E.D-o'z-o'zini himoyalash

M.R-ehtiyojlarni qondirish

1. Javoblarda to'siq g'oyasi ustunlik qilganligini belgilash uchun E.I.M belgisi qo'yiladi.

2. O'zini himoyalash reaksiya tipi ustunligi yozma katta harflarda ko'rsatiladi E.I.M

3. Ehtiyojlarni qondirish reaksiya tipi esa kichik yozma harflar bilan ko'rsatiladi e.i.m.

bunda quyidagicha sifatda maxsus tablitsa mavjud bo'lib, unda sinaluvchilarning javoblarida baholash mezonini ko'rsatilgan. Baholar esa keyingi tahlil uchun qayd etish varaqasiga kiritiladi. U shaxsning «IMD»ni aniqlash imkonini beradi. Bu ko'rsatkich konkret sinaluvchining javoblarini «standart» o'rtacha statistik ko'rsatkichlar bilan solishtirish yo'li orqali o'lchanadi. Solishtirish uchun quyidagi vaziyatlar 14 tani tashkil etadi. Ularning mazmuni maxsus tablitsada keltirilgan. Sinaluvchining javobi standart javobga mos kelsa protokol varag'ining chap tomoniga Q belgisi qo'yiladi va 1 ball beriladi.

Sinaluvchining 2 tipi javob bergan va ulardan biri standart javobga mos kelgan holatda ham «Q» belgisi qo'yiladi va 5 ball bilan belgilanadi.

Agar sinaluvchi javobi standart javobga mos kelmasa «-» qo'yiladi va ball berilmaydi.

Keyin esa 100% ga qabul qilgan 14 vaziyatdan kelib chiqadi va sinaluvchining IMD% li ko'rsatkichi o'lchanadi. IMD ning miqdor ko'rsatkichi sub'ektning o'z ijtimoiy muhitga individual moslashuvini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Sinaluvchi To'raev Bahrom

Sinaluvchining javoblari

1. (Yo`q). Hech qisi yo`q
2. (Yo`q boraman). Kechirasiz boshqa yangisini olib beraman
3. Farqi nima
4. Hech qisi yo`q, bir amallayman
5. Keyin yana sozlab beraman.
6. Mayli, 2 tasini bering
7. Yo`q
8. Yo`q boraman
9. Kutib turaman
10. Tuhmat qilmang
11. Hechqisi yo`q
12. Men ham uning shlyapasini kiyib ketaman

13. Kelishgandikku, nega!!!
14. Yana kutaylik-chi!!!
15. Kelganda yaxshi bo`lardi
16. Men shoshayotgan edim
17. Sen ham yo`qotgan edingku
18. Boshqa joydan olarman
19. Bilmay, shoshib qolibman
20. Boshqa safar qatnasharmiz
21. Uni borib ko`rishim kerak
22. Hechqisi yo`q
23. Mayli kutamiz
24. Bo`lib turadi.

№	OD	ED	NP	Natijalar tahlili	Sifat tahlil

Natijalar tahlili

Jadval bo`yicha foiz hisobi OD bo`yicha 80% ni tashkil etadi.

Sinaluvchining:

Reaksiya yo`nalishi-Impunitiv reaksiya tipi-to`siq qayd etilgan reaksiya tipi

Sifat tahlil

Sinaluvchining javoblarida vaziyatdan kelib chiqqan to`siq emas, balki o`ziga xos qulaylik beruvchi jiddiy ahamiyatga ega emas, deb ta`kidlaydi. Turli xil vaziyatlarda hech kimning aybi yo`q «hechqisi yo`q» barchasi o`zi hal bo`ladigan, hammasini faqat kutish va o`ylash zarur deb hisoblaydi. Bunday insonlar ijtimoiy hayotga tezda moslashadi va o`z-o`zini topadi.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

A D A B I Y O T L A R

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 88-165-betlar;
2. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 171-177-bet.

3. Sh.G`.Shoumarov. Oila psixologiyasi. Toshkent, O`qituvchi, 2002 yil
4. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg`ulotlar» «O`qituvchi» Toshkent-1978 yil, 19-22-bet;

24-Mavzu: ShAXS XUSUSIYaTLARI VA RUHIY HOLATLARINI O`RGANISH

Talaba shaxs, shaxs xususiyatlari, shaxsning individual psixologik xususiyatlari, shaxs qat'iyatligi va ustanovkalari, shaxs o`z-o`zini anglashi, shaxsning munosabatlar tizimi, shaxs yo`nalishini belgilovchi barqaror motivlar, o`z-o`ziniga baho berish mexanizmlari, shaxs faolligining psixologik muammolari, shaxs faolligining psixologik mohiyati haqida adabiyotlardan o`qib o`rganib, ilmiy manbalar asosida nazariy qism tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q **O`Z-O`ZINI BAHOLASH ShKALASI** **(Ch.D.SPILBERGER, Yu.L.XANIN)**

Amerikalik psixolog Ch.D.Spilberger tomonidan ishlab chiqilgan va Yu.L Xanin tomonidan moslashtirilgan shaxsning o`z-o`zini baholash shkalasi ayni vaqtdagi havotirlanish darajasi va xususiyatlari haqida ishonchli ma'lumot bera oladi.

Shaxs xavotirlanish xususiyati turli bunday vaziyatlarga xavotirlanish holati bilan moslashishni xarakterlaydi. Kuchli reaktiv xavotirlanish (RX) zo`riqish, bezovtalanish, nevroz holatlari sifatida qarashadi. Kuchli reaktiv xavotirlanish diqqatning buzilishi ba'zan nozik boshqaruvning buzilishini keltirib chiqaradi.

Yuqori shaxsiy xavotirlanish (ShX)-asab buzilishi, emotsional va nevrotik buzilishlar va psixosomatik kasalliklar bilan mutanosiblikni xarakterlaydi.

Ammo xavotirlanish hissiy har doim ham negativ (salbiy) xususiyat hisoblanavermaydi. Xavotirlanishning belgilangan darajasi shaxsning tabiiy va zaruriy xususiyati hisoblanadi. Buning uchun foydali havotirlanish" qulay individual darajasi mavjud. O`z-o`zini baholash shkalasi 2-qismdan iborat bo`lib, birinchi qism (reaktiv xavotirlanish rx-1-20), ikkinchi qism (shaxsiy xavotirlanish 21-40) lardan tuzilgan.

Familiya_____ vaqti_____

**Ko`rsatma:**Quyida keltirilgan gaplarni diqqat bilan o`qing va o`ng tomondagi tegishli sonni ayni vaqtda o`zingizni qanday his qilayotganligingiz bilan mos ravishda aylana bilan belgilang. Savollar ustida uzoq o`ylanmang, chunki to`g`ri yoki noto`g`ri javob mavjud emas.

1-yo`q unday emas 2-bo`lishi mumkin 3-to`g`ri 4-juda to`g`ri

- 1.Men xotirjamman -----1,2,3,4
- 2.Menga hech narsa xavf solmaydi-----1,2,3,4
- 3.Men xavotirdaman-----1,2,3,4
- 4.Men afsusdaman-----1,2,3,4
- 5.O`zimni erkin his qilmoqdaman-----1,2,3,4
6. Mening jahlim chiqqan-----1,2,3,4
- 7.Meni kutilayotgan muvaffaqiyatsizlik bezovta qilmoqda-1,2,3,4
- 8.O`zimni dam olgandek his qilaman-----1,2,3,4
- 9.Men shoshilayapman-----1,2,3,4
- 10.Men ichki qoniqishni his qilayapman-----1,2,3,4
- 11.Men o`zimga ishonaman-----1,2,3,4
- 12.Men asabiylashayapman-----1,2,3,4
- 13.Men o`zimni qo`yarga joy topolmayapman-----1,2,3,4
- 14.Men aybdorman-----1,2,3,4
- 15.Men siqilish va zihnalikni his qilayapman-----1,2,3,4
16. МЕН МАМНУЙМАН-----1,2,3,4
- 17.Men tashvishlanayapman-----1,2,3,4
- 18.Men haddan tashqari hayajondaman va o`z harakatlarimga javob bera olmayman-----
-----1,2,3,4
- 19.Men xursandman-----1,2,3,4
- 20.Kayfiyatim baland-----1,2,3,4

Javob varaqasi №2 (ShX)

Familiya_____ **Sana**_____

Sinaluvchiga ko`rsatma “Diqqat bilan quyida keltirilgan har bir gapni o`qing va o`ng tomondagi sonlarni ... ko`pincha, o`zingizni qanday his qilishingizga asoslanib

o`chiring. To`g`ri yoki noto`g`ri javob bo`lmaganligi tufayli savolar ustida uzoq bosh qotirmang.

1-hech qachon 2-ba'zan 3-ko`pincha 4-har doim
--

21. Men qiziqishni his qilaman-----1,2,3,4
22. Men juda tez toliqaman-----1,2,3,4
23. Men osonlikcha yig`lay olaman-----1,2,3,4
24. Men xuddi boshqalardek baxtli bo`lishni istar edim--1,2,3,4
25. Haddan tashqari tez xulosa chiqarishim tufayli tez yutqazaman-----
----- -1,2,3,4
26. Men har doim o`zimni tetik his qilaman-----1,2,3,4
27. Men hotirjam, sovuqqon va yopiqman-----1,2,3,4
28. Kutilayotgan qiyinchiliklar ko`pincha tashvish keltiradi-1,2,3,4
29. Arzimagan narsalarga haddan tashqari qayg`uraman----1,2,3,4
30. Men butkul baxtliman-----1,2,3,4
31. Hama narsani yuragimga juda yaqin olaman-----1,2,3,4
32. Menda o`zimga ishonch etmaydi-----1,2,3,4
33. Ko`pincha o`zimni bexavotir his qilaman-----1,2,3,4
34. Men havfli vaziyat va qiyinchiliklardan qochaman----1,2,3,4
35. Maqsadga erisholmaganligim tufayli bezovtaman----1,2,3,4
36. Men juda baxtsizman-----1,2,3,4
37. Bo`lmag`ur hodisalar meni chalg`itadi va tashvishga soladi-1,2,3,4
38. O`z qilmishlarim uchun haddan tashqari siqilaman va uzoq vaqt unutilmayman---
-----1,2,3,4
39. Men bosiq odamman-----1,2,3,4
40. O`z ishim va tashvishlarimni o`ylaganimda mening tinchim yo`qoladi-----
-----1,2,3,4

RX va ShX ko`rsatkichlari quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$px = \sum_1 - \sum_2 + 35$$

$\sum_1 - 3, 4, 6, 7, 9, 12, 13, 14, 17, 18$ punktlarda o`chirilgan sonlar yig`indisi:

$\sum_2 -$ olgan punktlar bo`yicha o`chirilgan sonlar (1, 2, 5, 8, 10, 11, 15, 16, 19, 20) yig`indisidan iborat.

$$ShX = \sum_1 - \sum_2 + 35$$

Bu erda $\sum_1 - 22, 23, 24, 25, 28, 29, 31, 32, 34, 35, 37, 38, 40$ chi punktlardagi, o`chirilgan sonlar yig`indisi;

$\sum_2 -$ olgan punktlar (21, 26, 27, 30, 33, 36, 39) o`chirilgan sonlar yig`indisidan iborat.

Tajriba natijalarini tahlil qilishda formuladan olingan sonlarni quyidagicha baholanadi:

30 ballgacha-xavotirlanish darajasi past;

31-45 o`rtcha xavotirlanish;

40 va undan yuqori darajasidagi xavotirlanish o`rtacha xavotirlanishdan katta farqning mavjudligi alohida diqqat talab qiladi. Haddan tashqari yuqori xavotirlanish shaxsiy muammolarni hal qilishda, baholashda xavotirlanish ko`rsatishga moyillik mavjud bo`ladi. Bunday holatda muammoning, vaziyatning sub'ektiv ahamiyatini kamaytirish va e'tiborni, faoliyatni anglash va muvaffaqiyatga ishonch hissini shakllantirishga qaratish lozim.

-havotirlanish darajasining pastligi aksincha faoliyat motiviga diqqatni qaratish va javobgarlik hissini ko`tarishni talab qiladi. Ba'zan esa past darajadagi xavotirlanish, test ko`rsatkichlariga ko`ra shaxsning faol ravishda yuqori xavotirlanish darajasini yashirish, o`zini "a'lo darajada" ko`rsatishga intilish natijasi bo`lishi mumkin.

Ushbu shkaladn o`z-o`zini boshqarish maqsadida, rahbarlik qilish maqsadida va psixokorreksion faoliyatda foydalanish mumkin.

Shaxs havotirlanish holati dinamikasini (o`zgarishini) masalan, autotrening mashg`ulotlarigacha va autotrening kursidan keyin) aniqlash uchun testning har ikkala variantidan foydalanish mumkin.

1. Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur
- 2.
3. A D A B I Yo T L A R
- 4.
5. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 3-43-betlar, 2-tom;
6. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 357-400-betlar;
7. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 206-245 betlar;
8. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 117-135-betlar,
9. Q.Daminov, O`. Otavalin, X.Ibrohimov «Psixologiyadan seminar va laboratoriya mashg`ulotlari»-Toshkent, «O`qituvchi»-1994, 47-49 betlar.

25-Mavzu: Faoliyatning asosiy turlari va uning etakchilik muammolari

Faoliyatning shakllantirilishi, o`yin faoliyati va unga qo`yilgan talablar, o`yin haqida D.B.Elkonin tajribalari, o`quv faoliyati va unga qo`yilgan talablar, ta`lim va ongli maqsad munosibligi, mehnat faoliyati D.I.Feldshteyn, E.Farolonova tajribalari, etakchi faoliyat muammosi, faoliyatning maqsadlari, faoliyat va faollik haqida ilg`or psixologiya vakillarining ilmiy qarashlari, faoliyat va shaxs taraqqiyoti muammosi, haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganib, ilmiy manbalar asosida kurs ishi tayyorlanadi.

Adabiyotlar:

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 62-80-bet;
- 2.Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 103-140 betlar;
- 3.E.G`oziev. Psixologiya. Toshkent, 1994 yil;
- 4.M.D.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. 87-98 bet. Toshkent, 2004.

26-Mavzu: Muammoli vaziyatda tafakkur

Tafakkurning individual xususiyatlari, bilish faoliyatining mustaqilligi, epchilik, fikrning tezligi, tafakkur rezervlari, tafakkur va nutqning individual farqlari, tafakkur faoliyat sifatida, bolalar intellektini o`rganish bo`yicha L.S.Vigotskiy, A.Vallon, J.Pifis, A.Galperin tadqiqotlari, tafakkur va ta`lim, intellektual testlar va ularning istiqbollari, tafakkur va temperament haqida adabiyotlardan foydalanib nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq:

1.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 134-180-betlar;
- 2.Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 186-228-betlar
- 3.Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 353-375 betlar;
- 4.V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 106-115-betlar,
- 5.E.G`oziev. Intellekt psixologiyasi. Toshkent, universitet, 1996;
- 6.Sh.R.Baratov. Psixologiyadan masalalar to`plami. Buxoro-1992y;
- 7.E.G`oziev. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. O`qituvchi, 1990 yil.

27-Mavzu: ShAXS IRODASINI O`RGANISH

Talaba iroda to`g`risidagi tushunchalar, iroda aktining tuzilishi, iroda nazariyasi va tadqiqoti to`g`risida, iroda faoliyat va to`g`risida, iroda faoliyat va shaxs faolligi, iroda va o`z-o`zini nazorat qilish, iroda va shaxs ehtiyojlarining qondirilishi, iroda nuqsonlari, iroda va tavakkalchilik, irodani ilmiy jihatdan o`rganish haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganadi. Ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

ShAXSNING IRODASINI O`RGANISH

TESTI

Ushbu ruhiy holatni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan testdan foydalanish mumkin. Tavsiya qilinayotgan fikrlarga shaxs «Ha» yoki «Yo`q» degan javob qaytarish kerak.

- 1.Hayotdagi muvaffaqiyat tasodiflarga ko`ra oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko`proq bog`liq bo`ladi deb o`ylayman.
- 2.Agar o`zimning sevimli mashg`ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo`qoladi.
- 3.Men uchun har qanday ishning oqibati, natijasidan ko`ra, uning bajarilish jarayoni muhim.

4. Men odamlarning o'z yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlarining yaxshi emasligidan ko'ra, ishdagi muvaffaqiyatsizlikdan ko'proq qayg'uradilar deb hisoblayman.
5. Mening fikrimcha, ko'pchilik odamlar yaqin kelajakka mo'ljallangan maqsad bilan emas, balki uzoqqa mo'ljallangan maqsad bilan yashaydilar.
6. Agar imkoniyat bo'lsa-da, lekin hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo'lsa ham nojo'ya harakat qila olmayman.
7. Mening hayotimda muvaffaqiyatsizliklardan ko'ra muvaffaqiyatli kunlar ko'p bo'lgan.
8. Menga amaliy, ishchan, ishbilarmon odamlardan ko'ra his-tuyg'uli, ko'ngilchan inson ko'proq yoqadi.
9. Hatto oddiy ishda ham men uning ba'zi elementlarini takomillashtirishga harakat qilaman.
10. Muvaffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketgan vaqtlarimda ehtiyotkorlik choralarini unutib qo'yishim mumkin.
11. Yoshligimda ota-onam meni dangasa deb hisoblar edi.
12. Men o'zimning muvaffaqiyatsizliklarimga sharoit emas, balki ko'proq o'zimni aybdor deb hisoblayman.
13. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.
14. Menda qobiliyatga nisbatan sabr-toqat kuchli.
15. O'z maqsadlarimdan qaytishga muvaffaqiyatga erisha olmasligim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo'ladi.
16. Men o'zimni o'zimga ishongan odamman deb hisoblayman.
17. Muvaffaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening foydamga bo'lmasa ham tavakkal qilishim mumkin.
18. Men tirishqoq odam emasman.
19. Hamma ishlar tekis (me'riyoda) ketayotgan bo'lsa, unda mening g'ayratim yanada oshadi.
20. Agar men gazetada ishlaganimda edi, unda turli voqealar haqida yozishdan ko'ra, ko'proq odamlar yaratilgan yangiliklarni yozgan bo'lar edim.
21. Mening yaqinlarim odatda shaxsiy rejalarim bilan hamfikir bo'lmaydilar.
22. Mendagi hayotga nisbatan bo'lgan talablarimning darajasi o'rtoqlarimning shunday talablaridan pastroq.
23. Men o'z maqsadlarimga erishish yo'lida qat'iyman.

Test kaliti: «Ha»-1, 2, 6, 7, 8, 9, 15, 17, 19, 20, 22, 23. «Yo`q»-3, 4, 5, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 18, 21

Natijalarning miqdoriy tahlili. Ballar yig`indisi:

0-9 dan past bo`lganda-Sizning faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko`rinmaydi.

10-13 ballgacha: Sizda muvaffaqiyatga intilish bor, lekin hayotda faoliyatingizni tashkil qilishda har doim ham muvaffaqiyatga ehtiyoj sezavermaysiz.

14-23 ballgacha: Sizning faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yuqori darajada, har doim muvaffaqiyat bo`lishiga ishonasiz, qat'iysiz u yoki bu darajada murakkab, lekin bajarilishi mumkin ishlarni qilishni yoqtirasiz.

0-9 past, 10-13 o`rtacha, 14-23 yuqori.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-kitob, 2004, 235-bet;
- 2.Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 308-333-betlar,
- 3.Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 421-432 betlar;
- 4.K.K.Platonov. T.T.Golubev. Psixologiya. Toshkent, O`qituvchi, 1982 yil.
- 5.P.P.Zimin. Irodani tarkib toptirish. Toshkent, O`qituvchi. 1970.

28-Mavzu: ShAXSNING O`Z-O`ZINI BAHOLASH

XUSUSIYATLARI

Talaba shaxs, o`z-o`ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu asosida yotgan yutuqlariga bog`liq holda turlichaligi, bu baho ko`proq shaxsning o`ziga bog`liq holda turlichaligi, bu baho ko`proq shaxsning o`ziga bog`liq bo`lishi, sub'ektiv xarakterga egaligi, o`z-o`ziga bahoning past bo`lishi yoki o`ta yuqoriligi, o`z-o`ziga bahoning realistik, adekvat bo`lishi haqida adabiyotlardan foydalanib nazariy qism tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q
ShAXSNING O`Z-O`ZINI BAHOLASH XUSUSIYATLARINI ANIQLASH
(Budassi metodikasi)

Tajriba maqsadi: Sinaluvchining o`zini baholash xususiyatlarini aniqlash, Budassi metodikasi bilan tanishish va qo`llash.

Tajriba materiali: 50 ta shaxs sifatlarini xarakterlovchi so`zlar to`plami, protokol blanki va qalam.

**Sinaluvchiga ko`rsatma:** Sizga shaxs sifatini xarakterlovchi so`zlar qatori taqdim etiladi. Siz ixtiyoriy ravishda bu so`zlarni ikki ustunga ajrating, birinchi ustunga barcha ijobiy sifatlarini, ikkinchi ustunga esa barcha salbiy sifatlarini joylashtiring. Keyin siz shu ustunlar ichidan sizda mavjud bo`lgan sifatlarini tanlashingiz lozim.

1-protokol

Sinaluvchining harakatlari	
Ijobiy	Salbiy

Shaxs sifatlarini xarakterlovchi so`zlar to`plami:

- | | |
|--------------------|---------------------------|
| 1. Batartiblik | 26. Qat'iyatsizlik |
| 2. Beparvolik | 27. Ehtiyotkorlik |
| 3. Sermulohazalik | 28. Shafqatsizlik |
| 4. Qo`rslik        | 29. O`zini tuta bilmaslik |
| 5. Ta'sirchanlik | 30. Jizzakilik |
| 6. Hasadchilik | 31. Mustahkamlik |
| 7. Chidamlik | 32. Shoironalik |
| 8. Mag`rurlik | 33. Gumonsirashlik |
| 9. Xushchaqchaqlik | 34. Rahimdillik |
| 10. Uyatchanlik | 35. Nafratlilik |
| 11. G`amxo`rlik | 36. Mehribonlik |
| 12. Samimiylik | 37. Bachkanalik |
| 13. Ginaxonlik | 38. Vazminlik |
| 14. Injiqlik | 39. O`zini yo`qotish |
| 15. Nafislik | 40. Tortinchoqlik |
| 16. Go`llik | 41. Nomardlik |
| 17. Xayolparastlik | 42. Ishqibozlik |
| 18. Sustkashlik | 43. Ko`ngilchanlik |
| 19. Qat'iylik | 44. Sovuqqonlik |
| 20. Badgumonlik | 45. Sodiqlik |
| 21. Mayinlik | 46. Sabr-toqatlik |

22. Fikrlovchanlik
 23. Bamaylixotirlik
 24. Asabiylik
 25. Maftunkorlik

47. Tirishqoqlik
 48. Tashabbuskorlik
 49. Oqko`ngillik
 50. Yolg`onchilik

Natijalar tahlili: Ijobiy sifatlar:

0,1 dan 0,3 gacha-past
 0,3 dan 0,7 gacha-o`rtacha
 0,7 dan 1 gacha-yuqori

Salbiy sifatlar:

0,1 dan 0,3 gacha-yuqori
 0,3 dan 0,7 gacha-o`rtacha
 0,7 dan 1 gacha-past

jadval-1

Sinaluvchining harakatlari	
Ijobiy	Salbiy

jadval-2

Sinaluvchining harakatlari	
Ijobiy real bor	Salbiy real bor

jadval-3

Sinaluvchining harakatlari	
Ijobiy o`ziga xos	Salbiy o`ziga xos

Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o`tkazilishi
 zarur.

A D A B I Y o T L A R

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 86-156-betlar;
- 2.Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 206-256 betlar;

- 3.V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 38-70-betlar,
4.E.G`oziev. Psixologiya. Toshkent, O`qituvchi. 1994 y

29-Mavzu: Temperament va u to`g`risidagi tasavvurlar tarixi

Talaba temperament to`g`risida Galen (rimlik anatom vrach) birinchi bo`lib 13 turini kashf etishi (eramizdan avvalgi II-asr), to`rt tipga asoslangan temperamentning klassik nomlanishi, mijozning Sharqda o`rganilishi, I.Kant (XVIII-asr), P.F.Lesgaft, E.Krechmer, U.Sheldon tajribalari, B.M. Teplov tadqiqotlari, amerikalik psixolog Diomond ta'limoti, ingliz psixologi G.ayzenkda ekstroversiya-introversiya va neyrotizm, emotsional turg`unlik, temperament bo`yicha tadqiqotlarning bugungi ahvoli haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`qib o`rganib, ilmiy manbalar asosida kurs ishi tayyorlanadi

Adabiyotlar:

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 3-14-bet;
- 2.Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 357-385-bet
- 3.Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 438-458 betlar;
- 4.V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 125-bet,
- 5.D.N.Gonobolin. Psixologiya. Toshkent, O`qituvchi. 1976.

30-Mavzu: SEZGILARNING UMUMIY QONUNIYATLARI VA SEZGIRLIK

Talaba sezgilar haqida umumiy tushuncha, sezgi turlarining psixologik tavsifi, sezgi va ularning faoliyatda tutgan o`rni.

Sezgilar bo`yicha ilg`or psixologik tadqiqotlar, sezgilarning tavsiflanish, sezgilarning umumiy xususiyatlari haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganadi. Ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q № I

TERI VA BADAN ORQALI SEZGINI

TEKSHIRISH

Tadqiqotning maqsadi: talabalarga insonning bilish faoliyatida sezgining rolini ko'rsatib berish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: unchalik katta bo'lmagan oddiy buyum (predmet) kalit, rezina, bo'r, tugma, ilmatugma kabilar.

Tadqiqotning borishi: tadqiqot ikki seriyada o'tkaziladi

Birinchi seriya: tekshiruvchi tekshiriluvchiga orqa o'girib, qaramay turishni taklif qiladi va dastlab tekshiruvning barmoqlari ortiga, keyin kaftiga barmoqlari uchiga kalit, rezina yoki ilmatugmani qo'yadi, har safar tekshiriluvchiga qarab: «ushbu buyum haqida nima deyishingiz mumkin»-degan savolni berib boradi. Tekshiriluvchi tomonidan berilgan javoblarni butun gruppaga yozib boradi.

Tadqiqotning **ikkinchi seriyasida** tadqiqotchi tekshiriluvchiga predmet ushlab ko'rishni taklif qiladi va birinchi seriyada o'tkazilgan tajriba jarayonidagi savolga javob berishni so'raydi. Tekshiruvchining bergan javoblarini butun gruppaga yozib boradi.

Har bir tajribani dastlab psixologiya o'qituvchisining o'zi ko'rsatib o'tadi. So'ngra talabalarning o'zlari mustaqil o'tkazadilar.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: o'tkazilgan birinchi seriyadagi tajriba yuzasidan talabalar shunday xulosaga olib kelinadi: sinaluvchi kishida bir-biridan ajratilgan alohida-alohida sezgilar paydo bo'ladi. Bu sezgilar predmetning nima ekanini bilishga imkon bermaydi. Uning faqat ayrim xususiyatlarini aks ettiradi: «Yumshoq bir narsa», «Qandaydir bir engil narsa», «sovuq narsa», «metall buyum» va shunga o'xshash jazolar beriladi. Ikkinchi seriyada o'tkazilgan tajribaning ko'p hollarida sinaluvchilar predmetning nima ekanligini aytib beradilar. Chunki predmet kompleks qo'zg'atuvchi sifatida badan orqali sezish yordamida idrok etiladi. Bunda faqat teri sezgilarigina emas, balki kinestezik analizatorlar ham ishga tushadi va bilish apparatlari harakatga keltirilgan bo'ladi.

T O P Sh I R I Q № 2

MUSKUL SEZGISINING FARQLASH CHEGARASI

Tadqiqotning maqsadi: har xil og'irlikdagi qadoq toshlar yordamida muskul sezgisining farqlash chegarasini aniqlash.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: 1 grammdan 500 grammgacha bo'lgan har xil qadoq tosh va metall plastinkalar.

Tadqiqotning borishi: tekshiriluvchi ko'zi yumuq yoki bog'lab (bekitib) qo'yilgan holda o'ng va chap qo'lga bittadan qadoq toshni olib, ularning vaznini chamalaydi. Har ikkala qo'lidagi toshni u qo'ldan bu qo'lga almashtirib, chamalab, salmoqlab ko'rishi ham mumkin. Dastlab har ikkala qo'lidagi toshning vazni baravar (masalan, 600 grammdan) bo'lishi kerak. Tekshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh taqqoslash uchun o'zgartirmas me'yor bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi qo'lidagi qadoq tosh sekin-asta (1,2,3 va hokozo grammga) orttirib boriladi va toshlarning qay biri og'irlashganini tekshiriluvchidan

damba-dam so`rab turiladi. Muayyan vaqtlargacha tekshiriluvchi ikkala qo`lidagi qadoq toshlarning vazndagi o`zgarishini sezmaydi. Nihoyat, u bir qo`lidagi tosh ikkinchi qo`lidagiga nisbatan og`irlashganini aytadi. Tekshiriluvchi tomonidan payqab olingan qo`shimcha og`irlik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash, chegara ko`rsatgichi bo`lib hisoblanadi. Har bir tekshiriluvchi bergan ko`rsatkichlar qarorda qayd etib borilishi kerak.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish: o`tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagicha qarorlashtirilib, tahlil qilinishi mumkin

Q a r o r

T a j r i b a s i m a v z u s i : muskul sezgisining farqlash chegarasini tekshirish

Tekshiruvchi:_____

Tekshiriluvchi_____

Sana_____

Tartib

№

Tavsiya qilingan qo`zg`ovchi (gramm hisobida)

Tekshiriluvchidan olingan ko`rsatkich

Tartib №	Tavsiya qilingan qo`zg`ovchi (gramm hisobida)		Tekshiriluvchidan olingan ko`rsatkich
	Doimiy	O`zgaruvchi	
1	600	601	Teng
2	--	602	--
3	--	603	--
4	--	604	--
5	--	606	--
6	--	610	--
7	--	612	--
8	--	615	--
9	--	617	--
10	--	618	--
11	--	619	--
12	--	620	O`ng qo`limdagi og`ir
13	--	620	--
14	--	620	--

Mazkur tajribaning ko`rsatishicha, tekshiriluvchining muskul sezgisidan farq qilish chegarasi 20 grammga teng. Bu miqdor dastlabki tavsiya qilingan 600 grammlik vaznining 1,30 qismini tashkil qiladi. Bu ko`rsatkich har xil odamda boshqa-boshqa

chiqishi tabiiydir. Chunki odamning yoshi, tajribasi, hatto shug`ullanadigan ish faoliyati bilan bog`liq holda sezgirlik chegarasi ham o`zgarib boradi.

Tartib №	Tavsiya qilingan qo'zg'ovchi (gram hisobida)		Tekshiriluvchidan olingan ko'rsatkich
	Doimiy		

**Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o`tkazilishi
zarur**

A D A B I Y O T L A R

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 44-75 betlar;
- 2.Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 257-bet,
- 3.V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 89-bet,
- 4.Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 45-48 betlar;
- 5.Xoxlova L.Psixologiyadan topshiriqlar. Toshkent, O`qituvchi, 1992 y.

31-Mavzu: Psixikaning ontogenezdagi taraqqiyoti masalasi

Talaba hayvonlar va odam psixikasi o`rtasidagi farqning mohiyati, tilning paydo bo`lishi, tilda tafakkurning ifodalanishi, ijtimoiy tajribaning mohiyati, inson tug`ilgandan so`ng psixik jarayonlar hodisalar, xususiyatlar asosida alohida rivojlanishiga ega bo`lishi, «Men»lik asosida faoliyat dasturining tashkil etilishi. Ijtimoiy ehtiyojlar taraqqiyoti masalalari, shaxsning ontogenezda taraqqiyoti bo`yicha D.I.Feldshteyn tadqiqoti, A.N.Leontev tadqiqoti natijalari yoritiladi.

Adabiyotlar:

- 1.G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 19-25-bet;
- 2.Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 26-49-bet
- 3.Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 69-95 betlar;
- 4.Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 7-bet;
- 5.V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 89-bet,
- 6.G`oziev E. Inson psixikasining rivojlanishi. Toshkent, universitet, 1996 y.

32-Mavzu: HIS-TUYG`U VA UNING IJTIMOIIY, PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI

Talaba his-tuyg`ular kechishi, hissiyot motivlari va motivatsiyasi, hissiyotning ifodalanishi va shakllari, hissiyot va shaxsning ehtiyojlari, uning faoliyatga ta'siri, emotsional holatlarning regulativ funktsiyasi, his-tuyg`ular ehtiyoj sub'ekti va ob'ekti sifatida (S.L.Rubenshteyn). Dinamik stereotiplarning hosil bo`lishi va buzilishida hislar haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganib nazariy qism tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

T O P Sh I R I Q

O`Z HISSIYO`TINGIZNI BOSHQARA OLASIZMI?

TEST

Haqiqatdan Siz jahldormisiz yoki o`z hissiyotingizni boshqara olasizmi? Bu ruhiy kechinmalarni quyidagi so`roqnoma orqali aniqlang. Ushbu test yordamida o`zingizni sinab ko`ring.

Savollarga «juda», «unchalik emas», «hech qachon» kabi variantlarda javob berishingiz mumkin.

Gazetaning Siz o`qimoqchi bo`lgan varag`ining g`ijimlanganligi;

-«Yoshi katta» yoki yosh qizlarga xos kiyingan ayol.

-Suhbatdoshingiz haddan tashqari Siz yaqin turishi (masalan: odam tramvayda tirband).

-Ko`chada chekayotgan ayol.

-Kimdir Siz tomonga o`girilib yo`talsa.

-Sevikli qizingiz (yigitingiz) har doim uchrashuvga kechikib kelsa.

-Kinoteatrda sizning oldingizda o`tirgan tomoshabin u yoq bu yoqqa aylanib, kino syujetini izohlab o`tirsa.

-Endi o`qimoqchi bo`lgan qiziqarli romanning mazmunini gapirib berishga harakat qilsa.

-Sizga keraksiz narsalarni sovg`a qilishsa.

-Jamoat transportida baqirib gaplashsa.

-Atir-upalarning haddan tashqari o`tkir xidi

-Gapirayotgan paytda haddan ziyod qo`llarini qimirlatib gapirayogan odam.

-Haddan ziyod tez-tez ajnabiy so`zlarni ishlatadigan kasbdoshingiz.

Natijalar izohi:

Har bir «juda» javobi uchun 3-ochko; «unchalik emas» javobi uchun –1 ochko; «hech qachon» javobi uchun 0-ochko beriladi.

**30 ochkodan to`plasangiz:** Sizning chidamli, xotirjam odamlar qatoriga qo`shib bo`lmaydi. Sizning hamma narsa, hattoki ahamiyati bo`lmagan narsalar ham jahlingizni chiqaradi. Siz jahli tez o`zingizni yo`qotib qo`yadigan odamsiz. Bu esa asab tizimingizni bo`shashtirib qo`yadi, buning oqibatida atrofingizdagilar ham aziyat chekadilar. Siz o`zingizni qo`lga olishga o`rganishingiz kerak.

12-29 ochkogacha: Sizni eng keng tarqalgan odamlar guruhiga kiritish mumkin. Juda noxush voqealar sizning jahlingizni chiqaradi, lekin kundalik hayotiy kamchiliklar sizga katta ta'sir ko`rsatmaydi. Noxushliklarga nisbatan «yuz o`gira olish» sizga xos xususiyat, ularni osonlikcha unuta olasiz.

11 va undan kam ochko: Siz etarlicha xotirjam odamsiz. Hayotga real qaraysiz. Yoki ushbu test etarlicha namoyon bo`ladimi? Buni o`zingiz xolisona baholang. Lekin to`la ishonch bilan aytish mumkinki: Sizning muvozanatingizni osonlikcha buzish mumkin, deyish mutlaqo asossiz iboradir.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur

Adabiyotlar:

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 173-213-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 276-307 betlar.
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 400-420 betlar;

4. E.G`oziev, R.Toshimov. Menejment psixologiyasi. T-2001, 128-bet;
5. Baratov Sh. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 35-bet

33-Mavzu: Shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli

Talaba motivatsiya, motivatsiya va motivlarning nazariy muammolari, shaxsning shakllanishida motivatsiyaning roli haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganib, ilmiy manbalar asosida asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq:

Elersni «shaxsning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash» metodikasi

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 156-170-betlar;
2. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 206-245 betlar;
3. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 72-82-betlar,
4. E.G`oziev. Psixologiya. Tashkent. O`qituvchi. 1994 y,
5. D.N.Gonobolin, Psixologiya. Toshkent. O`qituvchi. 1976 y.

34-Mavzu: XOTIRA JARAYoNINI O`RGANISH

Talaba xotiraning ta'rifi, xotiraning ijtimoiy-tarixiy tabiati, xotira jaryonlarining o`rganilishi, xotira turlari tasnifi, xotira tiplari, xotira tasavvurlari haqida tegishli adabiyotlardan o`qib o`rganib haqida ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

TOPShIRIQ № 1

XOTIRA JARAYONIDA TURLI ASSOTSIATSIYALARNING AHAMIYATI

- | | |
|-------------------------|-----------------------|
| 1. Barmoq-tirnoq | 26. Bosh-soch |
| 2. Lolaqizg`aldoq-qizil | 27. Ko`mir-qora |
| 3. Cho`l-qo`ng`iroq | 28. Gugurt-ochlik |
| 4. Maktab-tanbeh | 29. Shirin-achchiq |
| 5. Shamol | 30. Yomg`ir-loy |
| 6. Soat-strelka | 31. Shahar-ko`cha |
| 7. Qand-shirin | 32. G`ildirak-yumaloq |
| 8. Deraza-harf | 33. Qalin-olomon |
| | 34. Mukofot-nafrat |
| | 35. Quyosh-yorug`lik |

9. Baland-past
10. Porox-portlash
11. Ko`z-qorachig`
12. O`t-yashil
13. Meva-sham
14. Mukofot-jazo
15. Ayol-sovuq
16. Kitob-sahifa
17. Ustara-o`tkir
18. Daftar-elkan
19. Yorug`-qorong`i
20. Yoz-issiq
21. Uy-tom
22. Qor-oppoq
23. Devor-chiroq
24. Sukunat-harakat
25. Zahar-o`lim

So`z juftlari uchun kalit: № 1,6,16,11,21,26,31,36,41,46-butun-bo`lak;
 So`zlarning juftlari № 2,7,12,22,27,32,37,42,47-predmet-xususiyat;
 № 3,8,13,18,23,28,33,38,43,48-odatdan tashqari birikma;
 № 4,9,14,19,24,29,34,39,44,49-kontrast;
 № 4,10,20,25,30,35,40,45,50-sabab-oqibat.

Instruktsiya. Daftaringizga 1 dan 50 gacha tartib nomeri qo`yib chiqing. Men sizlarga 50 juft so`zlarni bir marta o`qib beraman. So`ng men birinchi so`zlarni o`qib beraman, siz esa tegishli nomerga ikkinchi so`zlarni yozib borishingiz kerak.

Tekshirish. Men juft so`zlarning ikkinchisini o`qiyman. Agar siz ikkinchi so`zni to`g`ri yozgan bo`lsangiz, unda «Q» qo`ying, noto`g`ri yoki umuman yozmagan bo`lmasangiz, unda «-» qo`ying.

Hisoblash. Har bir so`z birikmasi bo`yicha (butun-bo`lak, predmet, xususiyat, ...) tajribada ishtirok etgan barcha studentlar uchun o`rtacha arifmetik miqdor hisoblab chiqiladi.

Xulosa. Material yaxshi esda olib qolinishi uchun, avalo voqelikdagi ob'ektiv aloqalarini aniq va to`la aks ettiradigan bog`lanishlar sistemasini tanlab olish kerak.

TOPSHIRIQ № 2

XOTIRANING TANLANISH XARAKTERI

Material

1. Muhabbat	6. Judolik	11. Imtihon	16. Stipendiya
2. Gugurt	7. Kurak	12. Sovun	17. Karam
3. Uchrashuv	8. Kasallik	13. Do`stlik	18. Ko`rinish
4. Tokcha	9. Doska	14. Vint	19. Quvur
5. Maktab	10. Sessiya	15. Devor	20. G`isht

I n s t r u k s i y a. Men sizlarga bir necha so`zlar o`qib beraman. Ularni qanday esda olib qolganlaringizni bir marta o`qiganimdan so`ng tekshirib ko`raman.

O`qib bo`lib, esda olib qolgan so`zlaringizni yozib qo`ying.

T e k s h i r i s h. Sekin-asta o`qing va to`g`ri esga tushirgan so`zlaringizni yoniga «q» qo`yib chiqing.

H i s o b l a s h. Gruppadagi 20 so`zdan qanchasi esga tushirilganligi hisoblab chiqiladi. Qaysi so`zlar boshqalaridan ko`ra, yaxshiroq esda olib qolindi? Nima uchun?

X u l o s a. Hamma so`z ham birdek esda yaxshi qolmaydi. Emotsional kuchli yoki ahamiyatli materiallar yaxshi esda olib qolinadi.

Har bir psixologiya o`qituvchisi o`zining mashg`ulotlarida xotiraning turlari, esda olib qolish usulini o`rganishda, ... ko`rsatib o`tilgan tajribalardan tashqari boshqa topshiriqlardan ham foydalanishi mumkin.

«Xotira» temasi bo`yicha metodik ko`rsatmalar. Tema mundarijasida xotira jarayonlarining qonuniyatlari yotadi. Praktik mashg`ulotlarda, gruppalar bilan o`tkaziladigan materiallar yordamida esda olib qolish, ongli esda olib qolishning mexanik esda olib qolishdan ustunligi, material sistemali bo`lganda esda olib qolishning xususiyati, xotira jarayonining tanlanganligi va boshqalar o`rganiladi.

Eksperimentlardan kelib chiqadigan xulosa materialini o`rganish va takrorlashning ratsional tashkil qilinishi to`g`risida tavsiyalar bilan tugashi kerak. Tema studentlarning o`z-o`zini tarbiyalashga, o`z xotirasini mukammallashtirishga, shuningdek o`qituvchiga o`z o`quvchilari xotirasini rivojlantirishga yordam beradigan bo`lsin.

O`quv materiallarini puxta esda olib qolib, esda saqlash, shuningdek o`quv qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida xotiraning individual xususiyatlarini hisobga olib ish ko`rmoq zarur.

A D A B I Y o T L A R

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 100-130-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 332-350 betlar;
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 51-56-bet;
5. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 96-102-betlar,
6. E.G`oziev. Xotira psixologiyasi. Tashkent. O`qituvchi. 1994 y,

35-Mavzu: Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash

Talaba shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, individual tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi, temperament, xarakter, qobiliyatlar, shaxsning individual

xususiyatlari va ularni diagnostika qilish yo'llari haqida adabiyotlardan o'qib o'rganib nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: G.Ayzenk testi (Ekstroversiya va neyrotizm)

G.AYZENK TESTI (Ekstroversiya va neyrotizm)

Tajriba maqsadi: G.Ayzenk testi bilan tanishish, sinaluvchining individual tipologik, xususan temperament xususiyatlarini aniqlash.

Tajriba material: 57 ta savoldan iborat so'rovnoma, qalam, javoblar varaqasi.

Sinaluvchiga ko'rsatma: «Sizga 57 ta iborat savolnoma taqdim etiladi. Sizning vazifangiz har bir savol bilan tanishib, ularga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berishdan iborat. Savollar ustida uzoq o'ylangmang, chunki to'g'ri yoki noto'g'ri javob majud emas. Natijalar to'g'ri chiqishi uchun xolisona javob berishga harakat qiling.

Shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlovchi, juda keng tarqalgan ingliz psixologlari S.Ayzenk va G.Ayzenk tomonidan tuzilgan test.

Ushbu test 57 ta savoldan iborat bo'lib, ulardan 24 tasi shaxsning ekstrovert va introvertligini aniqlashga qaratilgan. Bu ikki tushuncha Shveysar psixologi K.Yung tomonidan kiritilgan bo'lib, ular "ekstro"- tashqariga "intro"- ichkariga, "verto"- murojaat qilaman degan ma'noni bildiradi.

"Ekstrovert"- shunday shaxslarki ularning nerv-jarayonlari tashqariga yo'naltirilgan. Ular doimiy ravishda muloqatda bo'ladilar va kishilar davrasiga extiyojni sezadilar. Ular kirishuvchan betashvish, sergap, qiziqqon, jaxldorlik xususiyatga egadirlar. Ular his-tuyg'ulari, emosional xolatlarini boshqara olmaydilar. Ko'ngli ochiq, kek saqlamaydilar.

"Introvertlar"- esa ichki ifodalanishga egadirlar. Ular tashqi ifodalanishni xush ko'rmaydilar. Ular juda kam muloqatda bo'ladilar, ko'p kishilik yig'ilishlarni e'qtirmaydilar, sekin harakat qiladilar. Mas'uliyatni, o'z xatti-harakatlarini iroda qiladilar va o'z emosiyalarini nazorat qiladilar.

Hayotda "ekstrovertlar" bilan "introvertlarni" uchratish qiyin, lekin har bir shaxs u yoki bu xususiyatlarga mos keladi. Yana 23 ta savoldan esa shaxsning emosional qat'iyatsizlik yoki doimiyliigi, o'zini o'ta tutib olganlik xususiyatlarini aniqlab beradi.

9 ta savol esa berilgan savollar orqali sinaluvchining testga samimiy-yondoshganligini aniqladi.

T e s t s o v a l l a r i

1. Siz o'zingizda yangi xissiyotlarga extiyoj sezasizmi?
2. Sizni tushunadigan, sizni ma'qullaydigan, sizga ruxan yordam beradigan do'stga extiyojni tez-tez sezasizmi?
3. Siz o'zingizni betashvish odamman deb hisoblaysizmi?
4. Boshqalarga "YO'Q" deb rad javob berishingiz osonmi?
5. Nimanidir qilishdan oldin o'ylab ko'rib, keyin ish tutasizmi?
6. Agar siz nimanidir bajarishga va'da bersangiz undan sizga foyda bo'lmasa ham uni siz bajargan bo'larmidingiz?
7. Kayfiyatingiz tez-tez tushib, chiqib turadimi?
8. Odatda siz ko'p o'ylamasdan ish yurita olasizmi?
9. Arzimagan narsaga ham o'zingizni baxtsizdek sezasizmi?
10. Birov bilan baxslashib qolsangiz, qanday bo'lsa ham o'sha ishni qila olasizmi?
11. Qarama-qarshi jinsdagi e'qimtoy kishi bilan suhbatlashganingizda xayajonlanasizmi?

12. Jahlingiz tez-tez chiqib turadimi?
13. Bir daqiqa ta'siri ostida ish ko'rish yoki qilish hollari tez-tez uchrab turadimi?
14. Gapirish yoki qilish mumkin bo'lmagan ishni qilib qo'ysangiz yoki gapirib qo'ysangiz, keyin qilib qo'ygan ishingizdan afsuslanasizmi?
15. Odamlar bilan uchrashgandan ko'ra kitob o'qish siz uchun afzalmi?
16. Siz tez xafa bo'lasizmi?
17. Siz do'stlaringiz davrasida tez-tez bo'lishni xohlaysizmi?
18. Sizda o'z fikrlaringizni va his-tuyg'ularingizni o'zgalardan yashirmokchi yoki ba'zida fikrlashishni ëqtirmaydigan paytlaringiz bo'lib turadimi?
19. Sizni ba'zida tez olovdek yonib, ba'zida esa aksincha sust bo'lib qolasiz deb hisoblash to'g'rimi?
20. Siz do'stingiz sonini. ko'paytirmasdan, ularni yaxshi va sifatli bo'lishini xohlarmidingiz?
21. Siz ko'p orzu qilasizmi?
22. Sizga baqirib gapirganlarda, siz ham ularga xuddi shunday javob qaytara olasizmi?
23. Sizni aybdorlik xissi bezovta qiladimi?
24. Siz o'zingizni hamma odatlaringizni yaxshi deb o'ylaysizmi?
25. O'z his-tuyg'ularingizga berilmasdan erkin xolda do'stlaringiz davrasida o'zingizni betashvish qilib ko'rsatish qobiliyatiga egamisiz?
26. Siz o'zingizni his-tuyg'uga beriluvchan deb xisoblaysizmi?
27. Sizni quvnoq va sho'x, hamda juda tetik deb hisoblashadimi?
28. Biror bir ishni bajarib bo'lgandan keyin, shu ishni bundan ham yaxshi va sifatliroq bajarishingiz mumkinligi haqida o'ylaysizmi?
29. Notanish davralarga kirib qolsangiz sizni odatda jim va o'zingizni juda qattiq ushlab olasiz deb aytishganlari to'g'rimi?
30. G'iybatchilik ham qilib turasizmi?
31. Kechalari miyangizga har xil xayollar kelib, bezovtalab uyqularingiz kelmaydigan paytlari bo'lib turadimi?
32. Siz nimanidir haqida bilishni xohlasangiz, uni birovdan so'rab bilgandan, o'qib o'rgangan to'g'ri deb hisoblaysizmi?
33. Sizda qattiq yurak urish xollari bo'lib turadimi?
34. Har doim diqqat talab qiladigan ishlar sizga ëqadimi?
35. Sizda qaltirash va bezovtalanish hollari bo'lib turadimi?
36. Agar nazorat qilmasalar, siz transportda yo'l kira haqi to'lagan bo'larmidingiz?
37. Bir-birini ustlaridan kuladigan, hazillashadigan davralar sizga ëqadi, deb hisoblash to'g'rimi?
38. Siz serjahlmisiz?
39. Tez bajarishni talab etuvchi ishlar sizga ëqadimi?
40. Natijasi yomonlik bilan tugashi kerak bo'lgan voqea yoki hodisa, yaxshilik bilan tugashini o'ylasangiz bezovtalanadigan hollaringiz bo'lib turadimi?
41. Siz sekin va shoshmasdan yurasizmi?
42. Siz o'qishga, ishga yoki shaxsiy uchrashuvlarga kechikib kelganmisiz?
43. Siz tez-tez yomon tushlar ko'rib turasizmi?
44. Suhbatni ëqtirishingiz va notanish odamlarga ham tez kirishib ketishingiz to'g'rimi?
45. Sizni qandaydir og'riqlar bezovta qiladimi?
46. Agar siz uzoq vaqt do'stlaringizni ko'rmasangiz, unda sizni jahlingiz chiqib ketadimi?
47. Siz o'zingizni "men asabiy kishiman" deb hisoblaysizmi?
48. Sizni tanishlaringiz orasida sizga ëqmaydigani bormi?
49. Sizni kamchiliklaringizni aytib tanqid qilish orqali sizning jahlingizni chiqarish osonmi?
50. Siz o'zingizni o'ziga ishongan odam deb ayta olasizmi?
51. Ko'p kishilik biror bir kechadan haqiqiy qoniqish olish siz uchun qiyinmi?

52. Boshqalardan nimalaringizdir kamroq ekanligini o'ylasangiz bezovtalanasizmi?
53. Zerikarli davralarni jonlantira olasizmi?
54. O'zingiz tushunmagan narsalar haqida gapirgan paytlaringiz bo'lib turadimi?
55. O'z sog'ligingiz to'g'risida bezovtalanasizmi?
56. O'zgalar ustidan hazillashishni e'qtirasizmi?
57. Uyqusizlikdan qiynalasizmi?

Natijalar tahlili:

1. Ekstroversiya-introversiya darajasini aniqlash uchun sinaluvchi javoblari quyidagi savollarga «**ha**» - 1, 2, 8, 10, 13, 17, 22, 25, 27, 39, 44, 46, 49, 53, 56 va «**yo'q**» - 5, 15, 20, 29, 32, 34, 37, 41, 51 mosligi tekshiriladi. To'g'ri kelgan javoblar 1-bal bilan baholanadi.

Agar sinaluvchi yuqoridagi savollar bo'yicha 12 va undan ortiq ball to'plagan bo'lsa ekstrovert, agar undan kam bo'lsa introvert hisoblanadi.

2. Emosional barqarorlik va beqarorlik (asabiylashish) darajasi quyidagi savollarga berilgan javoblar asosida baholanadi: «**ha**»-2, 4, 7, 9, 11, 14, 16, 19, 21, 23, 26, 28, 31, 33, 38, 40, 43, 45, 47, 50, 52, 57. Bu yerda yo'q javoblar hisobga olinmaydi. Bu ko'rsatgich bo'yicha sinaluvchi 12 va undan ortiq ball to'plasa emosional barqaror, agar undan kam bo'lsa emosional beqaror yoki asabiy hisoblanadi.

Sinaluvchining samimiy yondoshganligi. «**Ha**»-6, 24, 36; «**Yo'q**»-12, 18, 30, 42, 48, 54 bular korreksiya shkalasi bo'lib, u sinaluvchining qanchalik to'g'ri javob berganligini aniqlaydi. Agar sinaluvchi 4-balldan yuqori to'plagan bo'lsa, u holda javob haqqoniy va samimiy, agar 4-dan kam ball to'plasa javoblar samimiy emasligi bildiradi.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 3-15-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 357-385 betlar;
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992,
4. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 117-127 betlar;
5. Toshimov R.Yu, G'oziev E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent, 2004; 70-78 betlar.

36-Mavzu: Xotira nazariyalari haqida

Talaba xotiraning tipologik nazariyalari, xotiraning fiziologik nazariyalari, bog'lanish maqsadga erishish bilan mos kelgan zaxotiy oq u saqlanib va mustahkamlanib qoladi (I.P.Pavlov), reflektor halqasi (P.K.Anoxin), xotiraning fizik nazariyalari, xotira psixologiyasining asosiy fantlari va qonuniyatlari, xotiraning bioximik nazariyalari, shvetsiyalik bioximik Xiden tajribalari haqida o'qib o'rganib, ilmiy manbalar asosida tayyorlanadi.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 100-115-betlar;

2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-bet
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 318-350 betlar;
4. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 96-102 betlar;
5. E.G`oziev. Xotira psixologiyasi.Toshkent, universiteti 1994 yil;
6. Gonobolin D.N. Psixologiya. Toshkent, O`qituvchi, 1976 yil.

37-Mavzu: Esda olib qolish turlari va ularning tadqiq qilish, metodikasi

Talaba esda olib qolish turlari va ularni tadqiq qilish bo`yicha tajriba olib borgan olimlar, A.R.Luriya, A.A Smirnov, P.I.Zingenko, G.Ebbingauz, Shardakov M.N, Lipkina A.I, A.N Leontevlar haqida adabiyotlar o`qib o`rganib, ilmiy qism yoritiladi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: Esda olib qolish turlari va ularni tadqiq qilish metodikasi. Ixtiyorsiz esda qoldirish.

Tadqiqotning maqsadi: emotsional va betaraf tusdagi so`zlarni ixtiyorsiz esda qoldirishni tekshirish.

Tadqiqotlar uchun zarur jihozlar: bir qator so`zlar: zulmat, kuy, g`am, faryod, o`yin, og`riq, qo`rqinch, ijod, ritm, hayajon, g`azab, jo`shqin, janjal, qulf, tug`ma, pricheska, tekislik, oyna, palto, qirg`oq, qum, sharf, dog`.

Tadqiqotning borishi: tekshiriluvchi bir varaq toza qog`ozni kundaligiga buklab 2 qismga bo`ladi. Tekshiruvchi yuqoridagi so`zlarini o`qib beradi. Sinaluvchi o`qilgan so`zlarni tinglab bo`lgach, ularni quyidagicha tartibda yozadi: qog`ozning chap tomoniga emotsional tusdagi, o`ng tomoniga esa emotsional tusga ega bo`lmagan, betaraf so`zlarni yozib chiqadi. So`zlar yozilgan qog`ozni buklab bir chetga olib kuyadi.

So`ngra tekshiriluvchi yana bir varaq toza qog`oz olib ikkiga buklaydi. Keyin oldingi so`zlarni birin-ketin esga tushirib, ularning emotsional tusga ega bo`lganlarini qog`ozning chap qismiga, emotsional tusga ega bo`lmagan betaraf so`zlarni esa qog`ozning o`ng tomoniga takror yozadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Birinchi va ikkinchi qog`ozdagi so`zlarning soni (emotsional, noemotsional so`zlar alohida) hisoblab chiqiladi. So`ngra har qaysi gruppadagi so`zlarning to`g`ri esga tushirilganlarining nisbati hisoblab chiqiladi. Odatda esga tushirilgan emotsional tusdagi so`zlar miqdori noemotsional sezlarga nisbatan ko`p bo`lib chiqishi kerak. Chunki kishi hissiyotiga ta'sir ko`rsatuvchi so`zlar tez va ko`p esda qoladi.

Bevosita esga tushirish.

Tadqiqotning maqsadi. Ayrim so`zlar va bir-biriga aloqador so`z birikmalarining bevosita esga tushirilishini tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: so`z va so`z birikmalari: bola-qo`rqoq, darg`azab o`qituvchi, og`ir ish, rivojlanish, xato, bayram, uy, aql, shahar, ko`r muzikachi, fan, balandlik, harakat, ko`cha, tinchlik.

Tadqiqotning borishi: tekshiruvchi tekshiriluvchiga bir nechta so`z va so`z birikmalarini diqqat bilan eshitib, yodda tutishni taklif qiladi, so`ngra so`z va so`z

birikmalarini tinglash bilan birga ularni chizma tasvir orqali ifodalab berish ham kerak. Hamma soʻz va soʻz birikmalari oʻqilib boʻlganidan soʻng tekshiriluvchi oʻzi chizgan piktogramma (suratli, tasviriy yozuv)larining tagiga birinchisidan boshlab, oʻzi esda olib qolishi lozim boʻlgan soʻzlarni yozib chiqishi kerak.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Ish natijalari jadvalda qayd qilinadi.

Tavsiya qilingan soʻz va soʻz birikmalarining miqdori	Tekshiriluvchining ishonarli qilib yozgan soʻz va soʻz birikmalari	Xotira hajmi (foiz hisobida)

Soʻngra tekshiriluvchining bevosita esga tushirish xotira sifati, hajmi va aniqligi haqida umumiy xulosa chiqariladi.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida oʻtkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Gʻoziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 124-133-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-164 betlar.
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 251-268 betlar;
4. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 96-105 betlar;
5. E.Gʻoziev. Xotira psixologiyasi. Toshkent. Universitet. 1994 y

38-Mavzu: Shaxs va uni oʻrganish

Talaba shaxsni oʻrganish tarixi, chet el psixologiyasida shaxs nazariyalari, shaxsning psixologik tuzilishi, shaxsning ehtiyojlari, dunyoqarashi, e'tiqodi, qiziqishlari, shaxsning faolligi va yoʻnaltirilganligi, shaxsni oʻrganish haqidagi adabiyotlarni oʻqib oʻrganib, nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq:

K.N.Tomas-shaxs soʻrovnomasi

1. a) Men, gohida unga, tortishuvli masalalarni hal qilish uchun ma'suliyat, javobgarlikni oʻz zimmasiga olishga imkon beraman.
b) Munozara, tortishuvli vaziyatlarni muhokama qilishda, men dastavval, bizlar nimada har ikkalamiz ham kelisha olishligimiz mumkinligiga e'tiborni qaratishga harakat qilaman.
2. a) Men murosali (kompromiss) echimlarni topishga harakat qilaman.
b) Men nizoli vaziyatlarni uning ham va oʻzimning ham barcha manfaatlarimizni hisobga olgan holda hal qilishga intilaman.
3. a) Men odatda oʻzim hohlaganimga erishishga qat'iy intilaman.
b) Gohida men uning manfaatini deb, oʻz manfaatimdan voz kechaman.
4. a) Men murosali (kompromiss) echimlarni topishga yoʻl topaman
b) Men uning hissiyotini, kechinmalarini koʻrmaslikka harakat qilaman

5. a) Tortishuvli vaziyatlarni yumshatar ekanman, men har doim undan yordam, madad, dalda topishga jazm etaman.

b) Men behuda zo`riqishlardan qutulish uchun nima lozim bo`lsa hammasini qilishga ado etaman

6. a) Men o`zim uchun bo`ladigan ko`ngilsizliklardan qochishga harakat qilaman.

b) Men o`zim hohlagan narsaga, o`z hohlaganimga erishishga harakat qilaman.

a) Men tortishuvli masalalarni hal etishni boshqa kunga qoldirishga harakat qilaman, chunki uni keyinchalik batafsil, bafurja hal qilsa bo`ladi.

b) Boshqa biron-bir nimaga erishish uchun, nimanidir boy berish mumkin deb hisoblayman.

8. a) Men odatda, o`zim hohlagan narsaga erishish uchun qat'iy intilaman.

b) Men avvalo barcha tortishuvli masalalar va muhokama qilayotgan muammolar nimalardan iborat ekanligini aniqlab olishga intilaman.

9. a) Men yuzaga kelgan qandaydir kelishmovchiliklar tufayli har doim ham hayajonlanaverish kerak emas deb hisoblayman.

10. a) Men o`z bilganimga erishish uchun qat'iy intilaman

b) Men o`zaro kelishimli qarorga kelishga harakat qilaman

11. a) Men munozara qilinayotgan muammolar va tortishuvli masalalar nimalardan iborat ekanligini ochiq-oydin aniqlab olishga intilaman.

b) Men uni tinchlantirishga va shu bilan o`zaro munosabatlarimizni saqlab qolishga chora qidiraman.

12. a) Men ko`pincha nizolarni yuzaga keltirishni mumkin bo`lgan holatlardan qochishga harakat qilaman.

B) men agar u menga ham shunday munosabatda bo`lsa, unga qandaydir masalalar bo`yicha o`z fikrida qolish imkonini beraman.

13. a) Men o`rtacha, teng vaziyatni, holatni taklif qilaman

b) Hammasi men aytgandek bo`lishini talab qilaman

14. a) Men unga o`z nuqtai nazarimni ma'lum qilaman va undan bu haqdagi qarashlarini so`rayman.

B) Men unga o`z holatim, nuqtai nazarim mantiqini, mazmunini va o`z qarashlarimni afzalligini isbotlashga intilaman

15. a) Men uni tinchlantirishga va munosabatlarimizni saqlab qolishga harakat qilaman

b) Men, kelishmovchilik, zo`riqishlardan qochish uchun zarur bo`lgan hamma narsani qilaman.

16. a) Men uning hissiyotiga, nafsoniyatiga tegib ketmaslikka imkon topaman

b) Men odatda, uni o`z nuqtai nazarimni afzalligiga ishontirishga harakat qilaman.

17. a) Men odatda o`z bilganimga erishishga qat'iy intilaman.

B) Men, behuda zo`riqish, tortishuvlardan qutulish uchun hamma narsani qilishga intilaman.

18. a) Agar, shu uni bahtiyor qilsa, unda men unga o`z fikrida qolishiga, o`z fikrini himoya qilishiga imkon beraman.

B) Agar u ham menga shunday munosabatda bo`lsa, men unga o`z fikrida qolish imkoniyatini beraman.

19. a) Men avvalo, barcha munozara qilinayotgan muammo va tortishuvli nimadan iborat ekanligini aniqlab olishga intilaman.

B) men tortishuvli masalalarni boshqa galga qoldirishga va shu bilan keyinchalik uni batafsil hal qilishga intilaman.

20. a) Men, bizlarning kelishmovchiligimizni zudlik bilan engib o`tishga intilaman.

- B) Men, ikkalamiz uchun ham foyda va zararning eng maqbul variantini topishga harakat qilaman.
21. a) Munozara olib borar ekanman, men unga e'tiborli bo'lishga harakat qilaman.
b) Men har doim ham muammoni to'g'ridan-to'g'ri hal qilishga intilaman.
22. a) Men, u bilan o'zim o'ramizdagi o'rtacha vaziyatni topishga harakat qilaman.
B) Men o'z nuqtai nazarimni himoya qilaman
23. a) Odatda, men har birimizning istaklarimizni qondirishini o'ylayman.
B) Gohida unga tortishuvli masalani hal qilish uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishiga imkon beraman.
24. a) Agar o'z nuqtai nazari juda muhim bo'lsa, unga imkon berishga yo'l qidiraman.
B) Men uni kelishishga ko'ndirishga harakat qilaman.
25. a) Men uni haqligimga ishontirishga harakat qilaman.
B) Munozaralar olib borish vaqtida, men uning qiziqishlariga e'tiborli bo'lishga intilaman.
26. a) Men o'rtacha nuqtai nazarni taklif qilaman
b) Men, deyarli har ikkalamizning qiziqish, manfaatlarimizni qondirishga harakat qilaman.
27. a) Men ko'pincha tortishuvlardan qochishga imkon topaman
b) Agar uni bahtiyor qiladigan bo'lsa, uning o'z fikrida qolishiga imkon beraman.
28. a) Odatda, men o'z bilganimga erishishga qat'iy intilaman.
B) Vaziyatni yumshatar ekanman, men odatda u ham meni qo'llab quvvatlashi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni topishga harakat qilaman.
29. a) Men o'rtacha nuqtai nazarni taklif etaman.
B) Men, yuzaga kelgan kelishmovchiliklar tufayli, har doim ham hijolat bo'laverishning hojati yo'q deb o'ylayman
30. a) Men uning izzat nafsiga tegib ketmaslikka chora qidiraman.
B) Men tortishuvda doimo ikkalamiz birgalikda muvaffaqiyatga erishishimiz mumkin bo'lgan nuqtai nazarda

K.N.Tomas so'rovnomasining kaliti

№	Raqobatlilik	Hamkorlik	Murosalilik	Tortishuvdan qochish	Moslashuvchanlik
1				A	b
2		b	a		
3	a				b
4			a		b
5		A		B	
6	B			A	
7			B	A	
8	A	B			
9	B			A	
10	A		B		
11		A			B
12			B	A	
13	B		A		
14	B	A			A
15				B	A
16	B				
17	A			B	

18			B		A
19		A		B	
20		A	B		
21		B			A
22	B		A		
23		A		B	
24			B		A
25	a				B
26		B	a		
27				A	B
28	a	B			
29			a	B	
30		B			A

Izoh

Mazkur so'rovnomaning guruhning barcha a'zolari (o'quvchi, talaba, xodimlar)ga emas, balki tanlab (masalan, norasmiy etakchilar bilan, yoki tartib-intizomni buzuvchilar, u yoki bu vazifa, topshiriqni bajaruvchi kichik guruh tarkibiga kiruvchilar bilan) olingan odamlarga nisbatan, ular bilan ishlashda qo'llash mumkin. Olingan materiallarni qayta ishlash natijasida guruh rahbari, maktab psixologi, o'qituvchi, mazkur tadqiqotni olib borayotgan tadqiqotchi nafaqat guruhdapsixologik mos kelmaslik zaminida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning oldini olishi, balki o'qituvchi, talabalarni o'z-o'zini tarbiyalashga yo'llashi, ularda etarlicha shakllanmagan shaxsiy sifatlarning rivojlantirilishiga erishishi mumkin.

Ma'lumotlarni qayta ishlash

Ma'lumotlarni qayta ishlash yuqoridagi kalit yordamida amalga oshiriladi. Kalit blanka shaklida bo'lib, unda sinaluvchi haqidagi va uning javoblari haqidagi barcha ma'lumotlar beshta ustun (Raqobat, hamkorlik, murosaliylik, tortishuvlardan qochish, moslashuvchanlik) bo'yicha taqsimlanadi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda ustunlarning har biri bo'yicha to'g'ri kelgan javoblar miqdori hisoblanadi. Bunda har bir javob bir ballga teng. Masalan sinaluvchi «Raqobatlik» ustuni bo'yicha chiqsa –3 ball, «hamkorlik» ustuni bo'yicha-5 ball, «murosaliylik»-12 ball, «tortishuvdan qochish»-6 ball, «moslashuvchanlik» ustuni bo'yicha-4 ball olgan bo'lsa, bunday holatda quyidagicha xulosaga kelish imkoniyatini beradi;

Sinaluvchi nizoli vaziyatlarda murosaga moyil, unga nizodan qochish xos, nizo yuzaga kelib qolgan holatlarda u hamkorlikka intiladi. U nizoli vaziyatlarga passiv moslashuvchan, qanday qilib bo'lmasin raqobatga intilish unga unga xos emas.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 82-125-betlar;
2. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 206-250 betlar;
3. Toshimov R.Yu, G'oziev E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent, 2004; 124-125 betlar.
4. Baratov Sh.R. Umumiy psixologiya. Buxoro-2000, 9-10-betlar;
5. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 72-bet;
6. Baratov Sh.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent, O'qituvchi. 1995 yil;

39-Mavzu: Hayolning ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik asoslari

Talaba fantaziya timsollari paydo bo'lishi, miya faoliyatining natijasi ekanligi, hayol va gipotalon-limbik tizim, hayol va yatrogen, didaptogen kasalliklar, hayol orqali fiziologik jarayonlarning o'zgarishi, hayol va ideomotor aktlar, harakatlar, tomirlar tizimining reaktivligi, Volf Missning tajribalari, hayol jaryonlarining buzilishi, hayolning analitik-sintetik xarakteri, badiiy va ilmiy ijodiyotda fantaziyaning roli, hayol va shaxs ehtiyojlari haqida tegishli adabiyotlardan o'qib o'rganib, ilmiy manbalar asosida kurs ishi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 196-207-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 165-185 betlar;
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992, 281-390 betlar;
4. Gonobolin D.N. Psixologiya. Toshkent, O'qituvchi. 1976;
5. Platonov K. psixologiya. Toshkent. O'qituvchi. 1982;

40-Mavzu: Xotiradagi individual farqlanish muammosi

Talaba xotira individualligi, esda olib qolish tezligi (EOQ), ko'rgazmali obrazli, so'z-mantiq xotirasi, fenomenal xotira, xotira, xotira kasb, faoliyat, kasb va faollik xotira mahsuldorligi haqida adabiyotlardan o'qib o'rganib, ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: Esda qoldirishning sinaluvchi tanlab olgan usuliga bog'liqligi

Zarur material.

Seriya «A»

1. Olov
1. Havo
2. Kosa
2. Tog'a
3. Sholi
3. Echki
4. Arra
4. Lola
5. Bola
5. Xoda

Seriya «B»

1. Ekin
1. Charm
2. Dada
2. Omoch
3. Og'iz
3. Sholi
4. Barg
4. Atir
5. Ipak
5. Qurt

6. Rota	6. G`o`za
6. Shoda	6. Behi
7. Do`st	7. Tesha
7. Moda	7. Xola
8. Daryo	8. Kechae
8. Dona	8. Pero
9. Xona	9. Juft
9. Nota	9. Eshik
10. Ertak	10. Ertak
10. Qora	10. O`rtoq

I n s t r u k s i y a. Hozir men sizlarga so`zlar o`qib beraman (Seriya «A»). O`qish tugashi bilan, qatordagi tartibdan qat'iy nazar, eslab qolgan so`zlaringizni birin-ketin yozib chiqing.

T e k s h i r i s h . O`qituvchi shoshmasdan so`zlarni o`qiydi.

I n s t r u k s i y a. Endi sizlarga xuddi shu tartibda ikkinchi qatordagi so`zlarni (seriya «B») o`qib beraman va o`qib tugatganimdan so`ng sizlar so`z tartibidan qat'iy nazar, xotirangizda qolgan, birinchi bo`g`inida O harfi bo`lgan so`zlarni yozing.

S o`n g o`q i t u v c h i : Men hozir o`qib bergan qatordagi so`zlarni (Seriya«B») O harfi bo`lgan so`zlaridan tashqari, eslab qolgan barcha boshqa so`zlariningizni ham yozing deb iltimos qiladi.

T e k s h i r i s h . «B» qatordagi so`zlarni shoshmasdan o`qiydi.

O`qituvchi shunday savol beradi: Qaysi biringiz «A» va «B» seriyadagi O li, O siz, so`zlardan 1,2,3,4 va hokazo yoza oldingiz.

H i s o b l a s h . 1.Ikkala qatordan to`g`ri yozilgan «O»li so`zlarning o`rta arifmetik miqdori va qatorlari o`rtasidagi ayirma aniqlanadi. 2. Ikkala qatordan to`g`ri yozilgan «O» siz so`zlarning o`rta arifmetik miqdori va qatorlari o`rtasidagi ayrima hisoblanadi.

X u l o s a . Materialni esda qoldirish sinaluvchi tanlab olgan usul (ustanovka)ga bog`liq.

T o p s h i r i q . Tanlab usul (ustanovka)ning esda qoldirish muddatiga ta'siri

1-seriya.

I n s t r u k s i y a. Hozir men sizlarga 15 ta so`z o`qib beraman. Siz ularni ichingizda takrorlashingiz kerak. Kimki hamma so`zlarni esda qoldira olmasa qo`lini ko`taradi. Hamma so`zlarni esda qoldirish uchun necha marta takrorlash zarur bo`lsa, men shuncha marta takrorlayman.

M a t e r i a l

1. Yuksalish	6. Guldon	11. Yodgorlik
2. Ostona	7. Karkas	12. Dazmol
3. Kuldon	8. Jo`mrak	13. Daraja
4. Tamg`a	9. Chelak	14. Klapan
5. Kalonna	10. Yangilik	15. G`or

So`zlarni hamma eslab qolguncha o`qiladi.

2-seriya

I n s t r u k s i y a . Endi sizlarga ikkinchi seriya soʻzlarni oʻqib beraman, ular ham 15 ta. Ishlash tartibi ilgarigiday. Lekin bu 15 ta soʻzni bir hafta davomida, ya'ni kelgusi mashgʻulotgacha esda tutish zarur.

M a t e r i a l

- | | | |
|-----------|-----------|------------|
| 1. Stol | 6. Gugurt | 11. Yulduz |
| 2. Daftar | 7. Surat | 12. Mushuk |
| 3. Qoshiq | 8. Qalam | 13. Shahar |
| 4. Kitob | 9. Stul | 14. Pul |
| 5. Koʻcha | 10. Odam | 15. Teatr |

Soʻzlarni hamma eslab qolguncha oʻqiladi.

T e k s h i r i s h (mashgʻulotning oxirida oʻtkaziladi).

Soʻngra oldingi safar yodlaganlaringizni ham yozing. Har bir seriyadan eslab qolgan soʻzlaringiz sonini sanab chiqing, qaysi birida siz koʻproq soʻz eslab qoldingiz? Nima sababdan?

X u l o s a. Xotiraning koʻlami esda qoldirish muddati uchun tanlab olingan ustanovkaga bogʻliq.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida oʻtkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Gʻoziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 100-133-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-164 betlar
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992,
4. Mamadjonov B, «Umumiy psixologiyadan amaliy mashgʻulotlar» «Oʻqituvchi» Toshkent-1978 yil, 58-bet;
5. Xoxlova L.P. Psixologiyadan topshiriqlar. Toshkent, Oʻqituvchi. 1992; 160 bet;
6. E.Gʻoziev. Xotira psixologiyasi. Toshkent. Universitet, 1994 yil.

41-Mavzu: Muomala va munosabatlar tizimi

Talaba shaxs munosabatlar tizimida, shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi oʻrni, insoniy munosabatlar psixologiyasi, muomalaning koʻp qirraliligi, muomala jarayonida munosabatlarning vujudga kelishi, munosabatlarning vujudga kelishi, munosabatning 3 jihati, munosabat va faoliyat birligi, munosabatning ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida talqin qilishi nazariy qismda yoritiladi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq:

1. «Oʻzgalarni tinglay olasizmi?» testi

Quyidagi savollarga berilgan javoblarning oʻzingizga mosini tanlab belgilang.

1. Sizningcha suhbatlashishdan maqsad nima?

- A) Suhbatdoshni yaxshiroq o`rganish
- B) Biror masala bo`yicha o`z fikrini bildirish
- V) fikr almashinish va muhokama qilish

2. Sizga bolalar «Bulutlar qaerda yashaydi?», «Buvimlar kichkina bo`lishganmi?» tarzida savollar berishadimi?

- a) ha, tez-tez
- b) hech qachon
- v) ba'zan

3. Ertalab ishga yoki o`qishga ketayotib, qo`shiq xirgoyi qilasizmi?

- A) ha, doimo bir xil qo`shiqni
- B) ha, odatda har xil qo`shiqni
- V) yo`q, hech qachon

4. Yig`ilish oxirida ma'ruzachiga savollar berasizmi?

- A) ha, doimo nimanidir so`rashga to`g`ri keladi
- B) ba'zan, uning fikri bilan qo`shilmaganimda
- V) hech qachon

5. Do`stingiz yoki kasbdoshingiz bilan suhbatlashgandan so`ng o`ta muammo yuzasidan o`z qarashlaringizni o`zgartirganmisiz?

- A) ko`pincha shunday bo`ladi
- B) ba'zan
- V) hech qachon

6. Kim bilandir suhbatlashayotganda:

- a) ko`proq siz gapirasiz
- b) ko`proq suhbatdoshingiz gapiradi
- v) ikkalangiz teng gapirasiz

7. Narxi bir xil bo`lganda siz nimani xarid qilishni afzal ko`rasiz?

- A) kitobni
- B) gramplastikani
- V) kinoga pattani

8. Sherigingiz sizga aloqasi bo`lmagan o`z muomalasi xususida gaplashmoqchi. Siz nima deb o`ylaysiz?

- A) «qimmatli vaqtni yo`qotdim-a»
- B) «Endi unga ta'sirim kuchliroq bo`ladi»
- V) «unga yordam berayapman»

9. Quyidagi jumalarning qay biri sizning nuqtai nazaringizga to`g`ri keladi?

- A) ayni muammo yuzasidan mutaxassisning aniq fikriga ega bo`lishi mumkin;
- B) Chiroyli gapirishni bilgan odam hohlagan mavzusida ham gapirishi mumkin.
- V) ko`pincha mutaxassislarga o`z muammolari va g`oyalarini bayon etish uchun notiqlik malakasi etishmaydi.

10. Suhbat chog`ida hayolingiz chalg`ib ketsa, nima qilasiz?

- A) gapirayotganni to`xtatib o`sha erni qaytarishni so`rayman
- B) suhbat oxirida so`rash uchun noaniq joyni eslab qolaman
- V) umuman menga hamma narsa ayon

11. Ertalab radio orqali eshitgan axborot yoki qo`shiqni qaytara olasizmi?

- A) ha, doimo
- B) ha, lekin esga tushirish uchun vaqt kerak
- V) eslay olmayman

12. Estrada qo`shiqchisida sizga ko`proq nima yoqadi?

- A) ovozi
- B) tashqi ko`rinishi
- V) sahnada o`zini tutishi

13. Kontsertlarga tushish siz uchun:

- a) qoniqish hosil qiladigan hodisa
- b) ko`p qatori bo`lish
- v) yaxshi ko`rgan xonanda bilan uchrashuv

14. Siz mehmondasiz, u erda sizdan boshqa yana 5-6 kishi bor. Siz gap boshlaganingizda ko`pincha;

- a) Sizni hech kim tinglamaydi.
- B) hamma sizga mahliyo bo`ladi
- V) Siz suhbatning tashabbuskori emassiz

15. Siz jamiyatda ro`y berayotgan barcha hodisalardan xabardorsiz. Chunki siz:

- a) muntazam televizor ko`rasiz
- b) radio eshitasiz
- v) gazeta o`qiysiz

Savollar	Javoblar		
	a	b	v
1	2	1	3
2	3	1	2
3	2	3	1
4	2	3	1
5	2	3	1
6	1	2	3
7	3	1	2
8	1	2	3
9	1	2	3
10	3	3	1
11	3	2	1
12	3	1	2
13	3	1	2
14	2	3	1
15	3	3	1

Ballarni qo`shib chiqing.

15-20 ball. Siz o`zgalarni tinglamaysiz. Balki siz o`zgalarni tinglashdan oladigan foydaning qoldig`ini bilmaysiz, lekin siz bilan va tajriba uchun bu ishning foydasini bilishingiz zarur.

25-30 ball. Siz o`rtacha tinglovchisiz. Siz uchun suhbat, ma'lumot manbai va muloqot uchun etarli asos emas, sizdan ko`p narsani o`rganish mumkin, lekin o`zingiz ham boshqalardan ko`p narsa olishingiz mumkinligini, tanqid va e'tirozlar ham foydali ekanligini unutmag, ko`proq boshqalarni tinglang.

35-45 ball. Sizda noyob sifat-o`zgalarni tinglash va me'yorida gapirish bor, siz bilan suhbatlashish juda yaxshi, chunki suhbatdosh sizdan doimo naf oladi. Siz o`zgalarning holatlarini tushunishga ham moyilsiz, anashu noyob sifatni saqlang.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o`tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

2. G`oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 184-bet;
3. Deyl.Karnegi, tizimi asosida tuzilgan maslahatlar. T.Navro`z, 1992-38 b;
4. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992,
5. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent, 2002, 159-165 betlar,
6. E.G`oziev. «Muloqot psixologiyasi», Toshkent, 2000,
7. E.G`oziev, Toshimov R. Menejment psixologiyasi, Toshkent, 2001, 114-116-betlar.

42-Mavzu: Xotira jarayonlarini tadqiq etish.

Talaba xotira jarayonlari esda olib qolish, qayta esga tushirish, unitish, esda saqlash, operativ esda olib qolish, hissiyotning esda qoldirishga ta'siri, xotira tasavvurlari, A.N.Leontev, A.A.Smirnov, L.I.Zingenkolarning ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira aloqadorligi haqidagi tajribalari haqida nazariy qism yoritiladi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: 1. Bevosita esga tushirish;

Tadqiqotning maqsadi. Ayrim so`zlar va bir-biriga aloqador so`z birikmalarining bevosita esga tushirilishini tekshirish.

Tadqiqot uchun zarur jihozlar: so`z va so`z birikmalari: bola-qo`rqq, darg`azab o`qituvchi, og`ir ish, rivojlanish, xato, bayram, uy, aql, shahar, ko`r muzikachi, fan, balandlik, harakat, ko`cha, tinchlik.

Tadqiqotning borishi: tekshiruvchi tekshiriluvchiga bir nechta so`z va so`z birikmalarini diqqat bilan eshitib, yodda tutishni taklif qiladi, so`ngra so`z va so`z birikmalarini tinglash bilan birga ularni chizma tasvir orqali ifodalab berish ham kerak. Hamma so`z va so`z birikmalari o`qilib bo`lganidan so`ng tekshiriluvchi o`zi chizgan piktogramma (suratli, tasviriy yozuv)larining tagiga birinchisidan boshlab, o`zi esda olib qolishi lozim bo`lgan so`zlarni yozib chiqishi kerak.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Ish natijalari jadvalda qayd qilinadi.

Tavsiya qilingan so`z va so`z birikmalarining miqdori	Tekshiriluvchining ishonarli qilib yozgan so`z va so`z birikmalari	Xotira hajmi (foiz hisobida)

So`ngra tekshiriluvchining bevosita esga tushirish xotira sifati, hajmi va aniqligi haqida umumiy xulosa chiqariladi.

2. Ixtiyorsiz esda qoldirish.

T a d q i q o t n i n g m a q s a d i: emotsional va betaraf tusdagi soʻzlarni ixtiyorsiz esda qoldirishni tekshirish.

Tadqiqotlar uchun zarur jihozlar: bir qator soʻzlar: zulmat, kuy, gʻam, faryod, oʻyin, ogʻriq, qoʻrqinch, ijod, ritm, hayajon, gʻazab, joʻshqin, janjal, qulf, tugʻma, pricheska, tekislik, oyna, palto, qirgʻoq, qum, sharf, dogʻ.

T a d q i q o t n i n g b o r i s h i: tekshiriluvchi bir varaq toza qogʻozni kundaligiga buklab 2 qismga boʻladi. Tekshiruvchi yuqoridagi soʻzlarini oʻqib beradi. Sinaluvchi oʻqilgan soʻzlarni tinglab boʻlgach, ularni quyidagicha tartibda yozadi: qogʻozning chap tomoniga emotsional tusdagi, oʻng tomoniga esa emotsional tusga ega boʻlmagan, betaraf soʻzlarni yozib chiqadi. Soʻzlar yozilgan qogʻozni buklab bir chetga olib kuyadi.

Soʻngra tekshiriluvchi yana bir varaq toza qogʻoz olib ikkiga buklaydi. Keyin oldingi soʻzlarni birin-ketin esga tushirib, ularning emotsional tusga ega boʻlganlarini qogʻozning chap qismiga, emotsional tusga ega boʻlmagan betaraf soʻzlarni esa qogʻozning oʻng tomoniga takror yozadi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish. Birinchi va ikkinchi qogʻozdagi soʻzlarning soni (emotsional, noemotsional soʻzlar alohida) hisoblab chiqiladi. Soʻngra har qaysi gruppadagi soʻzlarning toʻgʻri esga tushirilganlarining nisbati hisoblab chiqiladi. Odatda esga tushirilgan emotsional tusdagi soʻzlar miqdori noemotsional sezlariga nisbatan koʻp boʻlib chiqishi kerak. Chunki kishi hissiyotiga taʼsir koʻrsatuvchi soʻzlar tez va koʻp esda qoladi.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida oʻtkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Gʻoziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 100-124-betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 126-164 betlar;
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992,
4. V.Karimova, Psixologiya. Toshkent, Toshkent-2002, 96-105 betlar;
5. Xoxlova L.P. Psixologiyadan topshiriqlar. Toshkent, Oʻqituvchi, 1992 yil;
6. E.Gʻoziev. Xotira psixologiyasi. Toshkent, Universitet, 1994 yil.

43-Mavzu: Mantiqiy tafakkurni oʻrganish

Tafakkur jarayon sifatida tafakkur turlari (koʻrgazmali harakat, koʻrgazmali obrazli), J.Piaje tajribalari, mavhum tafakkur. P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, A.M.Matyushkin tadqiqotlari haqida adabiyotlardan oʻqib oʻrganib, ilmiy manbalar asosida nazariy qismi tayyorlanadi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: Mantiqiy tafakkur mahsuldorligini aniqlash. A.M.Matyushkin metodikasi.

Tajriba maqsadi: Metodika bilan tanishish va sinaluvchining mantiqiy tafakkur mahsuldorligini aniqlash

Tajriba materiallari: Sinaluvchiga taqdim etiladigan maxsus blank va qalam.

Sinaluvchiga ko'rsatma: Bu topshiriq sizning tafakkuringizning lug'at mahsuldorligini o'lchaydi. Siz imkon darajada tezroq o'zbek tilidagi «q» harfi bilan boshlanadigan turli xil otlarni eslashingiz va yozishingiz lozim. Atoqli ot, sifat, fe'l boshqa so'zlarni yozish mumkin emas. Ishning boshlanishi vaqtini aniq belgilang. Birinchi qatorda «q» harfi bilan boshlanadigan 30 ta so'zni yozing. Bu ishni bajarish uchun sarflangan vaqtni belgilang. Uning davomida ikki qatordan qo'shimcha yana «q» harfi bilan boshlanadigan 15 ta so'zni eslang va yozing.

Shundan so'ng avvalgi qatorga sarflangan vaqtni belgilang. Agar keyingi 15 ta so'zni yozishingiz qiyin bo'lsa, sabr qiling. Ammo 10 minut davomida ishni to'xtatishingiz lozim va darhol sarflangan vaqtni qayd qiling.

Natijalar tahlili. Barcha 45 ta so'zni yozish uchun sarflangan vaqt ikkala qatorni to'ldirish uchun ketgan vaqt yig'indisiga teng.

Sinaluvchining mantiqiy tafakkurini baholash:

7 dan 10 minutgacha mantiqiy tafakkur mahsuldorligi yuqori;

10 dan 15 gacha mantiqiy tafakkur mahsuldorligi o'rtacha

15 dan 18 gacha mantiqiy tafakkur mahsuldorligi pas

undan yuqorisi juda past.

Izoh: Tajriba 25 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar:

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 134-165 betlar;
2. Ivanov P.A, Zufarova M, Umumiy psixologiya T., 2008, 186-228 betlar;
3. Petrovskiy A.V, Umumiy psixologiya. Toshkent-1992,
4. V.Karimova, Psixologiya. Toshkent, Toshkent-2002, 106-113 betlar;
5. E.G'oziev. Intellect psixologiyasi. Toshkent, universitet, 1996 y;
6. Aqliy kamolotingizni bilasizmi? (R.Yu.Toshimov, E.G'oziev, M.Mamatov. Toshkent, universitet, 1996 y;

44-Mavzu: Oilada shaxslararo munosabatlarda ziddiyatli holatlarni o'rganish muammolari

Shaxslararo munosabatning ijtimoiy-psixologik muammolari, guruhda tabaqalanish, rasmiy va norasmiy liderlar, tarbiyaviy jarayon va jamoatchilik, uyushgan jamoani tarkib toptirish omillari, shaxslararo munosabatlarda ziddiyatli holatlarni o'rganish muammolari, shaxslararo munosabatni talqin qilishning bugungi istiqbollari nazariy qismda yoritiladi.

Amaliy qism uchun talaba quyidagi topshiriqni bajarib, mustaqil tadqiqot olib boradi, olingan natijalarini tahlil qilib talab darajasida rasmiylashtiradi.

Topshiriq: „Oilaning kinetik rasmi” OKP testi

„ Oilaning kinetik rasmi “ (OKR) testi tekshirilayotgan bolaning subektiv oilaviy vaziyati to'g'risidagi boy iboratdir U bolaning o'z oila azolariga bo'lgan munosabatini, oilaviy munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Bu munosabatlar rasm chizuvchi uchun tashvish, kelishmovchiliklar keltirib chiqaradi, bolaning oiladagi boshqa a'zolar bilan o'zaro munosabatlarini va o'zining oiladagi o'rnini qanday idrok etishini ko'rsatib beradi.

OKR testidan foydalanib har bir rasm ijodiy faoliyat ekanligini o'z faqat bolaning o'z oilasini idrok etib qolmasdan shu bilan birga bolaga oilaviy munosabatlarni tahlil qilish qaytadan o'ylab ko'rish imkonini beradigan faoliyat ekanligini nazarda tutush kerak. Shu manoda oilaning rasmi faqat buguni va o'tmishni aks etirib qolmay shu bilan birga kelajakka qaratilgandir, chunki bola rasm chizishda vaziyatni tushunib olishga intiladi, dolzarb oilaviy munosabatlar muammosini hal qiladi. Ana shu paytda psixolog bolaning o'z oilasida yahshiroq ko'nikishi imkoniyatlarini izlashga yordam beradi. Lekin bu o'rinda vaziyatga subektiv, ya'ni tashqaridan qaratilgan izoh berishga chek qo'yish, bolaning o'ziga uning o'z psixologik yetukligidan kelib chiqib qanchalik idrok eta olishi va tushinishiga imkon berishi lozim.

OKR testi ikki qismdan iboratdir: o'z oilasining rasmini chizish va rasmdan keyin suhbatlashishdan tashkil topadi. Testni bajarish uchun bolaga rasm chizish uchun odatdagi qog'oz varag'i, qalam (qattiqligi 2 M) va xat o'chiradigan rizinka berilgan bolaga yo'l yo'riq: „marhamat qilib o'z oilang rasmini chizib ber, lekin uni shunday chizginki, oila a'zolari nima bilandir band bo'lishsin“. Barcha aniqlik kiritiladigan savollarga hech qanday ko'rsatmasiz javob berish kerak. Masalan, „qanday xohlasang, shunday chiz “ bizning yo'l yo'rig'imiz OKR testining odatda ishlatiladigan yo'l yo'rig'idan birmuncha farq qiladi: „ o'z oilang rasmini chiz “shunday chizginki oilaning har bir a'zosi nima bilandir band bo'lsin“. Yo'l yo'rig' bir muncha o'zgartirilgan, chunki oila a'zolarining barchasini va o'zining rasmini chizish talabi bola oiladagi hamma a'zolari to'liq chizmagan holardagiga nisbatan bolaning oiladagi o'zaro munosabatlari to'g'risida qimmatli _____ olish imkonini bermaydi.

Rasm chizish vaqtida bolaning barcha ichki ta'sir tufayli vujudga keladigan fikrlarini yozib borish, uning imo-ishorasi, yuz harakatlarini qayd qilish, shuningdek, rasm chizishning izchiligini ta'kidlab borish kerak. Rasm chizish tamom bo'lgandan keyin bola bilan quyidagi tartibda suhbat o'tkaziladi: 1) rasmda kimlar tasvirlangan, oilaning har bir a'zosi nima bilan shug'ullanmoqda? 2) oila a'zolari qayerda ishlashadi yoki o'qishadi? 3) oilada uy vazifalari qanday taqsimlanadi? 4) bolaning oiladagi qolgan a'zolar bilan o'zaro munosabatlari qanday?

OKR ga miqdor jihatidan baho berish tizimida rasmning shakl va mazmun jihatlari hisobga olinadi. Rasmning shakl xususiyatlari rasm chizuvchi chizgan chiziqlarining sifati, rasm ob'ektlarining qog'ozda holati, rasmni yoki uning ayrim qisimlarini o'chirish, rasmning ayrim qisimlarini bo'yab tashlash hisoblanadi. Rasmning mazmun xususiyatlari rasmda ko'rsatilgan oila a'zolarining tasvirlangan faoliyati ularning o'zaro harakati va joylashtirilishi shuningdek rasmdagi buyumlar va odamlarning nisbatidir.

OKR ni izohlashda quyidagi jihatlariga asosiy etibor berilgan:

1) oila rasmi tuzulishini tahlil qilish (real va rasmda chizilgan oila tarkibini qiyoslash, oila a'zolarining rasmda joylashtirilishi va o'zaro harakati):

2) oilaning ayrim a'zolari rasmining xususiyatlarini tahlil qilish (rasm qilish uslubidagi farqlar, oilaning ayrim a'zolari gavdasining detalari, chizmasi miqdori).

3) rasm chizish jarayonini tahlil qilish [rasmning izchilligi, rasm chizish vaqtidagi izohlar, pauzalar, hisiy reaksiyalar).

Izohlar sxemasining har bir jihatini batafsilroq qarab chiqamiz

Bola oila a'zolarining hammasini har doim chiza vermaydi. Odatda u kim chiqisholmay qolgan bo'lsa o'shalarni chizadi.

Masalan, 1- sinf o'quvchisi V. rasm chizilayotgan vaqtda endi yarim yoshga yetgan kichik singlisining rasmini chizadi, aniqrog' I singlisi tug'ulgandan

keyin qizchaning oilasidagi o'zgargan sharoitga ko'nikishi ancha qiyin bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchisi Y. traktorchi bo'lgan o'z otasini varaqning orqa qismiga chizganligi jahildor otasiga nisbatdan salbiy munosabatda ekanligini bildirishi mumkin.

Ba'zan bolalar haqiqatda oila tarkibiga kirmaydigan kishilarning rasmini chizadilar. Masalan, 2-sinf o'quvchisi R. qog'ozning chap tomonidagi yuqori qismiga qo'lida portfel ko'tarib ketayotgan otasining rasmini chizgan. Ma'lum bo'lishicha, bu qizchaning ota-onasi bundan ikki yil muqaddam ajiralishgan ekan.

Izoh: Tajriba 50 nafar sinaluvchida o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar

1. G'oziev E. Umumiy psixologiya 1-2 kitob, 2004, 82-125-betlar;
2. Xoxlova L.P. Psixologiyadan topshiriqlar. Toshkent, O'qituvchi, 1992y;
3. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent-2002, 171-185 betlar;
4. Toshimov R.Yu, G'oziev E. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. Toshkent 2004; 37-betlar.